

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida**

**UDK 85.3**

**ERGASHEV ABBOS BAHRIDINNOVICH**

**“BUXORO SHASHMAQOMIDA USULLAR SEMANTIKASI VA  
IJROCHILIGI: BASTAKORLARNING HAYOTI VA IJODI”**

**Mutaxassislik: 5A111101 -“Musiqqa ta'limi” yo'nalishi magistrantining**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** Saidiy Said Boltazoda

San'atshunoslik fanlari nomzodi

**Navoiy –2015**

## **REJA:**

### **KIRISH: (Mavzuning dolzarbligi)**

#### **I-BOB**

##### **1.MOVORAUNNAHR MUSIQA MEROSI TARIXI**

**1.1-§.** Buxoro shashmaqomining ilk kompozitsion ildizlari tarixi.

**1.2-§.** Buxoro shashmaqomining Xorazm maqomiga o'girish tarixi.

**Birinchi bob bo'yicha xulosalar.**

#### **II-BOB**

##### **2. MAQOM DOYRA USULLARI TASNIFI VA SEMANTIKASI**

**2.1-§.** Zarb –ul – qadim” usuli tasnifi.

**2.2-§.** Shashmaqom va maqom ijrochiligida mushkulot (chertim) va nasr (aytim) semantikasi.

**Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.**

#### **III-BOB**

##### **3. SHASHMAQOM SHO'BALARI VA SHAXOBCHALARI**

**3.1.**Buzruk maqomi.

**3.2.**Rost maqomi.

**3.3.** Navo maqomi.

**3.4.**Dugoh maqomi.

**3.5.**Segoh maqomi.

**3.6.** Iroq maqomi.

**Uchinchi bob bo'yicha xulosalar**

## **IV-BOB**

### **4.BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOMIDA**

#### **BASTAKORLIK NAMOYANDALARI**

**4.1-§.** Buxoro Shashmaqomi ijrochilik namoyandalari.

**4.2-§.** Xorazm maqomi ijrochilik namoyandalari.

**4.3-§.** Umumta'lim maktablarda iqtidorli o'quvchilarga Shashmaqom va maqom uslublarining nazariy va amaliy tasniflarini o'rganish to'garagini tashkil etish uslubiyoti.

**To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar.**

**Umumiy xulosa.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

**Ilova.**

## KIRISH

*Insonni ruhiy kamolotga yetkazish maqsadiga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. ...Karimov I.<sup>1</sup>*

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbek xalqi qadimdan o'zining boy milliy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini, jahon madaniyatiga qo'shgan ulkan xissasi bilan alohida o'rin egallaydi. Jahon madaniyati va san'ati rivojida o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosni butun dunyo tan olishining o'zi ham xalqimizning uzoq o'tmish tarixi, buguniga berilgan munosib bahodir.

O'zbek xalqining boy musiqiy merosini targ'ib va tashviq qilish uchun yurtimizda ko'p harakat qilinmoqda. 2003 yilda YuNESKO tomonidan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi" sifatida ro'yxatga olinishi bu muhtasham san'atning hozirgi sharoitda rivojlanishi, ayniqsa yosh avlod orasida e'tibor topishi uchun muhim zamin bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2002 yil 23-may-da nafaqaxo'rlar Ari Boboxonov va Hofiz Ollanazarovga maktub yo'llab, o'tmishda Buxoro va Xorazm musiqashunoslari tomonidan yaratilgan qo'lyozma maqom kitobini avaylab saqlab kelganligi uchun minnatdorchilik bildirdi<sup>2</sup>. Buxoroi sharifning mohir shashmaqomshunos hofizi va ijrochisi Ari Boboxonovga "Hamdo'stlik ordeni" berildi.

Ari Boboxonov bobosi Levi Boboxonning qo'lyozmasini asrab-avaylab, bizning davrimizgacha saqlab kelgani bilan, u tomonidan zamonaviy notasiyaga ko'chirilishi O'zbekiston xalqi, qolaversa Buxoroi sharifning bebaho va ajdodiy san'atining abadiylashtirishdek, eng muhim va dolzarb vazifalardan biri sanalishi hatto YUNESKO tomonidan e'tiborga olindi.

Ma'naviy merosga bu kabi urg'u berilishi bejiz emas. Navbatdagi vazifa ajdodlarimiz merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish, mumtoz musiqiy an'analarni hozirgi davr amaliyotiga tadbiiq etish, eng muhimi, hozirgi jamiyatimizda musiqiy merosimiz tutgan o'rnini aniq-ravshan belgilab berishdan iborat.

I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"<sup>3</sup>, deb bekorga ta'kidlamaganlar. Musiqiy meros va uning tarixini o'rganishda maqom san'ati alohida o'rin tutadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Movoraunnaxr, ayniqsa, O'zbekiston xalqlari musiqiy merosini o'rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlardan; Abdurauf Fitrat, Galina Pugachenkova, Tatyana Vizgo, Fayzulla Karomatli, Ishoq Rajabov, Otanazar Matyoqubov, Abdumannon Nazarov, Rustam Abdullaev, Oqilxon Ibrohimov, Said Saidiy, R.Yunusovlar -ning ajdodlarimiz

<sup>1</sup> I.Karimov «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch». T. Ma'naviyat. 2008.140b).

<sup>2</sup> Халқ сўзи газетаси, 2002 й 28-май.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 4.

musiqa merosini o'rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir", "Maqomlar", O.Matyobovning "Maqomot" asarlari va S.Saidiyning "Shashmaqom va maqom doyra usullari semantikasi"da milliy qadriyatlarimizdan bo'lmish maqomlarning nazariy va amaliy asoslari, SHarq musiqa ilmi nazariyotchilarining asarlari, musiqiy qarashlari, islomgacha bo'lgan an'analar, musiqiy sozlar, maqomdon ustozlar tazkiralari murojaat qilinib, ularning hayoti va ijodi hamda ijro uslublari va ijro maktablarining negiziy asoslari ko'rsatib berilgan.

Qariyb 2000 yillik ko'xna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada Borbad Marvaziy, Abu Nasr al- Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changi, **so'zlarida esa**, Mavlono Ro'dakiy, Umar Hayyom, Ustod Bedil, Firdavsiy, Manuchexriy, Xusrav Dehlaviy, Nodirabegim, Urmaviy va boshqalar kabi ulkan siymolar ijod qildi.

Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida hamda so'zlarining adabiy talqinida o'tmish tariximiz sarchashmasidagi hayot va mamot o'tmishlari bisotida juda katta boy meros qoldirdi. Biroq arab istelosi davrida musiqaga oid yozma manbalar kuydirilib, yo'qotib yuborilgan. Shuning uchun ular yaratgan musiqiy asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Lekin keyingi ming yillik tarixga oid yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. O'rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo'yicha ko'proq Abu Nasr Farobiyning «Musiqaga oid katta kitob», «Musiq haqida so'z», Abu Ali Ibn Sinoning «Musiq ilmi haqida risola», «Kitob ash-shifo» asarlarida musiqa ilmi va bastakorlik san'atiga berilgan ta'rifni asos qilib oladilar.

Musiqa ilmi XIII – XIV asrlarda yashab, ijod etgan olimlar – Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi.

Xususan, Xorazm maqomlarining nazariy va amaliy asoslarini o'rganishda asosiy manba bo'lgan XIX asrning 70-yillarida Muxammad Raximxon Feruz II rahnamoligida "Xorazm maqomlari"ni qog'ozga tushirish uchun Komil Xorazmiy tomonidan yaratilgan "Tanbur chizig'i"<sup>4</sup> ni o'rganish, uni amalda joriy etish hozir nihoyatda muhimdir. Jumladan, V.Uspenskiy, Ye.E.Romanovskaya, keyinchalik I.Akbarov, A.Otajonov, O.Bobonazarov kabi tadqiqotchilar Xorazm "Tanbur chizig'i"ni o'z ishlarida nazariy va amaliy izlanishlar qilganlar.

V.A.Uspenskiy (1879-1949) O'zbek notasiga maqom manbai sifatida ilk bor murojaat qilgan olimlardan biridir. Buxoro Xalq sho'rolar jumhuriyatining buyurtmasiga binoan u Shashmaqomni notaga olish uchun 1923 yilda Buxoroga keladi va o'sha paytlari hayot bo'lgan Shashmaqom bilimdonlari Ota Jalol (1845-1928) va Ota G'iyos (1859-1927)lardan Shashmaqomni bevosita eshitib to'g'ridan-to'g'ri notaga ola boshlaydi. Dugoh maqomining Saqili Ashkullo qismini ustozlar hech eslay olmaydi. SHunda Ota G'iyos qo'lidagi Tanbur

---

<sup>4</sup>V.A.Uspenskiyda, Унинг миллий аҳамияти эътиборга олиниб, ҳозирда Ўзбек нотаси деб аталиб келинган. (shest makomov "Shashmakom"), Gos.izdat. "Muzika", Moskva- 1924 god 3-4 str.

chizig'iga qarab, Saqili Ashkulloni chalib berganda hamma hayratga tushadi. Maqomlar butkul yozib olingan manbani ko'rgan rus olimi nihoyatda quvonib, bu nodir kitob haqida o'zining yaqin do'sti va maslakdoshi Moskva Konservatoriyasining professori Viktor Mixaylovich Belyaev (1886-1968)ga maktub yo'llaydi va ajoyib to'ilma to'g'risidagi xushxabar mutaxassislar orasida tarqalib, qiziqish uyg'otadi.

Buxoroda Shashmaqomni notaga olish ishlariga nozirlik qilayotgan taniqli olim Abdurauf Fitrat (1886-1938) Ota G'iyos qo'lidagi qo'lyozmaning tartib va xususiyatlarini Uspenskiyga tushuntirib beradi. Fitratdan olgan ma'lumotlarni qo'lyozma bilan solishtirib, V.M.Belyaevga bu haqda maktublar yo'llaydi. Tajribali olim mavjud ma'lumotlarni tartibga keltirib, hamkasbi musiqiy sharqshunoslik borasida qalam tebratib yurgan Oksfordlik olim Genri Djordj Farmer (1882-1965) tavsiyasi bilan "The Sackbut" jurnalida V.M.Belyaevning "Xorazmiy nota" ("Khorezmian notation") maqolasi e'lon qilinadi<sup>5</sup>.

Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik muzikasi va uning tarixi" asari Buxoro shashmaqomi, Xorazm Xalfachiligi va Dutor, doyra usullari tasniflanishi, Tanbur chzig'i maqomlariga taalluqli dastlabki yangiliklarni yetkazilishi bilan qimmatlidir<sup>6</sup>. Mazkur risolalarda XX asrning 30-yillariga qadar bo'lgan davrdagi qadimiy an'analar, Xorazm maqomlari tarixiga oid ma'lumotlar, ijro uslublari, usul tuzilishlari, shu davrlardagi mashhur ijrochilar haqida mahlumotlar berilgan.

N.Mironovning 1931 yili Samarqandda nashr qilingan "Obzor muzikal'nix kul'tur uzbekov i drugix narodov Vostoka" kitobida Xorazm Dostonchilik va Xalfachilik san'ati, Tanbur va Dutor maqomlaridan "Saraxbor Zihi nazzora" ashula notasi keltirilgan.<sup>7</sup>

O'zbek musiqiy fol'klorshunosligida ko'p xizmat qilgan Ye.E. Romanovskaya o'zining "Janri uzbekskoy muziki" maqolasida Dutor maqomlarining boshqa mahalliy an'analarda mavjudligini alohida zikr qilib, 4 ta maqomning nomini tilga olib o'tadi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, Ye.E.Romanovskaya mazkur maqolasida "Dugo'i husayniy", "Chorgoh", "Nasrulloiy", "Adjam" va "Navo" kabi maqom yo'llarini "Tashkentskie dutarnye makomy" deb keltirgan<sup>8</sup>. Demak, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Toshkent maqom an'analari ham Dutor maqomlari atamasi ishlatilgan.

Yu.Rajabiy tomonidan notaga olingan Shashmaqom to'plamlarida barcha asosiy kuy (maqom)larning tovushqator va tarkibiy bo'laklari mufassal ko'rsatib berilgan. O'zbek mumtoz musiqasining puxta bilimdoni, zabardast hofiz va sozandasi Yu.Rajabiyning tadqiqotchiligi o'zi bir olam. Alloma Yu.Rajabiy Shashmaqomni majmua sifatida notaga olib, kitob shaklida nashr qildirgan. Shuningdek, Shashmaqom ijrolarining ovoz yozuvlari va videofil'mlarni muhrlab qoldirgan. Ustoz tomonidan amalga oshirilgan bu ishlar Shashmaqom asoslarining o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

<sup>5</sup> Belyaev V. Khorezmian notation // The sackbut. 1924. №1.

<sup>6</sup> Фитрат. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи. – Тошкент, 1993. – 70 б.

<sup>7</sup> Мironov Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока. – Самарканд, 1931. – Б. 29

<sup>8</sup> Романовская Е.Е. Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора. – Тошкент, 1957. – Б. 37.

Bugungi davrimiz milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayoni madaniy merosimizni, shu jumladan asrlar davomida shakllangan badiiy an'analarimizni har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda. Bu borada xalqimizning bebaho ma'naviy mulki bo'lgan an'anaviy sozanda bastakorlik san'ati muhim va qimmatli manbalardan biri bo'lib, ularning keng miqyosda tadqiq etish masalasi hozirgi vaqtda alohida kasb etadi.

An'anaviy sozanda bastakorligi san'atiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iboratdir, bular:

1. Tayyor kuyga so'z solish.
2. An'anaviy musiqiy merosimizdan foydalanib asar yozish.
3. Og'zaki an'anaga murojaat qilib asar yozish.
4. Har xil janrlarni uyg'unlashtirib asar yozish.
5. Qardosh xalqlar ohangini o'zbek uslubiga moslab asar yozish.

«Bastakor» atamasining «Kompozitor», kompozitor atamasini esa o'zbekchasi «Bastakor»<sup>9</sup> degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, bu ikki musiqiy ijod yo'nalishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Bastakor forscha so'z bo'lib, basta-tuzish, bog'lovchi ma'nosini, kor-ishlash mazmunini bildiradi. Bastakorlik ijodi monodiya, ya'ni bir ovozli kuy ma'nosini bildiradi. Kompozitor-fransuzcha so'z bo'lib, yaratuvchi degan ma'noni anglatadi. Bu musiqiy ijod ko'p ovozli musiqa uslublari garmoniya va polifoniyaga bog'langan ijoddir. Bastakorlik ijodi asosan ikki yo'nalishda:

1. Og'zaki, ya'ni nota yozuvisiz
2. Nota yozuvi yordamida rivojlanib kelmoqda.

Hech kimga sir emaski, bastakorlik ijodi masalasiga yaqin-yaqinlargacha asosan g'arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan mezonlar bilan yondoshildi. Shuningdek, bastakorlik ijodi uchun birdan bir xos bo'lgan nuqtalar umuman zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartlariga aylandi. Sharqda bastakor va kompozitorlarni «Mussandif», deb tilga olingan. Hatto, Sohibqiron Amir Temur Samarqanddagi saroyida («Mussandif»-larni jalb eting !), degan edi. Kompozitor va bastakor atamasini «**Mussandif**» so'ziga almashtirilsa ayni muddao bo'lur edi.

Xususan, an'anaviy sozanda bastakorlik san'ati tarixining buyuk ijodkorlari tarixini har tomonlama chuqur o'rganish, izlanish, yosh avlod tarbiya vositasi maktab repertuarini boyitish hamda xalqimizga yetkazishga keng imkoniyatlar ochildi.

**Tadqiqot metodlari:** Tadqiqotning ilmiy-nazariy, ma'naviy asoslarini ishlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, musiqashunos olimlar Yu.Rajabiy, I.Rajabov, F.Karomatli, R.Yunusov, T.G'ofurbekov, O.Ibrohimov, O.Matyobov, A.Nazarov, S.Saidiy, Z.Oripov kabilarning musiqa tarixi, madaniyatshunoslik va musiqashunoslik sohalariga tegishli asarlari ishning metodologik asosini tashkil qildi. Shuningdek, qiyosiy-tahliliy taqqoslash metodidan ham foydalanildi.

---

<sup>9</sup> R.Tursunov. Bastakorlar ijodi. / Toshkent; "Musika" nashriyoti.. 2005 yil 57-61 betlar

**Tadqiqot maqsadi:** Kelajak yoshlarini an'anaviy va zamonaviy yangi dasturlar asosida to'ldirib borilgan holda tarbiyalash.

Tadqiqot **vazifalari** sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- 12-maqom tizimining shakllanishi va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil qilish;
- Zarb –ul – qadim” usuli tasnifini yoritish;
- Shashmaqom va maqom ijrochiligida mushkulot (chertim) va nasr (aytim) semantikasini qiyos va farazlar ostida yoritib berish;
- 5-7 sinf o'quvchilarida Shashmaqom va maqom haqida yangicha tushuncha va ta'lim berish yo'llarini ochib berish;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**Ushbu ishning ilmiy yangiliklari quyidaicha;

- Zarb –ul – qadim” usuli tasnifini yoritish;
- Shashmaqom va maqom ijrochiligida mushkulot (chertim) va nasr (aytim) semantikasini qiyos va farazlar ostida yoritib berish;
- 5-7 sinf o'quvchilarida Shashmaqom va maqom haqida yangicha tushuncha va ta'lim berish yo'llarini ochib berish;

**Tadqiqot ob'ekti sifatida;** O'zbekiston va Tojikiston xududlari, o'zbek va tojik musiqiy merosini tadqiq va tahlil etish hamda semantikasini ochib berish belgilandi. uning predmeti sifatida “Buxoro shashmaqomida usullar semantikasi va ijrochiligi: Bastakorlarning hayoti va ijodi” ni, xududiy va uslubiy kesimda o'rganib chiqishni o'z ichida qamrab olgan.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar;** 12-maqom tizimining shakllanishi va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil qilish;

- Zarb –ul – qadim” usuli tasnifini yoritish;
- Shashmaqom va maqom ijrochiligida mushkulot (chertim) va nasr (aytim) semantikasini qiyos va farazlar ostida yoritib berish;
- Buxoro Shashmaqomi ijrochilik namoyandalarini yoritish
- 5-7 sinf o'quvchilarida Shashmaqom va maqom haqida yangicha tushuncha va ta'lim berish yo'llarini ochib berish;

**Tadqiqotning mutaxassislik fanlari bilan bog'lanishi;** An'anaviy uslublar bilan bog'langan tadqiqotimiz, “An'anaviy musiqa”, “An'anaviy xonandalik”, “An'anaviy cholg'u”, “O'zbek xalq musiqa madaniyati”, “Musiqa tarixi” fanlari bilan bog'lanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** shundaki, milliy mafkuramiz shakllanayotgan bir davrda ma'naviy tarbiya hamda milliy meros vositasi sifatida an'analarni ilmiy asoslari yaxlit tizimda o'rganilib yoritildi. Unda ilgari surilgan g'oya, fikr-mulohazalar, amaliy taklif va tavsiyalar – madaniy-ma'rifiy, musiqiy-pedagogik va san'at hamda tarix sohasiga ixtisoslashtirilgan o'rta maxsus va oliy ta'lim dargohlarida dars berish jarayonida bir qator ma'ruzaviy hamda individual o'quv kurslari ish rejasiga bevosita kiritilishi, shuningdek, o'zbek mumtoz musiqasi va madaniyati tarixini chuqurroq yoritishda ilmiy manba sifatida unumli foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi; Dissertatsiya** ishining umumiy hajmi 132 bet bo'lib, asosiy qism 115 bet, 231 ta manba, kirish, 4- bob, qismlar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, annotatsiyalar va ilovadan iborat.

## **I-BOB**

### **1.MOVORAUNNAXR AJDODIY MUSIQA MEROSI TARIXI**

#### **1.1-§. Buxoro shashmaqomining ilk kompozitsion ildizlari tarixi.**

Ajdodlarimiz tomonidan meros bo'lib kelayotgan milliy musiqamiz an'analarni o'rganish va ularni butunjahon tamadduni taraqqiyotiga xizmat qildirishdek, tarixiy vazifani tabdil etganligi xalqimizning istiqlool yillaridagi madaniyat va san'at sohasida erishgan ulkan ma'anaviy ozuqa bo'ldi.

Jahon musiqa merosining ulkan sarchashmasi hisoblangan Shashmaqomning YuNESKO tomondan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" deb e'tirof etilishi katta tarixiy voqea. Ota-bobolarimizdan qolgan mo'tabar musiqiy merosni nafaqat asrab-avaylash, balki kelasi avlodlarga tortiq qilish ham bugungi vazifamizdir.

Bobokalonlarimiz tarafidan qadimgi davrlardan beri bizgacha saqlanib kelingan mumtoz musiqiy obidalar, ularning hayot tarzlaridagi o'ziga xos an'analari zamonlar o'tishi bilan shu makonda kamol topgan ilm ahlining musiqiy izlanishlarida sayqal topib, tobora ilmiyroq bir tusga tegishli yozma manbalarga muhrlanib, ma'anaviy boyligimizga aylangan. Ushbu mulkni tadqiq qilib, amaliyotga tadbiq etish va ularning semantikasini ochib berish kabi muhim vazifa, ayni paytda, biz uchun kechiktirib bo'lmaydigan ishlardan biridir.

Buxoro ajdodiy san'ati Suyovush davrida bir tomondan So'g'dlar va ikkinchi tomondan Hindiston, Xitoy va Arab davlatlari bilan savdo sotiq yo'llarini mustaxkamlab, buyuk ipak yo'llarida katta bazmlarni ham uyushtirib kelganligi bilan bir-birovini musiqa san'ati bilan yaqqol tanishib, tajribalar ortirilgan deyish mumkin. Ushbu kesimda ijrochilik san'ati raqobatchilikka bel bog'lash darajasiga yetgankim, buni saroy podsholari markazlarida uyushtirib kelingan. Shu tariqa "Rost", "Navo", "Ushshoq", "Segoh" janrlari o'zga xos nafisligida, o'sha davrda ham eng murrakkab ijrochilik sirasiga kirganligini Fahlobod Borbad asarlarida uchratish mumkin. Shuningdek, tarixchi Nasrshaxiy Buxoriyning "Buxoro tarixi" kitobida asoslangan. Buyuk Qo'shoniylar imperiyasi davridan boshlab sharq bilan aloqalar kuchayib borishi natijasida ezgu hayot va musiqa san'ati rivojlanadi.

Masalan, "Ho-zamzam" qo'shig'ini Tojikistonda fol'klor uslublarida aytilishini uchratish mumkin. Bu qo'shiq davrlar o'tib ancha takomillashib,

zamonaviy musiqa ijrochiligida o'z o'rniga ega bo'lgan. Uning fol'klor uslubiga birmuncha yaqinligi, usul tartiblari Buxoroning «ufar»iga o'xshab ketadi. Biroq, Buxoro an'anaviy ufarining ijro etilish xususiyatini o'zga biror etnik guruh yoki xalqniki bilan solishtirib bo'lmaydi. U faqat Buxoroga xos uslubiy shaklda ekanligi bilan alohida ajralib, sezilib turadi.

R.Abdullaev tadqiqotida, asosan o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz va qoraqalpoq kabi turkiyzabon aholi bilan birga, fors-tojik vakillari ham yondosh yashashi natijasida milliy an'analarning musiqiy-ma'naviy hayotda ko'plab urf-odatlar, bayramona bazmlar, diniy marosimlarning naqadar qo'shilib-chatishib ketganligi haqida qiziqarli fikr-mulohazalar yuritadi

Qadimdan bizga ma'lum cholg'ular tarannumidan tashqari "chapak", "qars" hamda qo'lga angishvona taqib, likopchalarga zarb berib, xor bo'lib kuylash udumlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Masalan, Zardushtiylarning qadimgi Kushon davri san'atiga xos diniy bayram usullari va harbiy xor jamoasining qo'shiqlari, ya'ni "Mozandaron" harbiy qo'shig'I, "Qini Siyovush" (Siyovush qasosi) – marsiyasi yoki qadimgi Buxoro umum- guruh jamoasi an'alaridan "Yazno-Nofarin" qo'shig'i, "Ho-zamzam"<sup>10</sup> usullari hozirgi davrda M.Tursunzoda nomidagi Tojikiston xalq konservatoriyasi o'qituvchilarining tashabbuskorligi bilan talabalar va o'qituvchilardan tashkil topgan aralash xor dastasi va turli xil ansambllar dasturidan o'rin olgan<sup>1</sup>. Ammo, Buxoroda bu yo'nalishlar sho'rolar hukmronligi davrida asta-sekin e'tibordan chetga chiqib qolgan. Biroq, turli aholi qatlamlari orasida hanuzgacha shunday ijro uslublarining ayrim tartib-namunalari saqlanib qolgan.

Buyuk Qo'shoniylar davrining 300 ta talabadan iborat "Shoxona" professional Saroy XOR jamoasining repertuari.

Ushbu xor jamoasi 21 ta madhiyani yoddan bilgan, qaysi talaba 21 ta madhiyadan birini aytaolmasa, unda shu zahot talabalik safidan chetlashtirilib, saroydan haydalgan. Zero maxsus Xor faqat Siyovush va Podshohlarga bo'y sunib kelgan va saroydan tashqariga konsert qo'yish yo xizmat qilish uchun Podshohning ruxsatigina amalga oshirilgan. Saroydan yashirincha chiqib Tumnat qilganlar esa shu zahot boshidan qatl etilgan.

### **Buxoro "Dabiriston" maktabi er.avv.470 yil**

#### **Misollar: Ho-zamzam**

| O'lcho<br>vlar | Temp (tezlik) lar<br>m/m | Dinamik belgilar                                                  | Talqin etilishlar   |
|----------------|--------------------------|-------------------------------------------------------------------|---------------------|
| 1] 6/4         | 1] M:m = 60-80           | f<p<ff<mf<f> <sub>sF2</sub> >f<mf<br><f<ff>sf <sub>2</sub> <f>fff | 1]Orombaxsh.        |
| 2] 4/4         | 2] M:m = 120             |                                                                   | 2]Quvnoq, jo'shqin, |
| 3] 2/4         | 3] M:m = 140             |                                                                   | 3]Zavqona raqsbop   |

<sup>10</sup> S.Saidiy tomonidan Душанбе, ТГИИ. КИП факультет концерти вақтида 1990 йил ёзиб олинган.qo'ltozma shaxsiy kutubxonasi. 2014 yil 30 may oyi.

<sup>1</sup> o'sha asar.(qo'lyozma).

|          |  |
|----------|--|
| Usullar: |  |
|----------|--|

### Mozandaron harbiy qo'shig'i

| O'lchovlar         | Temp (tez-lik) lar. m/m  | Dinamik belgilar                                                | Talqin etilishlar                                                 |
|--------------------|--------------------------|-----------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| 4/4<br>12/8<br>6/8 | M:m = 60-80<br>M:m = 140 | $f > mf > sf_2 < mf < ff > f >$<br>$< sf_2 > mf < f < ff < fff$ | 1) CHaqiruvchan,<br>2) hayajonli,<br>3) jangovor,<br>4) tantanali |
| Usullar:           |                          |                                                                 |                                                                   |

Yuqorida nomi keltirilgan qo'shiqlar turli xil tasniflanishlar va eng muhimi muayyan turkumiylilikda qismlardan qismlarga to'xtovsiz o'tish jarayonlari, o'ziga xos usullari, ushbu usullar ritm-o'lchovlari hamda temp [tezlik] jihatlari bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuni qayd etish lozim ko'rinadiki, **Buxoro "Shashmaqom"**i Avesto davridan so'ngi asrlarda, aniqrog'i, uning ildizi 2400 yillik davrga teng keladi. Demak, Aaleksand Makedonskiyning bizning o'lkalarimizga kirib kelishidan oldin, Eronnajok xududlar va Turon zaminlarida oltin hayot peshqadamlik qilgan davrlardan dalolat berishini tassovur qilish, zamonaviy dunyoqarashlar va ma'naviyatiga ega inson tariqasida qiyoslash mumkin.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Paxlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy<sup>11</sup> va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan.

Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, qonunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, minatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat

<sup>11</sup> Change Darvish Ali. Traktat o muzike. (perevod s pers.-tadj. D. Rashidovoy) Rukopis bib-ka NII Iskuststvovnaniya Inv. N879 s. 23-29.

beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mug'om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda Buxoro, Uyg'uriston, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (davo zdax) maqom mavjud bo'lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Busalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg».<sup>12</sup>

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvo zdah maqom» (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lg'on: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Roho'», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig'» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi.

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas.

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor maqom»i (To'rt maqom), «Dugoh Xusayniy»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Lekin X-XII asrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ustoz musiqashunos olimlarning yozma manbalariga asoslanib ba'zilar ustida to'xtab o'tishni lozim topdik. VI-VII asrlarda yashab ijod etgan O'rta-Osiyolik Faxlobod Borbad haqida ma'lumotlarga qaraganda musiqashunoslik, bastakorlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q san'atkor bo'lganligi e'tirof etiladi. Afsonaviy ijrochilik mahoratiga ega bo'lganligi xaqida yozgan ustoz musiqashunos olim Ar-Roziy Borbadning buyuk ijrochilik mahorati bilan birgalikda musiqiy sozlarning ham yaratuvchisi

---

<sup>12</sup> Nazarov A. F. Kniga pesen al-Isfaxani v aspekte mejregionalnix muzikalno-transkulturalnix processov. Dis. Kan. Is-ya, bib-ka NII Iskusstvoznaniya. Inv N812, s. 37

bo'lganligini aytib o'tadi. Borbad yaratgan musiqa asbobi X-XII asrlarda Xuroson va Turonda keng tarqalganligini va uning 4 torli bo'lganligini yozadi<sup>13</sup>.

Qadimiy qo'lyozmalarda X-XII asrlarda ijod qilgan Abubakr Rubobiy, Bunasr, Buamir va changchi Lukoriy va boshqa sozanda va hofizlarning nomlari eslab o'tiladi.

IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo'lganligi, ayniqsa «Bo'yi juyi muliyon» sheprini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo'lyozmalarda ko'rsatilgan. Adabiyotshunos olim N.Mallayev qadimiy ko'lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kus nog'ora, qo'biz, tabl, tanburok, zir, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg'u asboblari o'lkamizda keng tarqalganini va o'n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ko'rsatib o'tgan.

O'sha davrning buyuk olimi Maxmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otiy turk» asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi va qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi mexnat qo'shiqlari, qaxramonlik qo'shiqlari haqida namunalar berilgan bo'lib, o'sha zamonda qo'shiqchilik janri rivoj topganini ko'rsatadi.

X-XII asr musiqa va ashula san'atiga doir bayon etilgan noyob ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning «Kutadg'u bilig» asarida ham uchraydi. X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr Al Forobiy (873-950) bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan asarlari asosida ovro'pa olimlari ham qator asarlar yaratganlar. Farobiy o'z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga fiziologik asoslarini ishlash ustida ijod qildi va «Konun», «G'ijjak» kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi. Uning musiqa sohasidagi nazariy asarlaridan «Kitab ul musiqa al- kabir» («Katta musiqa kitobi»), «Kalom fakultet-il musiqi» («Musika haqida so'z»), «Kitob fi ixsoal ibko'» (kuylar tasnifi haqida kitob), «Kitob fi-n naqra muzofa ilal ibqo'» (Ritmga qo'shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob) kitoblari ma'lum. Akademik Muzaffar Xayrullayevning «Forobiy» asarida uning musiqa ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Forobiy Turkistonning Farob (O'tror) shahrida tug'ilgan bo'lib, uning otasi Muhammad Tarxon turkiy qabilalardan edi. Avval O'trorda, o'qib, so'ngra Bog'dodga borib unda falsafa, tabiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug'ullanadi. Qadimgi Yunon faylasuflaridan Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel') larning dunyo qarashlarini chuqur o'rganib, ularning ta'limotlarini qaytadan ishlab chiqdi. Bu esa unga Aristoteldan keyin «Ustod soniy» (Ikkinchi ustod) nomini beradi<sup>14</sup>. U o'sha davrning eng o'tkir sozandasi, bastakori, O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda musiqa madaniyatining yirik arbobi sifatida tanildi. Forobiy o'sha davr ijrochilik san'atida ham benihoya katta shuhrat qozondi. Uning musiqa yo'nalishidagi nazariy asarlari kelajakda O'rta Osiyo xalqlari musiqa fani taraqqiyotiga asos

<sup>13</sup> Matyoqubov O. R. Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish. T., O'qituvchi, 1983, b. 7

<sup>14</sup> Korogli X. G. vzaimosvuzi eposa narodov Sredney Azii, Irana I Azerbaydjana. M., 1983, s. 8

bo'ldi va shu bilan birga dunyo musiqa fani rivojiga ham katta hissa bo'lib qo'shildi.

Yana bir ulug' alloma Abu-Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa nazariyasi bilan shug'ullangan bo'lib, 1931 yilda Maxmud al Xavfning Berlinda nashr etilgan Ibn Sinoning musiqa ijodiga bag'ishlangan kitobida Abu-Ali Ibn Sinoni katta musiqa nazariyachisi va uning musiqa asboblari ham kashf etgani to'g'risida ma'lumot beradi. Yana shu kitobda ulug' olimning musiqa haqidagi «Kitob un najot» asarining arabchadan nemischaga tarjimasi berilgan. Abu Ali Ibn Sino meditsina, falsafa, musiqa sohasida «Alqonun fit-tib» («Tib qonun»), «Kitob ul shifo» («Shifo kitobi»), «Donishnoma», «Risola fial musiqiy sayr mo fi al shifo» («Musiqa to'g'risida» «Shifo»da berilgandan boshqa risola») kabi qator asarlarni yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir mulohazalari «Kitob ush shifo» asariga alohida bir qism qilib kiritilgan. Yuqoridagi asarlarda Ibn Sino musiqaning estetik ahamiyati va ta'sir kuchiga e'tibor berib, ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o'z amaliyotida joriy qiladi. Bu yana o'sha davrda musiqa san'atining yuksaklikka erishganini ham ko'rsatadi. Abu Ali Ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, otasi Abdullox asli Balhlik davlatmand va madaniyatli kishi bo'lib, o'g'lini yoshligidan qobiliyati, iste'dodini, zehnini ko'ra bilgan holda uning o'qishiga katta e'tibor beradi. Ibn Sino Buxoroda yashagan davrida Somoniylarning boy kutubxonasidan foydalanadi va Yunon kitoblarini tinmay qiroat qiladi. 999 yilda Qoraxoniylar tomonidan Somoniylar davlati qulatilgach, Urganchga kelib Xorazm olimlari qatoridan joy oladi. Keyinchalik Maxmud G'aznaviy tazyiqi ostida ko'p shaharlarni kezib, 1037 yilda Hamodonda vafot etadi.<sup>15</sup>

XII -asrdan boshlab Al Forobiy, Abu Ali Ibn Sino musiqa nazariyalari zahirida mahalliy tillarda musiqa fani haqida qator asarlar maydonga kela boshladi. Xorazmlik olim Ar-Roziiy o'zining XII -asrda yozgan «Jome'ul -ulum» qomusining bir bo'limini musiqa faniga bag'ishlagan. XIII - asrda Muhammad Ibn Ma'sud ash- Sheroziy (1236-1310) «Dar ilmiy musiqiy», Sayfuddin Abdul Mo''min al Urmaviy (1294 yilda vafot etgan) ning «Risolatun Sharafiya» kabi asarlari ham musiqaga bag'ishlangan. Musiqa ilmi bilan o'rta asr olimi Muhammad al Amuliy ham shug'ullangan zamonamizning atoqli musiqashunos olimi san'atshunoslik doktori Ishoq Rajabov (1927-1982) XIII- asrda maydonga kelgan al Urmaviyning «Risolatun Sharfiya», Ash-Sheroziyning «Dar ilmiy musiqiy» asarlariga ilova qilingan va ud sozu uchun yozilgan qadimiy musiqa notalarini shartli belgilar bilan hozirgi zamon notasiga o'girishda tajribalar o'tkazdi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu tadqiqotda XIII-asrda notaga olingan qadimiy musiqa tuzilishini hozirgi zamon o'zbek kuylariga juda yaqinligi aniqlangan.

Tarix zarvaraqlariga nazar solganimizda ulug' bobomiz Amir Temur davrida ham madaniyat va san'at rivojlanganligini guvohi bo'lamiz.

---

<sup>15</sup> Karomatov F., Elsner Yu. Makam I makom, kn: Muzika narodov Azii I Afriki. Vip . M., 1984, s. 91

Ayniqsa, Abdulqodir Marog'iyning Shom davlatidan olib kelib saroy musiqachilarining rahbari etib tayinlaganligi ham uning musiqa san'atiga ixlosmand bo'lganligidan dalolat beradi. XVII- asr musiqa tarixchisi Darvish Alining ma'lumotiga qaraganda Xoja Abdulqodir Marog'iy isfaxonlik bo'lib, o'sha davr Sharqining buyuk musiqa olimi, bastakor va nazariyotchisi edi. U Samarqandga kelgach, saroy teatri va musiqasiga raxbarlik qildi. Samarqandda o'z maktabini yaratdi, ko'plab shogirdlar tayyorladi va musiqiy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Zubdatul advor», «Maqosidul ilhon» nomli kitoblari yozilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib, Darvish Ali yana «Miatayin» nomli musiqa to'plami yaratgani haqida ma'lumot beradi.

Amir Temur o'z tuzuklarida o'ninchi toifa hunar-san'at egalaridir. Ularning davlat xonaga keltirib o'rdada o'rinlar belgilangan, deb ta'riflaydi. Yozma manbalarda yana shu davrning yirik bastakor sozandalaridan Sayfitdin Nayi va Qutbi Nayi, Said Yusuf (qo'buz), Darvish bek kabi musiqa sohasida mashhur bo'lgan san'atkorlar qalamga olinadi.

Movarounnaxr madaniyati va san'ati ayniqsa Ulug'bek (1394-1449) zamonasida yuksaklikka ko'tarildi.

Professor Abdurauf Fitrat,<sup>16</sup> Ulug'bek davrida Samarqandda ijod qilgan Darvish Axmadiy Qonuniy, Sulton Ahmad Nayi, musiqiy risola yozgan qorako'llik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos olim mavlono Sohib Balhiy, Shahrisabzlik bastakor Abul Baraka, mashhur sozanda Navoiyning mualimmi Xo'ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad ali G'aribiyalar kabi o'sha zamonning mashhur san'atkorlarini qalamga olib o'tadi. Mashhur musiqashunos Hofiz Darvish Alining qalamiga mansub «Tuhfatus surur»<sup>17</sup> asarida aytilishicha Ulug'bek Mirzoning o'zi ham musiqiy olimlardan sanalgan.

«Muhit at tavorih» kitobida uni bastakor sifatida «Bulujiy», «Shodiyona»- (bu bizgacha yetib kelgan), «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuli Bahri» kabi yirik musiqa asarlari yaratgani ko'rsatiladi. Ma'lumotlarda shaxar san'atkorlari ichida yallachi ayollar va raqqosalar ham bo'lganligi aytib o'tiladi.

Ulug'bek vafotidan so'ng san'atdagi rivojlanish davri Xirotga ko'chdi. Buning bevosita rahbarligida ulug' bobomiz Alisher Navoiy turdi, podshoh va shoir Xusayn Boyqaro xomiylik qildi. Navoiy butun Movarounnahr, Xuroson san'at va adabiyot, madaniyat ahlining sarboni bo'lib yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi. Shu davr ichida o'zbek xalqining musiqa madaniyati yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Buyuk musiqa ustozlari eng iste'dodli talabalarni o'z tarbiyasiga oldi. Yangi kuylar, qo'shiqlar, musiqa nazariyasiga oid asarlar maydonga keldi, talantli sozandalar, bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Ustozi va dusti buyuk shoir Abduraxmon Jomiy ham bu borada qalam tebratib «Risolal musiqiy» asarini yozdi. Bu asarda o'zbek xalqining qadimiy o'n ikki maqomi haqida qimmatli ma'lumotlar berildi. Yana bir zamondosh olim Zaynobbudin Al Xusayniy «Qonuni ilmi va amali musiqiy» nomli musiqiy darslik yozib, uni

<sup>16</sup> Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., Fan, 1993, b. 39-40

<sup>17</sup> Change Darvish Ali. Traktat o muzike. (perevod s pers.-tadj. D. Rashidovoy) Rukopis bib-ka NII Iskustvovzaniya Inv. N879 s. 23-29.

Navoiyga bag'ishladi. Nuritdin Marg'iloniyning «Maqsadul advor» («Musika ilmini maqsadi») risolasi ham maydonga keldi. Navoiy faqat san'atkorlarning xomiysi bo'libgina qolmay, u musiqa olimi va bastakori ham bo'lgan. Zaxriddin Muhammad Bobur uning bir qator musiqa asarlari yaratganini, jumladan «Naqshi» (ashula)lari, «Peshrav» (musiqa)lari borligini «Boburnoma» asarida hikoya qiladi. O'zlarining tahalluslari ham «Navo» ga bog'langanliklari zahirida musiqaga yaqindan oshno bo'lganliklarini ko'rsatadi!.

Navoiy «Mahbubul-qulub» asarining ikkinchi mutrib (ashulachi), mug'anniy (sozanda) faslida mutrib va mug'anniylar ijrolarini ta'sirchanligi va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritadi va nay, g'ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo'buz, qonun, chag'ona, kabi musiqa asboblari fazilatlarini ham ta'riflaydi. «Mezonul avzon» asarida Navoiy tuyuq changi, turkiy, orzuvoiy, muhabbatnoma, musta'zod kabi xalq qo'shiqlarining 8 turi, ularning vazn xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi. «Hamsatul-mutahayyirin» asarida esa Navoiyning musiqa nazariyasiga katta e'tibor bergani namoyon bo'ladi. Bu asarda Mavlono Ali O'ohning tengi yo'q sozanda, nazariyotchi ekanini va unga bir nazariy darslik yozishni topshirganini aytadi. Bundan tashqari ustod Qulmuhammad, Xo'ja Shahobiddin, Abdullomarvaridiy, mavlono Binoiy kabi musiqashunoslarning musiqaga oid asarlar yozganlarini ko'rsatib o'tadi. Navoiy «Xolati Paxlavon Muhammad» asarini o'z davrining buyuk bastakori, o'n ikki maqomning takomillashuvida katta xissa qo'shgan Paxlovon Muhammadning musiqa ijodiga bag'ishladi.

O'sha davr musiqa madaniyati haqida Zaxriddin Muhammad Bobur ham qimmatli ma'lumotlar bergan. Uning yozishicha ustodlar Qulmuhammad, Abdullo Marvoridiy, Xusayn Udiy, Darvishbek, Yusuf o'g'loqi (qo'biz), G'ulom Shodi, Shayxi nayi, shayx quli (g'ijjak)lar Navoiyning yordami va g'amxo'rliqi tufayli shuhrat topganlar. Zayniddin Vosifiy o'zining «Badoye'ul vaqe'» asarida Navoiy zamonasida xalq san'atini katta rivoj topgani to'g'risida yozib, Xasan Nayi, Ahmad G'ijjakiy, Ali Kuchak Tanburiy, Xasan Boloboniy, Mirzo Bayram, G'iyosiddin kabi sozanda va bastakorlarni nomlarini keltiradi.

Zayniddin Vosifiyning ma'lumotlariga qaraganda Hirot Safaviylar tomonidan ishg'ol qilinganda besh yuzga yaqin san'at axli Movarounnaxrga ko'chish qilganligi, bular orasida Qosim Ali qonuniy, ashulachi va sozanda ayol (tug'anniya) Chaqar Xonim, Said Ahmad G'ijjakiy, Muhibi Ali Boloboniy, Xasan Udi, Xusan Udi, Xusayn Kuchak nayi, Hofiz Marxonanda, raqqoslardan Maqsud Ali<sup>18</sup> kabilar borligi aytib o'tiladi.

Professor Abdurauf Fitrat ham XV-asrda Movarounnaxr va Hirotida ijod qilgan «Ishrat» isimli cholg'u sozini chaladigan ustod Abulqosim va Xusayn Boyqaroning musiqiy muallimi, andijonlik mavlono Yusuf Badiyi, (Xusayn Boyqaro ham musiqa bilan shug'ullanganligi, shundan ko'rinadi), tanburga bir sim qo'shimcha qilib ijro etgan. Mahmud Shayboniy, Abduqodir Marg'iloniy, Habibulloiy changi, Muharramiy chanchi, Ali Shunqar, Mehtar Shamsiddin

---

<sup>18</sup> N. Kavkabi. Ko'rsatilgan adabiyot. B. 48; Abdurahmon Jomiy. Traktat o muzike. T., AN UzSSR, 1960, s. 85

nog'orachi, Mehtar Imom nog'orachi, Alijon g'ijjakiylar kabi o'sha zamonning musiqiy ustozlari haqida ma'lumot beradi.

XVI-XII asr musiqiy san'atning taraqqiyotiga nazar solsak, o'rtadagi bir qancha uzilishlardan so'ng, oldinga siljishlar ro'y berganini guvohi bo'lamiz. XVI-asrning yirik shoiri va musiqashunos olimi Najmitdin Kavkabiy (1576 yilda vafot etgan) rahbarligida o'n ikki maqom yanada mukammallashdi. Darvish Alining hikoya qilishicha, Hirotida tahsil ko'rgan mavlono Najmitdin Kavkabiy Ubaydulloxon tomonidan Buxoroga oldirib kelingan va bu yerda o'z maktabini yaratib, o'zbek musiqasi takomili ustida ish olib borgan. U Xo'ja Muhammad Mavlono Rizo Samarqandiy, Xo'ja Xasan Nisoriy, Mavlono Xasan Kavkabiy, Boqi jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlagan. Kavkabiy «Risolai musiqiy»<sup>19</sup> asarini yaratib musiqa nazariyasi faniga katta hissa qo'shgan.

XVI-asr oxiri XVII-asrda Shayboniylar hukmdorligi davrida Buxoroga-turli yerlardan san'atkorlarni olib kelib to'plash davom ettiriladi. Ubaydulloxon (o'z shoir sifatida devon qildirgan) Xirotni bosib olganda mashhur Hofiz Axiy Garaviyni Buxoroga oldirib keladi va Garaviy Buxoroda maqom ijrochilari maktabini tashkil qiladi. Darvish Alining shohidligi berishicha Axiy Garaviy maktabida Xo'ja Hamza Toshkandiy, Xo'ja Bobo changiy, Darvish Mahmudiy Andijoniy, Hofizi Ushshoqiy kabi Movarounnaxrning turli joylaridan kelgan hofizlar tarbiyalanganlar.

XVII -asrning yirik sozandasi, musiqa tarixchisi va nazariyotchilaridan biri Darvish Ali Changi bo'ldi. U 12 bo'limdan iborat «Risolai musiqi» asarini yaratdi. Bu asar o'sha davr musiqa tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda maqomlar, maqomlarning sho'balari, usullariga va musiqa nazariyasiga keng to'xtaydi. Darvish Ali risolasiga turli davrlarda yashagan sozandalar haqida va o'sha zamon musiqa asboblari tanbur, chang, nay, qo'shnay, qonun, ud, barbad, rubob, qo'buz, rud, g'ijjak, ishrat, kungura, dutor, setor, surnay, bolobon, nog'ora, karnay, doira kabi sozlar to'g'risida keng ma'lumot beradi. Bu davrda yana noma'lum mualliflar tomonidan «Risolatun fiilmil musiqiy», «Prisolai karamiya» kabi musiqa nazariyasiga oid asarlar ham yoziladi.

**Darvesh Ali Changiy.** Buxoroda yashab ijod etgan bu ulug' musiqashunos, san'atkor hayotining so'nggi yillari Imomqulixon zamoniga to'g'ri keladi. Uning oxirgi yirik musiqiy risolasi aynan shu Imomqulixonga bag'ishlangan. Ma'lumki, mazkur davr Movarounnahr tarixida ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgarib, ko'proq diniy xurofotga yuz tutilgan payt edi. Madaniy-ma'rifiy sohada ham Temuriylar saltanatida oliy maqomda bo'lgan va buyuk cho'qqilarga erishgan nafis san'atlarga e'tibor kamaya boshladi. Shuning uchun Darvesh Alining musiqiy ta'limoti, davr taqozosiga ko'ra, Kavkabiynikidan boshqacharoq ehtiyojlarga qaratilganligi bilan xususiyatlanadi.

Bundan tashqari, badiiy ilmlar sohasida mukammal tarbiya topgan, she'riyat va musiqiy san'atlarga o'ta ishqiboz bo'lgan Ubaydulloxondan farqli ravishda

---

<sup>19</sup> Kavkabiy Najmiddin. Risolai musiqi. Risola dar bayoni Duvozdahmaqom. Tahiya, tahqiq va tavzohot ba qalami Asqarali Rajabov. Dushanbe, Irfon, 1985, b. 65. (Kulliyot mazmunin o'zbek tiliga o'girishda Ismoil Bekjon tarjimasidan erkin foydalandik.)

Imomqulixon nafis san'atlarga uncha iltifotli bo'lmagan. Shul sababdan, allomai zamon Darvesh Ali Changiy musiqa borasida ilmiy-nazariy qarashlar bilan bir qatorda bu fanning sharofati haqida hadis hikmatlar keltirish va zamondoshlar ongiga singib ketgan aqidalarga muvofiq rivoyat hamda afsonalarga tayanib fikr yuritishga majbur edi.

Qanday bo'lmasin, Darvesh Ali mohiyatan Temuriylar davrida yuzaga kelgan ulkan madaniy-ma'rifiy maktabning merosxo'ri.<sup>20</sup> U badiyat ilmi, xususan, musiqaning nazariy va amaliy asoslarining puxta bilimdoni, hofizi Qur'on, mohir cholg'uchi va go'yanda, xoslar davrasida e'tibor topgan ustoz. Mavlono Darvesh Ali o'z oldida turgan murakkab ilmiy vazifani yuqori saviyada ado etishga muyassar bo'ldi. Uning risolasi o'z davri va hududining oliy darajadagi musiqiy qomusi bo'lib xizmat qiladi. Uning sahifalaridan O'rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyatining uzoq tarixi hamda ildizlari samarasi oldingi va keyingi zamonlarda yuzaga kelgan ilmiy qarashlarga tutashib ketgan nodir ma'lumotlarni topish mumkin.

Musiqaning sharofatini dalillash maqsadida hadislarga murojaat etilishi va musiqadek murakkab, mavhum va ayni chog'da hayotbaxsh masalada diniy hamda dunyoviy ilmlarni muvofiqlashning o'zi Darvesh Alini yirik mutafakkir sifatida e'tirof etishga loyiq. Bevosita musiqaning ilmiy asoslari, xususan, parda (maqom) va usul masalalarini yoritishda diniy va dunyoviy qarashlar ila muvofiq bayon qilganligi Darvesh Ali risolasini mintaqqa musiqa tarixidagi shoh asarlardan biri deb qarashga imkon beradi.

Marog'iyning "Maqosid al-alhon"ida musiqaning bosh omili bo'lmish nag'maning to'rtta asosiy manbai qayd etiladi. Birinchisi, hisob ilmi negizida hosil qilingan nag'malar. Ya'ni, past-balandligi sonlar nisbati bilan ifodalanadigan nag'ma birliklari. Ikkinchisi, handasa ilmi, ya'ni, cholg'u asboblardagi torlarning uzun-qisqaligini o'lchash yo'li bilan yuzaga keltiriladigan nag'malar. Uchinchisi, ilmi ta'ab, ya'ni, insonning irodasi va his-tuyg'ulariga (hayojon, sokinlik, qo'rquv, shijoat, g'am, shodlik va boshqalar) kabi ruxiyyotga xos muvofiq sodir bo'ladigan nag'malar. To'rtinchisi, urf etilgan ilmlardan yuzaga keladigan nag'malar.

«Risola qismidagi ma'lumotlar orasida Kavkabiylar ijodi, ayniqsa, uning Kulliyotini SHashmaqomga bog'langan tomonlari diqqatga loyiq. Uning unvoni "Zamonasining Xoja **Abdulqodir Mavlono Kavkabiylar Buxoriy**" — deb, iftixor etilgan. O'zR FASHI inv.№ 468 raqamli qo'lyozmada riyoziy va tabiiy ilmlardan ko'ra, an'anaviy yo'l-yo'riqlar ko'proq o'rin oladi. Uning birinchi bobida samo' va dafga oid hadislar, ikkinchi bobida ilmi musiqiyning kuy (alhon) va vazn (iyqo'ot) asoslari bayon etilgandan so'ng, uchinchisi bobida to'g'ridan-to'g'ri asl maqomlar va ularning tarmoqlari (sho''ba, ovoz va ranglar) ning yuzaga kelishiga oid urfodatlar ifodalanadi. Mazkur bob: **"Bilginki, Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog'iy, Hoja Safiuddin ibn Abdumo'min va Sulton Uvays Jaloyirlar ta'kidlashicha, avval 7 payg'ambardan 7 maqom va Bobo Umardan qolgan yana bittasi bo'lgan"**

<sup>20</sup> Change Darvish Ali. Traktat o muzike. (perevod s pers.-tadj. D. Rashidovoy) Rukopis bib-ka NII Iskustvovznaniya Inv. N879 s. 23-29.

— degan jumla bilan boshlanadi. So'ngra har bir maqomni ulug'larga nisbat qilinishiga oid mufassal rivoyatlar keltiriladi: Rost-Odam Otaning Momo Havvo firoqi nidolari; Ushshoq-Nuh nolasi, Navo- Dovud hasrati; Hijoz- Sulaymonning shodlik kuylari; Iroq-Ayyubning muhtalolik sadolari; Husayniy- Yoqub firoqi; Rahoviy- Qur'oni Karim nozil bo'lganda Muhammad s.a.v. tilovat qilgan ohanglar, Busalik- Bobo Umar tuyay yetaklaganda aytadigan kuy.<sup>21</sup>

SHu bilan barobar 12 maqom Hazrati Muso hassasini toshga urganda paydo bo'lgan 12 buloqdan chiqqan ovozlardan iboratligi haqidagi mashhur afsona ham tilga olinadi » - qimmatli manba'lar va tom ma'noda O'bekiston olimlariga hali noma'lum bo'lgan serqirrali va hayratomuz ilmiy echimlari mavjud.


Kulliyotning oily maqom bilan bog'lanishida davom maqomlar yaratilib, bunda, yana Xoja Abdulqodirdan rivoyat qilinib, u o'zining "botin idroki" va "fahmi zohiri" bilan mazkur 8 maqomga yana to'rttasini Isfahon, Buzruk, Kuchak va Husayniylarni qo'shganligi bayon etiladi. Maqomlarning yuzaga kelishi masalasi munosabati bilan Darvesh Ali Mavlono Kavkabiylar nomidan ilmiy-advor ta'limotining muhim va chigal nuqtalardan birini tushuntiradi. U ham bo'lsa, butun maqomot tizimining tadrijiy rivojlanishida asl parda va sho'balarning nomlari, tartibi va ularning ma'no-mazmuni bilan to'ldirilishi turlicha bo'lganligini e'tirof etilishidir. Bu urf-odatni inobatga olish maqomlar tarixi hayot ehtiyojlariga qarab, o'zgarib boradigan jarayon ekanligini idroklashda, juda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda: «**Darvesh Ali Aflotun zamonlarida taraqqiy topgan fazoviy (kosmologik) qarashlarga ko'ra, 12 maqom falak burjlari Rost-Hamal, Isfahon-Savr, Iroq-Javzo, Kuchak-Saraton, Buzruk-Asad, Hijoz-Sumbula, Busalik-Mezon, Ushshoq-Aqrab, Navo-Qavs, Husayniy-Jadiy, Zangula-Dalv, Rahoviy-Hutdan taralganligi qayd etiladi.**

SHu bilan barobar 12 maqom Hazrati Muso hassasini toshga urganda paydo bo'lgan 12 buloqdan chiqqan ovozlardan iboratligi haqidagi mashhur afsona ham tilga olinadi»<sup>22</sup>-deyilgan.

---

<sup>21</sup> Kavkabiylar Najmiddin. Risolai musiqi. Risola dar bayoni Duvozdahmaqom. Tahiya, tahqiq va tavsifat ba qalami Asqarali Rajabov. Dushanbe, Irfon, 1985, b. 65- 72 betlar. (Kulliyot mazmunin o'zbek tiliga o'girishda Ismoil Bekjon tarjimasidan erkin foydalandik.)

<sup>22</sup> O'sha asar. 77-76 betlar



Undan keyin yana hayotiy voqealarga qaytib, ustozlar o'z bilim va mahoratlarini ishga solib, har bir maqomning yuqori va pastki bo'lagini ajratib, ikki sho''ba, ikki maqomni qo'shilishidan bir ovoz va ikki ovozni birlashtirib, bir rang qilganliklari tushuntiriladi. Ya'ni ushbu davr olimlarining ilmiy qarashlaridan kelib chiqib 12-maqom Buxoro ajdodiy san'ati bo'lmish "Shashmaqom"ga aylana borgan.

XVII-asrning ikkinchi yarmiga kelib musiqa san'ati yana tushkunlikka tushadi. Movarounnahrning uch xonlik va amirlikka bo'linib ketilishi sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida madaniy-musiqiy hayotda ajralishlar ro'y beradi. Shunga qaramasdan Xiva xonligida, Buxoro amirligida, Qo'qon xonligidagi musiqiy san'at muxiti o'z holicha davom etdi va birmuncha muvaffaqiyatlarga ham erishildi.

O'tmishda nota yozuvi bo'lmaganligi sababli og'izdan og'izga o'tib kelgan mavjud xalq mumtoz kuy va qo'shiqlari endilikda notaga olingan bo'lib, bu xayrli ishni V.A. Uspenskiy, Ye.Ye. Romanovskaya, I.A. Akbarov, M. Yusupov, akademik Yunus Rajabiy singari allomalar amalga oshirdilar. Bu borada, ayniqsa, ustoz Yunus Rajabiyning xizmatlari beqiyosdir. Natijada «O'zbek xalq muzikasi», «Shashmaqom», «Xorazm maqomlari», «Gulyori Shaxnoz» singari ko'p jildli qator musiqiy to'plamlar dunyoga keldi va xalqimizning chinakam ma'naviy boyligiga aylandi.

Ushbu to'plamlarda maqomlarni va xalq an'anaviy qo'shiqlarini Nasr va Mushkulot, Aytim va Chertim yo'llarini ustoz hofizlar va mohir sozandalar ajoyib sayqallar berib ijro etishib kelmoqdalar. Yana shuni aytish joizki, xalqimizning ulkan musiqa merosini, fol'klor san'atini ilmiy tahlil qilib, uni xalqqa yetkazish borasida musiqashunos olimlarimizning ham xizmatlari katta bo'lib, o'zlarining kitob va monografiyalarida, qo'llanma, darsliklarida, maqola va chiqishlarida

ilmiy nuqtai nazar bilan asoslab bermoqdalar. Bu borada; Fayzulla Karomatov, Ilyos Akbarov, Isxoq Rajabov, To'xtasin G'ofurbekov, Rustambek Abdullayev, Abdumannon Nazarov, Oqilxon Ibrohimov, Otanazar Matyoqubov, Ravshan Yunusov, Said Saidiy, Murodulla Abdukarimov, singari taniqli musiqashunoslarimizning mehnatlari beqiyosdir.

### **1.2-§. Buxoro shashmaqomining Xorazm maqomiga o'girish tarixi**

Buxoroi sharifning mohir shashmaqomshunos hofizi va ijrochisi Ari Boboxonovga hamdo'stlik ordeni berildi. Ari Bobvoxonov bobosi Levi Boboxonning qo'lyozmasini asrab-avaylab, bizning davrimizgacha saqlab kelgani bilan, u tomonidan zamonaviy notasiyaga ko'chirilishi O'zbekiston xalqi, qolaversa Buxoroi sharifning bebaho va ajdodiy san'atining abadiylashtirishdek, eng muhim va dolzarb vazifalardan biri sanalishi hatto YUNESKO tomonidan e'tiborga olindi.

S.Saidiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo va yaqin Sharq davlatlari san'atshunos olimlari orasida ilk marotaba cholg'ular "Morfologiyasi" o'z konsepsiyasiga erishdi. Shuningdek, ilk marotaba Sohibqiron harbiy musiqiy cholg'ulari konsepsiyasi, ilk marotaba Buxoro amirligining 9-ta tartibli "Nog'orachilar" va "orkestr" ijrolari majmuasi,<sup>23</sup> ilk marotaba Al-Forobiy va Ibn Sino iyqoot nazariyasi zamonaviylikda o'z yechimini topgan<sup>24</sup> hamda Buxoro shashmaqomining 2400 yillik ildizini ro'yobga chiqarish bilan birga o'z sohasining yangi tizimli nazariy va amaliy ixtirolariga erishgan.

An'anaviy musiqa tizimida yangi paydo bo'lgan nav va uslublar oldingilarini inkor qilmaydi. Ma'lumki, XIX asrning boshlarida SHashmaqom Xorazmda ham joriy etila boshlangan. Mulla Bekjon Rahmon va Muhammad Yusuf Devonzodalarning "Xorazm musiqiy tarixchasi"da mana bular qayd etiladi: – Muhammad Rahimxon I zamonida mashhur musiqashunos xivalik Niyozjonxo'ja degan Buxoro o'lkasiga shashmaqomni o'rganib kelishi uchun shogirdi bilan birga yuboriladi. Ular Buxoroga borib, burundan ma'lum bo'lgan SHashmaqom yo'llarini tanbur bilan o'rganib, Xivaga qaytgan ekan. Bu odam Xivaga kelgani bilan sozdagi iqtidor va mahorati Xorazm musiqashunoslarining nazari- diqqatlarini jalb qilgan.



Bugun biz mazkur jarayon haqida bir muncha aniq taassurotlarga egamiz. Xorazm ustozlari SHashmaqomni ijodiy o'zlashtirish bilan bir qatorda juda ko'plab yangi nom, kuy va ashulalarni qo'shganlar. Jumladan, SHashmaqomda ishlatilmagan yirik qismlar kiritilgan. Xorazm maqomlarida usullar tizimi Buxoro

<sup>23</sup> S.B.Saidiy, Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular, (O'zbek va tojik musiqa an'analari misolida), Toshkent/; 2008, SITI, (arxiv). 44-47 betlar

<sup>24</sup> Farnet H.G. An outline of History of music and musical theory. –in Pope G'A.Asurvey of Persian Art. –London, 1939, vo 1.3.

Shashmaqomi bilan farq qiladi (boshqacharoq ishlangan). Nufurdam (Xorazm maqomlaridagi taronaning teskari usuli), Chor usul, Se usul<sup>25</sup>, Murabba, Musaddas, Musabba, Gulufar, Foxtiy zarb nomli usullar kiritilgan. Ufar usuli (Buxoro maqomlaridagi Ufarlarga nisbatan) Xorazmda ham boshqacha talqin qilinadi (nomi bir xil bo'lsa ham).

**“Xorazm musiqiy tarixchasi”da yozilishicha,- « “Shul Niyozjon Xo’jadan Mahsumjon qozi, Usto Muhammadjon sandiqchi deganlar Shashmaqom degan nag’malarni tamom o’rganadurlar. Mazkurlar o’rgangan nag’malarni havaskor shogirdlariga ta’lim qilmoqqa boshlab hiyligina tanburchi shogirdlar yetushtirdilar.**

**Ang’a Buxoro ajdodiy ramzi va Buxoro Amirimizning Shashmaqomig’a etgulik hiylag’a go’l geladurlar. Saiyd Niyozjon Xo’janing shogirdi Muhammadjon sandiqchidan Abdusattor Mahram o’g’li ta’lim oladur. Bu odam xalq va hukumat ichida sohib nufuz odiqqan bir kishi bo’lg’oni uchun, shashmaqom nag’masi yetkan sayin hiylalara rivojlanmoqqa boshlag’ondur”.<sup>26</sup> Yana “Men (Xorazmshoh) ang’a Niyozxo’ja ismli Shashmaqom o’g’risuni Buxoro o’lkasig’a shogirdlari ila amr etdim!, - alarg’a ayshratini u o’lkag’a a’lo yashamoqqa mushkul etdim, zero bular mana tumnat etguya solg’ach, ani buromaddin tark etib, avjg’a va ani tarklab furovardg’a, undan suporishsiz yakuna geldi”, - alar boshig’a jallod peshvoh etib 20 darradan so’ng, tongg’a qadar so’yladi va chaldilar giryai mug’ona!, va men shashmaqomdin endi haqiqat huzuri ko’rdim!!!,- qax-ha-ha-ha”.<sup>27</sup>**

Demak, Feruzshoh sozandalarni saroydan tashqarida birovni to’yi kutayotganini va ko’zlarini yumib shashmaqomni eshitayotganida esa, sozandalar shohni yotgan va maqomni tushunmasa kerak deb, o’ylaganlar. Shunday qilib shohni aldab baromaddan bir va avjga esa bormasdan qaytgach, furovardning yakuniy qismiga kulminatsiya ishlatib yakunlaganlar. Sababi, tezroq saroydan chiqish edi. Zero, bu hiylalari qo’l kelmadi. Chunki Feruzshoh yotmagan, shundayki ko’zlarini yumib pinak solib turgan bo’lgan. Tongda esa sozandalarga **“Men sizara har doim bir katta kosa amriga tillo hadiya etardim, bu navslaring qachon tugaydi va men hammasini anglab turibman, ne uchun shoshqaloqlik darkor erdi, deb tushuntiradi. Yo men shashmaqomni bilmaymanmi,?,!, Buxorog’a borub sizlardin oldin o’rgang’an edim”, - deydi.** Bundan keyin xato qilmastliklarini buyuradi va har tashlab o’tganlarni o’zi tanbur birla ko’rsatgani amr etadi. ”

O’zbekiston milliy entsiklopediyasida bu haqda quyidagi ma’lumotlar berilgan: “Muxammad Rahimxon (1806-1825) davriga kelib Niyozjonxo’ja va uning shogirdlari Muhammadjon qozi, Muhammadjon sandiqchi Abdusattor Mahram va uning shogirdi Xudoybergan Kosib va boshqalar tanbur maqomi rivojlanishiga katta hissa qo’shdilar”<sup>28</sup>

<sup>25</sup> Бухоро Шашмақомида В.Успенский таърифида номи бор, куйи йўқ. (1926 уй Вухара). 2013. 1-4 б.б.

<sup>26</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода .Ўша асар. –Б.9.

<sup>27</sup> O'sha asar-48-57 betlar.

<sup>28</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9 жилд .Тошкент ,2005. - Б. 475

Muhammad Rahimxon Feruz sozandalikni kasb etmagan. Lekin soz ilmiga o'ta qiziqqan. Mo'tabar urf-odatlar yo'lida kuylar ijod etib, Xorazm maqomlariga kiritishga jur'at qilgan. Bu asarlar hanuzgacha mumtoz maqomlarning tarkibiy qismlari sifatida saqlanib kelmoqda. "Xorazm musiqiy tarixchasi"da "Muhammad Rahimxon soniyning SHashmaqomg'a bog'lag'an nag'malari ushbulardur", deb Feruzxon bastalagan quyidagi kuylarni ko'rsatiladilar:

- 1.Rost maqomig'a: "Muxammasi jadidi Feruz", "Musaddasi Jadidi Feruz".
- 2.Navoi maqomig'a: "Saqili Feruzshohiy", "Chor usuli Feruz".
- 3.Dugoh maqomig'a: "To'rtinchi Peshravi Feruz", "Saqili Feruzshohiy".
- 4.Segoh maqomig'a: "Saqili Feruz sho'iy", "Se usuli Feruzshohiy", "Chor usuli Feruz".
- 5.Buzruk maqomig'a: "Muxammasi Feruz".
- 6.Iroq maqomig'a: "Birinji Muxammasi Feruzshohiy", "Ikkinji Muxammasi Feruzshohiy".
- 7.Panjgoh maqomig'a: "Saqili Feruzshohiy"<sup>29</sup>.

Birgina mana shu dalilning o'zi Feruzning katta musiqashunoslik va bastakorlik salohiyatidan darak beradi.

Maqomlarni tahlil qilish, ularni ilmiy o'rganish va amaliyotga joriy etish. Xorazm tadqiqotchilari tomonidan XIX asrning 70 yillariga kelib, Xorazm maqomlarini to'la qog'ozga tushirish yo'llarini kashf qilganliklari. SHashmaqom bizgacha udum sifatida yetib kelgan. Xiva xonlarining Qo'ng'iroq sulolasi davrida xonlarning musiqaga bo'lgan ijobiy munosabatlari kuchayadi. XIX boshlarida Feruzshoxning buyrug'iga asosan Niyozjonxo'ja va bir doyrachiga 2000 ming tillo tangadan har biriga berilib, Buxoroga elchi kabi 2 yilga yuboriladi. Ammo, maqsad esa Buxoroga borib, SHashmaqom ilmini o'rganib, Xorazmda hiyla ishlatishga ya'ni, o'zlashtirib o'zlarinikini barpo etib- joriy qilishga harakat qilganlari ijobiy tomon rivojlana boshladi. Xorazm maqomlari bu davrlarda yuksalgani va yangi tartibda tuzilgani, bu jarayon Muhammad Rahimxon Feruz davriga kelib o'z cho'qqisiga ko'tarilganligi haqidagi ma'lumotlarni kirgizdik.

Manbalardan ma'lum bo'ldiki, XIX asrning 20 yillarida Niyozjonxo'ja Buxoroga borib, SHashmaqom va uning tarkibini o'rganib keladi. Niyozjonxo'janing ismi Xorazm maqom tarixida alohida tilga olinadi. Binobarin, u Xorazm musiqashunoslari va sozandayu xonandalari orasida tanilgan edi. Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarida Niyozjon Xo'janing ismi Sayid Niyozjon tarzida uchraydi. Niyozjonxo'janing Xorazm maqomlariga qilgan muhim xizmati shundan iboratki, u Buxoro SHashmaqomi asosida Xorazmning milliy maqomlarini paydo qilib, kuy-qo'shiqlarini qayta ishlab, Xorazmning o'ziga xos milliy-mahalliy maqom tizimini ishlab chiqdi. Bunda, Xorazmning Olti yarim maqomi nazarda tutiladi, albatta. Zero qayd etish joizki, Buxoro shashmaqomi 6 maqomdan iborat bo'lsa, Xorazm maqomi esa Buxoroning maqomidur. Ammo, ularda teskarisiga qarab maqomni so'zlarini ham o'zgartirganlar va unga faqatgina yarim maqomga erishganligi ma'lum bo'lmoqda. Demak, 7 maqom yo 6,5 maqom emas, balkim 6 maqomligicha qoladi. Buxoro Shashmaqomini tarqalishini inobatga olsak, bular;

<sup>29</sup>Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девоңзода. Ўша асар.—Б. 35.

**1.Buxoro ajdodiy san’ati va ramzi “Shashmaqom” asliy nusxasi fors tilida,** so’zlari esa ( M.Ro’dakiy, Al- Farobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Ustod Bedil , Xuisrav Dehlaviy, Firdavsiy, Manuchehriy, Nodirabegim, Sh.Sa’diy, Abdul Qodir Marog’iy, Darvish Ali, Qushchi va boshqalar ).Tojikistonda.<sup>30</sup>



**2.Buxoro Shashmaqomi turkiy (o’zbek) tilida (hozirgi Shashmaqom).**<sup>31</sup>



**3.Buxoro Shashmaqomi Xorazm variantidagi uslubida (Turkiy tillarda).**

**4.Buxoro Shashmaqomi Xo’jjand uslubida, -asliy nusxasi. Ammo u, o’tmishda Farg’ona-Xo’jjand bo’lgan, keyinchalik chegaralanish munosabati bilan Farg’ona-Toshkentga o’tgan.**

**5.Buxoro Shashmaqomi Hindiston variantida** Buzruk maqomidan tasnif bir xil ijro etiladi. (Kashmir an’anaviy ijrochiligi, Bobur Mirzo davrida qayta tiklangan, zero, Buzruk maqomidan Tasnifi Buzrukni Abu-Ali Ibn Sino X- asr boshlarida Hindiston safarida bo’lganida, ularga o’rgatib ketgan va bir nusxa tanbur cholg’usini ham hadiya etgan.)- Demak, Buxoro Shashmaqomining Hindistonga joriy etilishi X –asr boshlariga borib taqaladi. Uning targ’ibotchi muallimi avvali esa Ibn Sinodir.

**Birinch bob bo’yicha xulosalar;** Movoraunnaxr, ayniqsa, O’zbekiston xalqlari musiqiy merosini o’rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlardan; Abdurauf Fitrat, Galina Pugachenkova, Tatyana Vizgo, Fayzulla Karomatli, Said Saidiy, Ishoq Rajabov, Otanazar Matyoqubov, Abdumannon Nazarov, Rustam Abdullaev, Oqilxon Ibrohimov, R.Yunusovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o’rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga

<sup>30</sup> Sharq taronalaridan lavhalar. Samarqand. 2013 yil (Tojikiston “Shashmaqom” ijrochilari)

<sup>31</sup> Buxoro Shashmaqom ijrochilari .Germaniyadagi gosyrollarda. Lavha, 2005 yil.

sazovordir. Ayniqsa, I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir", "Maqomlar", O.Matyobovning "Maqomot" asarlari va S.Saidiyning "Shashmaqom va maqom doyra usullari semantikasi"da milliy qadriyatlarimizdan bo'lmish maqomlarning nazariy va amaliy asoslari,

Qariyb 2000 yillik ko'xna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada, buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Borbad Marvaziy, Muhammad Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Paxlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

Darvish Ali Changiyning 12 –maqom falak burjlari 12-fazoviy qarashlaridagi falsafaviy, koinotiy qarashlari masalaning teran izlanishga va yanada chuqurroq e'tibor berilishiga hayrotomuz tadqiqot talabini yuzaga keltiradi.

Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarida Niyozjon Xo'janing ismi Sayid Niyozjon tarzida uchraydi. Niyozjonxo'janing Xorazm maqomlariga qilgan muhim xizmati shundan iboratki, u Buxoro SHashmaqomi asosida Xorazmning milliy maqomlarini paydo qilib, kuy-qo'shiqlarini qayta ishlab, Xorazmning o'ziga xos milliy-mahalliy maqom tizimini ishlab chiqdi. Bunda, Xorazmning Olti yarim maqomi nazarda tutiladi, albatta. Xorazmning el maqomlari, xalq kuylari esa Dutor maqomlari sifatida alohida tizim bo'lib, azaldan kelayotgan mumtoz kuy va ashulalar bo'lib qolaverdi. Zero qayd etish joizki, Buxoro shashmaqomi 6 maqomdan iborat bo'lsa, Xorazm maqomi esa Buxoroning maqomidur. Ammo, ularda teskarisiga qarab maqomni so'zlarini ham o'zgartirganlar va unga faqatgina yarim maqomga erishganligi ma'lum bo'lmoqda. Demak, 7 maqom yo 6,5 maqom emas, balkim 6 maqomligicha qoladi.

Sharqda bastakor va kompozitorlarni "Mussandif",<sup>32</sup> deb tilga olingan. Hatto, Sohibqiron Amir Temur Samarqanddagi saroyida («Mussandif»-larni jalb eting !), degan edi. Kompozitor va bastakor atamasini "**Mussandif**" so'ziga almashtirilsa ayni muddao bo'lur edi.

---

<sup>32</sup> S.Saidiy. "Sohibqiron A. Temur risola ul- Sharafiya". / Toshkent, "Musika" nashriyoti. 1014 yil 29-32 bb.

## II-BOB

### 2. MAQOM DOYRA USULLARI TASNIFI VA SEMANTIKASI

#### 2.1-§. Zarb –ul – qadim” usuli tasnifi.

Insoniyat ma’naviyati ravnaqi misolida olloh nazar solgan O’zbekiston madaniyatining serqirraligi va betakror san’ati, maqom va makonlari; bunday mo’jiza o’lkaning har tomonlama chuqur tarixi hamda bugungi kundagi o’rni va ahamiyati, azaldan hozirgacha moziydan sado kabi jahonni hayratga solib bormoqda!.

Chunonchi, tarixchi an-Nasaviy keltirgan ma’lumotga qaraganda Xorazmshoh Alouddin Muhammad saroyida o’tkazilgan tantanalarda, turli mamlakat va viloyatlarning asir olingan 27 hukmdori saf tortib, nog’oralarda «Nubai Zulqarnayn» usulini chalib turishgan<sup>33</sup>.

San’atshunos olim Said Saidiyning tadqiqotlarida “Zarb-ul qadim” usulining semantik holatlariga juda ko’p qiziqarli misollarni uchratish mumkin. Bunda; « Qadimgi tarix ruhoniylari o’lchamida sado unsurlarini jumbushga kelishi, qon semantikasining doimiy va birxillik rekvenligida + yo – (plyus yo minus) hamrohligida ikki usulning biri kuchli va ikkinchisi kuchsizligidan darak berguvchi obektiv va subektiv harakatlar ya’ni, tabiiy va kosmik usul mo’jizalari misolida nazarlab kelingan.

Insoniyatning tug’ilishidan boshlab uni beshikga bog’lashadi va unga “Alla” aytib voyaga keltirishadi. “Alla” aytishuvi suvanronlik qismini anglatrsa undagi tarovatlar va beshikni tebranishida sodir bo’ladigan ikki harakatning bir marromdagi o’lchami va undagi “bum” va “bak” tovushi kabi qarama-qarshilik sadolarini ham yuqoridagi usullarga taqqoslab olish mumkin. Shuningdek, “alla” zarblarining “Grave – MM:40 tezlikka qo’llanishi. Kosmologik yechimlar va “Qur’oni Karim”dagi suralarning har bir bandidan so’ngi bandgacha bo’lgan masofadagi dam olinishi (pauza), aynan “alla” tarovatidagi dam olinish bilan yaqin o’rin oladi, ya’ni pauzalar bir-biroviga monanddir. Ba’zan “alla” 8/4 o’lchovga ham mos keladi. Musiqada esa ba’zi bastakorlar 2/4;4/4 o’lchovga moslashtirib kuy va qo’shiqlar yaratilgan. Murg’ak go’dakka “Alla” aytib, beshikka bog’lanishi va tebratilishini Ummatimiz Muhammad Alayx Salom, s.s.va/s. ham aytib o’tgan.

Ushbu “alla” suvanronligini tadqiqotchi san’atshunos olim Said Saidiy o’z falsafaviy qarashlarida ta’riflab, uni bola ruhiyatini tinchlantiruvchi va unga tavsif yaratuvchi ilk muallimlik usuli va ushbu juda foydali ekanligi, bolaning qulog’iga kosmik ta’siri va ongiga jumbush kirituvchi, sokinlikka chaqiruvchi, orombaxshlik no’lasi, u ham sur’a kabi ekanligi va “alla”ni ona qornidan boshlab aytilsa, juda bolaga juda yaxshi ta’sir etishini aytib o’tgan.

Jahon olimlari diqqati markazida ikki mavjudodlardan biri “sabab” va ikkinchisi “asos” deb bilsak, unda biz va bizga noma’lum moziy sirlari va undagi sadolarining ba’zi asoslaridan xabardormiz, ammo sabablarini aniqlashga kirishsak ba’zilarining yechimiga bosh qotirib kelishimiz, bu- aniq!. Bunda, sabablardan biri; insonning ong va ong osti harakatlarining anglash va anglatib bilish va

qo'llash qobiliyatiga biz hali anglab bilmagan me'zonlar ko'lamiga talaygina deyish, o'rinlidir.

Bular; a) tabiiylikda inson yuragi zarblarining hamohangligi bilan bog'liq jarayon;

b) ong va ong - osti harakatlari me'zonlarining differensial holati va undagi anglash, anglatish va idrok etish yo'nalishlari misol bo'la oladi.

v) kosmik unsurlarda tabiat va bizga noma'lum moziy sirlarining sadolaridir.

Demak, eng qadimgi usul, bu; "Zarb- ul- qadim " usuli deb nomlansa, u inson yuragining hamohangligidan kelib chiqqan deyish mumkin. Ilmiy tilda doyra zarblarining sadolanish o'lchamidagi to'liqlanishida past tovushda "bum" ammo eshitilishida baland, keyingisi baland tovush to'liqida "bak", ammo eshitilishida past tovush zarbining tabiiyligidan foydalanib kelingan. Bunday manzarani ulug' aloma davrining jahonda mashhur buyuk mutaffakiri, tibbiyot olamining shahanshoxi Abu Ali ibn Sino usul ta'limotidagi aruz va'znari "iyqoot nazariyasi" tizimining tasnifida ko'rsatilganidek, ushbu usul bilan solishtirganda Abu Ali ibn Sino tilida "nuqtahoi jolibiy" deb ataladi.

"Zarb- ul- qadim" usulining qo'llanish sohasida juda ko'p misollar keltirish mumkin. Ushbu; odamzodning yerga urilishidan boshlab eng qadimgi davr taqozosida; "paqqildoq", "chaqqildoq", "taqqildoq" va boshqa yog'ochli, suyak, qayroq toshlar va temir buyumlaridan tayyorlangan, zamonaviy tasniflanishida **"Idiofon"**<sup>34</sup>-(shovqinli, jarangli, dag'al) nomusiqaviy cholg'ular sirasiga kirsada, ulardan "ov marosimlari"-da, "ommaviy tantanalar"-da, "diniy odatlar"-da, "jangu jadallar"-da juda keng qo'llanib kelingan. Shuningdek, Sug'diyona va Avesto davrlarida chaqiriq, ogoh, tantanalarda, qatl va jazo, askarlarning urush va yurishlarida, ov marosimlari, sayllarda keng foydalanishgan.

Aleksandr Makedonskiy davrida ham askarlarining muvoraunnahrga bostirib kirishi, yurish va urushlarda qo'llanilgan usuli, aynan, shu usul majmo'asida bo'lib o'tgan.

Islom dinining yer yuziga tarqalishida, Markaziy Osiyo va yaqin Sharq davlatlari va boshqa davlatlarga ham "Zarb-ul- qadim " usulini urma zarbli cholg'ularda, aniqrog'i: "doyra, nog'ora, tablak, kepchik" va boshqa **"Membronofon"**<sup>35</sup> -(urma zarbli, teri tortilgan) cholg'ularda bir xil ijro etib, "ollohu - akbar" rukuni qo'llanib, og'ir qadamlarda yurib kelganlar va qo'lga kiritilgan hamda bo'y sundirilgan.

12-asrda Eron Sultoni Husrav Dehlaviy "nog'ora" cholg'usining mohir ijrochisi va bastakori bo'lganligi bilan u, ko'plab nog'orachilar bilan turli xil usullar ijrosida baxslar uyushtirib, ular ustidan g'alabaga erishgan. U tomonidan qo'lga kiritilgan va asir olingan dushman askarlariga "nog'oralar"- da chalishni o'zi o'rgatgan va erta tongdan – bu tonggacha almashilgan holda butun qal'a bo'ylab, ustida saf tortib "do'l nog'ora, rez nog'ora, katta va kichik nog'oralar"-da "Zarb- ul- qadim" usulini bir marromda chalib turishgan. Ammo, ushbu davrda

“Zu-ul- Qarnayn”,<sup>36</sup> ya’ni Iskandar Zulqarnayn usuli nomi bilan tilga olinib chalib kelingan edi.

Sohibqiron Amir Temur v Temuriylar davrida askarlarining yurishi va jangu jadallarda, chaqiriqlar va tantanalarda, ov va sayllarda ham ushbu usuldan keng qo’llanib kelingan.

Tarix taqozosi bilan manba’larda keltirilishicha, ushbu usuldan Napoleon ham askarlarining harbiy yurishlarida keng foydalangan. Keyingi davrda esa Buxoro Amirligida qal’a ustidan nog’oraxona tomining ustki sahnasida shu usuldan nog’oralar ijrosida askarlarni, jamoatni “ja’m qilish” va “chaqiriq”- turida hamda “ov” va “sayl”-larda ijro etilganidek, keng qo’llanilgan holda chalib kelingan. Bir qatorda Mirshab mirzolari tomonidan kunduzgi va kechki nazoratlarda va mirzoning “chaqqildoq- daf” cholg’usida “oromi shab rukuni talaffuzida yetti qadamdan so’ng, bir marotabali bum va bak tovush sadosida ijro etib kelingan.

Misol tariqasida; 8/8 Shuningdek, Buxoro mumtoz ijrochiligida ajdodlar ruhi bilan chambarchas bog’liq kechgan usul, aynan “zarb- ul- qadim” –ning qo’llanishi, Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomining “Nasr” bo’limidagi boshlang’ich qismida, ya’ni “Sarahbor” aytim yo’lida katta ashuladan o’rin olgan. Buzruk maqomining mushkulot qismidagi “tasnif va tarje”, “iroqi Buxoro”, “munojot”, “ushshoqi Samarqand” va boshqa klassik janrlarda doyra zarblarida ushbu usulning modulotini uchratish mumkin.

Ikkinchi jahon urushi davrida Adolf Gitler harbiylari tomonidan chalingan ushbu usul orqali davlat va shaharlar jangsiz taslim bo’lishgan edi.

Bugungi kunda esa jahon harbiylari tomonidan “Zarb- ul- qadim” usuli askarlarning yurishlarida juda keng foydalanib kelinmoqda !!.

“Zarb- ul- qadim” usulining semantik jihatdan doyra yo nog’oradagi ijrosi yoxud, ikki zarbdan iborat bir usuldir. 2/4 o’lchovga tengdir. Ushbu 4/4 ko’rinishida bo’lib, tavsiflanishida ham tabiiy hamda sunniy sadolanishlarga misollar keltirish mumkin. Bunda;



a) Inson yurak zarblarining eshitilishi, ammo nazariy jihatdan ushbu zarblar modulotga egadir, ya’ni: 2/4o’lchovli, ikkinchisi inson yuragining klapanlar zarbiga xos ikki zarb eshitilishidagi usul bo’lib, nazariy yechimda bir butunlik davriyasiga teng modulyatsiyani tashkil etadi. ushbu; 5/8 o’lchovga xos, shunga o’xshash ikki zarbli usullarni boshqa tabiiy sadolanishlarga ham uchratish mumkin, bular; otning yugurishi, fil, tuya, kit va delfinning yurak zarblari, boyqush chaqirig’i, kakkuning sayrashlari esa, aynan o’xshashdir.

<sup>36</sup> S.B.Saidiy, Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg’ular, (O’zbek va tojik musiqa an’analari misolida), Toshkent/; 2008, SITI, (arxiv).99-103 betlar

<sup>37</sup> O’sha asar. 103-106 betlar.

Bir-qatorda qon semantikasi bilan bog'liq jinslarda ko'proq uchratish mumkin. Ma'nan olganda vaqt ajratuvchi, o'lchov va sanoq, savol va javob, hayot manba'i ramzi sifatida nafaqat insonlar, parrandalar va hayvonlarda tabiiy harakatlar mexanizmining kaliti yo matori kabi ruhiy tavsiflar belgilariga bog'liq kechadi, deyish mumkin.

b) Kosmik o'lchamlarda osmon jinslarining bir - bировiga urilishi, chaqmoqlar harakati, ya'ni aks sadolar ko'rinishining boshlang'ich zarbi, diqqat yo ogoh ma'nosida kechsa, ikkinchi misol tariqasida; aftomobilda mator bo'lmasa u yurmaydi, yana; bomba portlanishidan oldin yerga yo biror ob'ektga urilishidagi sado va so'ng portlagandagi sado. Sabab va asos kabi misollar keltirish ham mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan "Zarb- ul- qadim" usulini semantikasiga juda ko'p misollar keltirish mumkinkim, ushbuning hayot yo mamot manzaralaridagi ruhiy ta'siri va tassovurbaxsh etilishida falsafaviy va psixologik dunyoqarashlardagi u yo bu ko'rinishlarining sadolanish zarblaridagi o'lchami, cheksiz tarix va sirli mavjudoddan taralgan taffovud me'zonlarini anglatuvchi yo ogohlantiruvchi va bizga noma'lum unsurlardan iborat moziy mo'jizalari beqiyosdir», deb ta'kidlagan.

## **2.2-§. Shashmaqom va maqom ijrochiligida Mushkulot (chertim) va Nasr (aytim) yo'llari semantikasi**

Shashmaqomdagi Nasr bo'limidagi Birinchi guruh sho''balari turkum Saraxbori Buzrukdan boshlanadi. U ikki chorak takt o'lchoviga mos doyra usuli bilan ijro etiladi. Saraxbori Buzrukda aytiladigan she'r «Muzorei axrabi makfufi mahzuf» - deyilgan vaznda bo'lib, «Mafoilun-foilotun-mafoilun-foilun» tarzida talaffuz etiladi.

**Bak-- Bum--- Bak-- Bum**

Saraxbor usuli bu aynan Zarbul qadim usuliga to'g'ri keladi. Nasrulloiy, Nasri Uzzol usullari, Nasr usulida ijro etiladi.

Nasr-so'zining ma'nosi arabcha so'zdan olingan bo'lib g'alaba yoki ko'mak deganidir, yana bir ma'nosi (roman, poema, hikoya va boshqa asarlar) ma'nosida keladi musiqa yo'nalishida esa ashula degan ma'noni anglatadi demak nasr usuli bu ashula usuli deb belgilangan. Chunki usulni o'zi ijro qilinsa go'yo ashula kuylangandek tuyuladi. Nasrulloi, Nasri uzzol, Nasri ushshoq, Navro'zi sabo, Nasri bayot, Orazi navo, Husayni navo, Nasri chorgoh, Nasri segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam, Muhayyari Iroq, Chambari Iroq kabi nomlanadi.

BAKKO, BUM\_BAK\_KO, BUM, BAKBAK deb kuylanadi.

Ba'zi asarlarda esa quyidagicha ijro qilingan;

BUM BAKBAK, BAKO BUM BAK, BUM BAKBAK

Usulda ijro qilingan qo'shiqlar insonga jo'shqinlik va ko'tarinki kayfiyat baxsh etadi.

**Nasrulloiy** -ollohni madh etuvchi, ta'riflovchi degan ma'noni bildiradi. Ya'ni **Ollohning qo'shig'i** deganidir.

Tojikistonda Ko'lob aholisi ichida "Nad-xonlik" va "Falak-xonlik"<sup>38</sup> ham ollohni ta'riflash va undagi pand nasihatlar, undan kelib chiqqan aholi ichida ijobiy tarbiyaga tayanish va halol hayot kechirish kabi afsonalar ham to'qib ijro etiladi. Ijro usullari "Zarb-ul-qadim usulida" ammo gohida doyrasiz ham "Xuchir, ya'ni kichik dutorga o'xshash cholg'u va "Chig'g'ak", ya'ni g'ijjaksimon kamonli cholg'u orqali qo'shiq matni kiritilib ijro etiladi. Avvallari diniy qo'shiq sirasiga kirgan. Hozirgi kunda esa "Nahorgi oshda" ajdodlar va ota-onalarni e'zozlash, kelajak yoshlarni ezgu yo'llarda tarbiyalash kabi udumlarida ijro etib kelinmoqda.<sup>39</sup>

**Parizodi ki mushkin zulfi, jonim mustamand etmush,**

**Maloik qushlarin ul halqa mo'lar birla band etmush. A.Navoiy**

Mana shu ikki qator qo'shiq so'zlarida olam ma'no mujassamdir

**Bir go'zal hilqat borki sochini atri jonimni asir qildi,**

**Uchar Farishtalari atrofimda go'zal nurlar ila zanjirband qildi.**

Bu ta'rif robbi makoniga nisbatdir

**Nasri Uzzol-bu Uzzol ashulasi. Uzzol** esa kvarta tushish degan ma'noni bildiradi.

Bu ham nasr usulida ijro etilib kuylanadi

**Yuzingda may gulu yo gul ochilg'on bo'stondir bu,**

**Gulingda qatra xun bo'stondagi suvdin nishondir bu.**<sup>40</sup> **A.Navoiy**

Demakki aruz vazni va she'riyat va usul orqali ustoz – shogird an'anasi orqali avloddan avlodga meros qoldirishgan.

Nasr shashmaqomda eng ko'p sonni tashkil etadigan sho'balardan iborat. Bular;

**Savt-Mug'ulcha usullari;** Savt usulini lug'aviy ma'nosi arabchadan olingan bo'lib bir qatorda ovoz chiqarib kelmoq, aks sado masalan (savti suvora) ya'ni savt so'zi otliqlar oyoq ovozlari ya'ni aks sadosi ma'nosida ham keladi. Qadimda harbiy yurishlarda otliqlar alohida o'rin tutgan va ular suvoriylar deb nomlanishgan. Xorazm maqomlarida Savti Suvora deb nomlangan usul nomi ham bor. Savti suvora otliqlar oyoq aks sadosi ma'nosida ham tushunilgan va janglarda askarlarga ko'tarinki ruh, kuch bag'ishlash niyatida "Nog'orachilar" jo'rligida yani, savt usuli chalingan. Bu bir vaqtni o'zida ham dushmanni sarosimaga solish niyatida ham ijro etilgan. Ushbu usullar bilan dushman mag'lubiyatga ham uchragan. Savtlar Shashmaqomda oltitadir, bular; Savti Sarvinoz, Savti Ushshoq, Savti kalon, Savti Sabo, Chapandozi Savti Navo, Savti Chorgoh<sup>41</sup> dir.

Misol uchun Savti Sarvinozni tavsif qilib, "Sarvinoz" qaddi qomati kelishgan go'zal degan ma'nolarga duch kelamiz. Bu tarifni aynan mana shu sho'baga aytilishi bejiz emas, chunki Savti Sarvinoz barcha savtlar ichida eng go'zali

<sup>38</sup>S.Saidiy. Музыкально-историческое наследие Центральной Азии. Ж. Педагогик машорат, Бухоро, 2002. №4.6.

<sup>39</sup> S.B.Saidiy, Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular, (O'zbek va tojik musiqa an'analari misolida), Toshkent/; 2008, SITI, (arxiv).112-126 betlar

<sup>40</sup> Farnet H.G. An outline of History of music and musical theory. –in Pope F.A.A survey of Persian Art. –London, 1939, vol.3.

<sup>41</sup> Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: Санъат, 2006. – Б. 91.

hisoblanadi. Binobarin, sho'baning har bir ohanggi, har bir pardasi ham inson ruhiyatiga juda go'zal ta'sir etadi.

Mug'ulchalar esa juda qadimiy tarixiy asosga ega. Bu nomni XV-asrda Zaxiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda barpo etgan. Buyuk Mug'ul Imperiyasiga bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lishi ehtimol. Mo'g'ulcha aslida usulning nomi, musiqada esa Saraxborlar yoki talqinlardan nazira qilingan. Undagi tuyg'ular isyoni, hissiyotlar u'yg'onishi ham o'ziga hosdir. Mug'ulchalar Shashmaqomda to'rttani tashkil qiladi. Mo'g'ulchai Buzrug, Mo'g'ulchai Navo, Mo'g'ulchai Dugoh va Mo'g'ulchai Segohdur.

Savt usuli va mug'ulcha usuli san'at ahli tomonidan qo'shiq ijrosida doyra jo'rligida ijro etilgan.

**Talqin –talqincha –chapandoz usullari semantikasi;** Talqin so'zi arabchadan o'g'irganda izohlash, ta'rif berish ma'nosini bildiradi. Isoq Rajabiy ta'rifiga ko'ra Talqin – pand nasihat ma'nosida keladi. Talqin usuli 3\4,3\8 o'lchamlarda kelib og'ir tavsifdagi qo'shiqlar sirasiga kiradi. Bu sho'ba Iroq maqomidan tashqari barcha maqomlarda mavjud va shunday nomlanadi. Talqini uzzol, Talqini ushshoq, Talqini bayot, Talqini chorgoh, Talqini segoh. Bazi hofizlar Talqin usuliga nasihatimiz qo'shiqlarni ko'p aytishganligi uchun Talqin nomi berilgan, deyishadi.

Ayrim Sharq mamlakatlarining an'anaviy ijrochiligida Talqin nomidagi doyra usuli mavjud. Talqinni teskari ko'rinishi chap andoz, ya'ni teskari usul ma'nosini anglatadi va talqincha deb ham nomlanadi. Talqin yo'llarida bittadan taronalari mavjud bo'lib, ular ba'zan nasrga o'tishda suporish vazifasini o'taydi. Talqin sho'balarini ritmik o'lchovi va doyra usulining barchasi Nasr doyra usulidandir. Hatto ulardagi pardalar ham hamohangdir. Talqincha usuli bizning millatda kichkina ma'nosida –cha qo'shimchasi qo'shilib kelgan, shunga bo'lsa kerak.

Talqincha Talqinni kichik ko'rinishidir. Talqinchalarning doyra usuli Talqinning teskarisiga yangraydi.

**Qashqarcha usuli;** Qashqarcha haqqida semantik tahlil unchalik uchramaydi. Ma'lumki, hozirgi Qashqar qadimgi Qo'qon xonligiga qarashli bo'lgan. Bu yurtning mashshoqlari o'zgacha doyra usuli bilan shinavandalarning og'zaki talaffuzlanishlarida odat bo'lib qolgan. Ular hattoki saroy sozandalari orasida ham alohida e'tiborga ega bo'lishgan. U davrlarda xonliklar orasida aloqa mustahkam bo'lib, ular bir biri bilan tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Qashqar mashshoqlarining mashhur doyra usuli, Qashqarcha usulidir va shu tariqa Shashmaqomga kirib kelgan.

**Soqinoma usuli;** Soqinomalar haqqida musiqiy ijrolarda ko'plab uchratish mumkin. Soqinomalarining doyra usuli xalq orasida juda mashhur bo'lib, unga asosan o'lchovlari "Mutakoribi musammani maxfuz" bo'lgan g'azallar qo'yib aytiladi. U yengil ijro etiladigan asar bo'lganligi sababli, yangi shogird o'quvchilarning ilk repertuaridan o'rin oladi. Barcha Soqinomalarni shogird uchun dastak desa ham bo'ladi.

**Uforlar;** Uforlarni hozirgi kunga qadar tinglab, uni og'ir qo'shiqlar sirasiga qo'shish mumkin. Bu tabiiy. Chunki vaqt o'tgan sari hayot harakatidagi o'zgarishlar tezlashib bormoqda, shunday bo'lsa-da, uforlar o'z zamonasining

sho'x ashulalari qatoriga kiradi. Ufarlar lug'aviy ma'nosi haqqida hozirgi kunda ko'p olimlar o'rtasida baxslarga sabab bo'lmoqda. Bazi olimlar faqatgina doyra usuliga tegishli deyishsa, ba'zi olimlar esa musiqa kuy yo'nalishining nomlanishi hamdir, deb aytishadi. Ustozlarning aytishicha „UFOR“- hid taratuvchi, degan ma'noni bildirib Maqomni so'ngida kelgani uchun, ularning hidigina shu sho'bada saqlanib qoladi. Undan tashqari maqom yirik asarlardan tashkil topgani uchun, ularning orasida ufor raqsbob, sho'xchan bo'lganligi tufayli maqomlarni hidi yoki rangigina shu sho'bada o'z aksini topadi.

Shashmaqomda har bir maqomning o'z uforisi bor. Bular; Ufori Uzzol, Ufori Ushshoq, Ufori Bayot, Ufori Chorgoh, Ufori Segoh, Ufori Muhayyari Iroq deb nomlanadi. Uforlar asosan ikki xil vazndagi sherlar bilan aytiladi Ramali musammani mahzuf va Hazaji musammani makfufi mahzuf, deb ataladi.

**Cholg'u bo'limi;** Kichik mavzuni turli balandlikda takrorlanishi va turli pardalarda ijro etilgan shakillardagi musiqiy almashuvlar natijasida tuzilgan. Bu o'rinda Navo maqomidagi tarjening uchinchi xonasida peshravsifat bir kuyni turli pardalarda ijro etilishidagi mavzular ham uchraydi. Shashmaqomning cholg'u yo'lidagi bu asarlar Tarje Buzrug, Tarje Navo, Tarje Dugoh, Tarje Segoh, Tarje Iroq,<sup>42</sup> kabilarga taqsimlanadi.

Tarje'larning doyra usuli tasniflardagidek ya'ni Tasnif doyra usuli deyiladi. Maqomot tarixidan ko'pchilikka yaxshi ma'lumki, Rost maqomida Tarje qismi Uchramaydi.

Tarje, dugohning bozgo'yi asnosida boshqa xonalar bilan birgalikdagi kuy yo'nalishlarining pardadan- pardaga ohista, mayin va peshravsifat o'tishi marromida Tasnifi Dugohni eslatadi deyish o'rinlidir.

Tarje bastakorlari aynan bir mavzuni ko'plab takrorlashga mo'ljallaganlar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, chiroyli mavzularni har xil pardalarda takrorlanishining o'zi yuksak bastakorlik mahoratidan darak beradi. (Hozirgi kunda bastakorlikning minimalistika yo'nalishida aynan shu usul qo'llaniladi). Qadimgi astronomiyada quyoshning yillik harakati doirasida 12 nuqta belgilanib bu nuqtalar orasi bir oyga to'g'ri keladi deyilgan. Ushbu masala arablar iste'losigacha, ya'ni, Markaziy Osiyo xalqining quyoshga sig'inish dini hukumron bo'lgan davrga to'g'ri keladi. 12 maqom ham 12 oyga bog'lanishini quyosh tizimi asosida belgilangan burjlarning muqaddas sanalgan davrlar maxsuli deb tushunish mumkin. 12 maqom shaklining Shashmaqomgacha saqlanib kelishi esa maqomlarning so'ngi turi, islomgacha bo'lgan musiqa madaniyatdagi an'analarning davomidir.

Maqomdagi Tasnif va Tarjelar shu maqom cholg'u yo'lining gultoji hisoblanadi. Tarjelar asosan Tasniflardan olingan yagona mavzu musolida boshqa turli pardalarda rondo shaklidek takrorlanadi. Shunga qaramay maqomning cholg'u yo'lidagi bu kuylar o'ziga hos go'zal, lekin tasniflanishiga qaraganda yengilroq ijro etiladigan asarlardir.

---

<sup>42</sup> Матякубов О. Болтаев Р. Аминов Х. Ўзбек нотаси. Тошкент: 2007.—Б. 72.

**Maqom Gardunlari;** Maqomlar to'la va yaxlit ijro etiladigan bo'lsa, dastlab ularning cholg'u yo'llari ijro etilishi lozim. So'ngra ashula bo'limining sho'balarga o'tiladi.

Shunday bo'lishi bilan birga cholg'u bo'limining kuy yo'llarining har biri mustaqil cholg'u qismlari hisoblanadi va o'zlari mansub bo'lgan maqomlar nomi bilan qo'shib aytiladi; masalan Tasnifi Buzrug, Tarje Rost, Saqili Navo, Samoi dugoh va boshqalar. Navbatdagi Gardun qismlari o'z nomi bilan "**Gardun**" ya'ni "**Aylana**" tarzda ijro etilishi lozim bo'lgan asarlardir. Bunda, bir xil kuy mavzusi har xil shaklda rondo kabi takrorlanaveradi. Gardunlarda kuy harakati doyra usuli o'zgarmaydi, ya'ni deyarli barchasida ular bir xil. Gardun osmon gardishi, aylana, taqdir ma'nolarini bildiradi. Musiqada esa, Gardun ma'lum bir doyra usulining hamda shu usul jo'rligida muayyan parda tuzuk ya'ni, o'z maqomiga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuyning nomidir.

O'tmishda XIII-XVII asrlarda yozilgan musiqiy risolalarda "Gardunuya", "Gardoniya" nomlari bilan atalgan maqom sho'balari haqida ko'plab ma'lumotlar bor. Ularning bizgacha yetib kelgan shakli Shashmaqomdagi Gardun yo'lidir. Gardun yo'llarida bozgo'y hamma xonalardan keyin kelavermaydi, balki u ikki-uch xonadan so'ng takrorlanadi. Kuy yo'lidagi yuqoriga sakrashlar, asta sekin boshlang'ich pardaga tushib kelishi bilan yakunlanadi. Gardun yollari musiqiy tuzilishi jihatidan nisbatan katta hajmda bo'lmasa-da, kuy tuzilishi harakati nuqtayi nazardan tasnif yoki tarjelarga ko'ra ancha murakkabroqdir. "Gardun" Iroq cholg'u ijrochiligidan boshqa barcha maqomlarda mavjud. Garduni Buzruk (buzurg), Garduni Rost o'z mazmuniga ko'ra aylana tarzda tuzilgan. Ya'ni, boshlanishidagi kuy mavzusi ortirilishi natijasida bosh mavzuga yana qaytadi. Garduni Navo esa ko'tarinki ruhda ijro etiladi. Shuning uchun ham bu kuy ijrochi va tinglovchini kayfiyatini ko'taradi. Garduni Dugohda ham Tasnifi dugoh va Tarje Dugohdagi kabi ijro davomida murakkabliklar sezilib turadi, undagi kuy tavsilotlari bir tekis kechmaydi. Uch besh parda va oktava yuqoriga sakrashlarining Gardun ekanini sezdirib turadi. Gardun tinglayotganda asta sekinlik bilan odamning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib boradi.

Garduni Segoh juda go'zal va betakror asarlar sirasiga kiradi. Bu kuyning go'zallik ulashuvchi asar desak, yanglishmaymiz. Chunki, uni tinglagan odam albatta go'zallikni his qiladi, uni semantikal tassovurbaxsh etishga tushinadi.

**Maqom muhammaslari;** Maqomlardagi asosiy mavzu ko'pincha doyra usuli va musiqiy almashnuvlar vositasi bilan turli shakllarga tushiriladi, cholg'u yo'llari esa, kuy mavzusi o'zgaruvchandir, ularga yangi –yangi musiqiy mavzular kiritish bilan kuy yo'li takomillashavergan va ta'sir kuchi ortib boraveradi.

Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas yo'llari birin ketin ijro etilar ekan, ulardagi parda asosi va kuyning mavzusi yaqin bo'lgani uchun, kuy jumllarining rang-barang ohangdorligi, yoqimlilik hamda doyra usullarining turliligi bilan butunlay sezilmay qoladi. Bunda ijodkor, bastakorlarning ustalik bilan yaratgan maqom yo'llarining benuqsonligini ko'rishimiz mumkin.

Muhammaslar xona va bozgo'ylardan tashkil topgan yirik asarlardir. Doyra usuli esa musiqiy tilde aytganda 16 takt bilan ijro etiladi, har bir xona va bozgo'y 16 taktlik kuy mavzusidan iborat. Shashmaqom cholg'u yo'lida eng ko'p

uchraydigan bu muxammasdir . Ularning tartibi **Muxammasi Buzrug, Muxammasi Nasrullovi, Muxammasi Rost, Muxammasi Ushshoq , Muxammasi Panjgoh, Muxammasi Navo , Muxammasi Bayot , Muxammasi Husayniy , Muxammasi Dugoh , Muxammasi Chorgoh , Muxammasi xojixo'ja , Muxammasi Chorsarxona ,Muxammasi Segoh ,Muxammasi Ajam , Muxammasi Mirzohakim , Muxammasi Iroq** kabitir.

Muxammas so'zi beshlik g'azaldagi besh qator sherni bildiradi Savol tug'uladikim, 16 taktlik doyra usuliga beshlikni nima aloqasi bor. 16 takt ichidagi usullar aslida beshta usuldan iborat, shu besh usul 16 taktida almashib keladi. Buning ichida Tasnif usuli , Zarbul qadim usuli , Savt usuli va shunga o'xshagan boshqa usullarning ko'rinishi mavjud. Maqomdagi xona iborasi o'tmishda kuy va ashula bo'laklarini ifodalovchi musiqa iborasi sanalgan. Bizgacha yetib kelgan ashula yo'llarida xona va bozgo'ylardan tuzilgan kuy yo'llarini yuzlab namunalarini topish mumkin. Maqomdagi Muxammaslar ham shu an'anaga bo'ysobib xona bozgo'y tartibida ijro etiladi.

**Maqomdagi Saqillar;** Hali hanuz tadqiqotchi olimlarning Saqil borasidagi tortishuvlari oxiriga yetgani yo'q , lekin bu borada Isxoq Rajabiyning "Maqomlar masalasidga doir " kitobida "Saqil-og'ir vazmin doyra usulida ijro etiladigan maqomlarning cholg'u qismi " deyilgan. Aslida Saqillar Shashmaqom cholg'u bo'limidagi 24 taktlik doyra usuli va kuy mavzulariga ega bo'lgan yirik bir bo'lakdir. Saqil so'zining lug'aviy ma'nosi haqiqatan "og'ir, bosiq" deganidir. Saqillarning eng vazmin bo'lishi bilan bir biriga kuy shakli jihatdan ham yirik asardir. Saqili Vazminning asosiy jihati shundaki, u inson kayfiyatiga ulug'likni buyuklikni baxsh etadi.

Musiqa tilida esa vazmin sur'atda ijro etiladigan juda murakkab doyra usulining nomidir bu tassodifan emas. Chunki, Buxoroda Saqillardan so'ng Nasr bo'limiga o'tiladi. Ashula bo'limi esa vazminroq ijro etiladigan Saraxborlar bilan boshlanadi. Saqil o'zining doyra usuli hususiyati bilan Saraxborlarga osongina ulanib ketadi va sur'ati jihatidan kuchli burilish sodir bo'lmaydi. Saqillar; Saqili Islim, Saqili Sulton, Saqili vazmin, Saqili Rak rak, Saqili Navo, Saqili Ashkullo, Saqili Bastanigor.

Saqil birinchi Sulton nomini qo'shib davom ettirilishi natijasida 12 maqomning tarkibiy qismlari Shashmaqomda ham keltirilgan Saqili Sulton ham o'sha 12 maqom safidagi maqomlardandir. Saqil iborasiga Sulton so'zini qo'shilishiga sabab esa, asar Saqillarning Sultonidir.

Bunday martabalar kuylarga berilishi o'sha 12 maqom davridan qolgan. Bizning tatqiqotlqrimiz albatta manbalarga suyanadi, shuning uchun rak-rak so'zining ma'nosini Ishoq Rajabovning "maqomlar masalasiga doir kitobidan qidirdik. Unda yozilishicha "Rak " so'zining asl ma'nosi noma'lum Rak so'zi hindcha "maqom" so'zining ifodasi bo'lishi mumkin". Boshqa manbalarda yozilishicha Rak-rak doyra usuliga o'xshatma sifatida keltirilgan.

Saqillar muhammaslardagi kabi xona va bozgoylarning hajmi doyra usulining ijrosi bilan teng bo'ladi. Ya'ni xona 24 takt, bozgo'y ham 24 takt hajmga ega. Ulardagi doyra usuli har bir takt uchun har xil chalinadi.

**Dutor maqomlari**

Xorazm musiqa tarixchasi bo'yicha

1 Iroq -7 tushrumli shulardan beshtasi o'rta ifori Nigoron, Oromijon, Bo'yi Muhammad, Saqlansin. Qolgan ikkitasini nomi yo'q.

2. Chapandoz 3. Mo'g'ulcha 4. Navoiy. 6 tushrumli, nomlari noma'lum.

5. Sadri Iroq 6. Rovi 7. Orazi Bom. 3 tushrumli, nomlari noma'lum.

8. Tashnis 9. Majnun dali. 4 tushrumli, nomlari noma'lum.

10. Oxyor 11. Miskin. 2 tushrumli, nomlari noma'lum.

**Dutor maqomlari**  
**( Tanbur chizig'i asosida)**

| <b>Nomlari</b>              | <b>Doyra usullari adabiy og'zaki talaffuzda</b> |
|-----------------------------|-------------------------------------------------|
| 1 Zihiy Nazzora             | gul taq gul taq taqa                            |
| Talqiniy zihiy nazzora      | taqa taq gul taq                                |
| 3 Tarjibandiy zihiy nazzora | taqa taqa gul taq gul gul                       |
| 4 Qadim xamligi             | taqa taqa gul taq gul gul                       |
| 5 Talqini urganji           | taqa taqa gul gul taq gul gul                   |
| 6 Naqshi talqini urganji    | gul taq taqa gul taq                            |
| 7 Ifori talqini urganji     | gul taq taq gul taq                             |
| 1 Miskin                    | taq taqa gul taq gul                            |
|                             | Gul taqa taq gul taqa                           |
| 2 Talqini miskiniy          | taq taq gul taq                                 |
| 3 Naqshi miskin             | taqa taqa gul gul taq gul gul                   |
| 4 Ifori miskiniy            | gul taq taq gul taq                             |
| 1 Rahoviy                   | gul gul taqa gul taq                            |
| 2 Talqini rahoviy oromijon  | taqa taq gul taq                                |
| 3 Naqshi avvali rahoviy     | taq taqa gul taq gul                            |
| 4 Ikkilanji naqshi rahoviy  | gul taq taqa gul taq                            |
| 5 Soqiynomai rahoviy        | taqa taq gul gul taq gul gul                    |
| 6 Ifori Rahoviy             | gul taq taq gul taq                             |
| 1 Sadri Iroq                | gul taq gul taqa taqa                           |
| 2 Talqini Sadri Iroq        | taqa taqa gul taq                               |
| 3 Naqshi Sadri Iroq         | taq taqa gul taq gul                            |
| 4 Ifori Sadri Iroq          | gul taq taq gul taq                             |
| 1 Oxyor                     | taq taqa gul taq gul                            |
| 2 Avvali talqini Oxyor      | taqa taq gul taq                                |
| 3 Ikkilamji Talqini Oxyor   | ---                                             |
| 4 Ifori Oxyor               | gul taq taq gul taq                             |
| 1 Choki giribon             | taq gul taq gul                                 |
| 2 Taronai Choki giribon     | taq taqa gul taq gul <sup>43</sup>              |

<sup>43</sup> Матякубов О. Болтаев Р. Аминов Х. Ўзбек нотаси. Тошкент: 2007.—Б. 74-77..

Ro'yxatga ko'ra 6 turkumda 27 nomdagi ashula mavjud. Ularda jami 8 toifadagi doira usuli o'rin oladi. Shashmaqom va Olti yarim maqom tizimlaridan farqli o'laroq ayni usul bir necha nomlar bilan yuritilishi mumkin.

Dutor maqomlari ham Shashmaqom va Olti yarim maqomga o'xshab ramziy-majoziy ma'noli sharaflil nomlar bilan belgilangan. Zihiy (negizi "zih") lug'atda "tahsin", "ofarin" degan ma'nolarni bildiradi. Zihiy Nazzora <sup>44</sup> - tangrining nazari.

**Talqini Zihiy Nazzora** – olohnning nazarini eshitish.

**Tarjibandi Zihiy Nazzora**- ollohn nazarini tasdiqlash qaytariqni muhrlash.

**Qadim Xamligi**- qaddim egilgan qaddi bukilgan

**Talqini Urganji**- bu asar nomi bo'lsada u doira usuli emas.

**Naqshi Talqini Urganji**- naqsh bu bezak demak qo'shiq bezagi. Ochiqroq, aytganda Urganji bezagini eshitish ma'nosida ham keladi.

**Ifori Talqini Urganji**- Urganji bo'yini tuyish.

**Miskin**- o'jizlik va g'ariblikning chekka nuqtasi.

**Talqini Miskin**-g'ariblarning ohini eshitish

**Naqshi Miskin**-g'ariblik bezagi-oshiqlik bezagi.

**Ifori Miskin**- e'tiqod bo'yi.

**Rahoviy**- qadimiy maqomlar silsilasidan. U Olti yarim maqom va Shashmaqom tizimiga kirmagan. Rivoyatlarga ko'ra, Muhammad payg'ambar(s.a.v.) nisbat berilgan. Olloh Taologa payg'ambarimiz ana shu rahoviy pardalarida nola qilganlar.

**Sadri** – siyna har narsaning oliy nuqtasi, to'ri.

**Sadri Iroq**-mashhur iroq maqomining yuksak ko'rinishi.

**Oxyor** – (xayrning ko'pligi) ezgulik-olijjanoblik ramzi.

**Choki Giribon**-<sup>45</sup> yoqaning choki, girdi, chekkasi. Tovba tazarru itoatkorlik timsoli. Dutor maqomlari turkumlarida 4 ta tayanch nuqta kuzatiladi. Ular mazkur maqom nomi bilan yuritiladigan bosh qism-Zihiy Nazzora, Urganji, Miskin, Rahoviy va boshqalar. Undan keyin turadigan barqaror "talqin" qismi "tarjiband", "tarona", "soqiynoma", "naqsh" kabi nomlar bilan yuritiladigan lekin mohiyatan bir xil vazifa bajaruvchi bosh va talqinga ergashgan qismlar turkumni yakunlovchi Ifor qismi.

#### **OLTI YARIM MAQOM (TANBUR MAQOMLARI)**

| <b>Rost</b> | <b>Buzruk</b> | <b>Navo</b> | <b>Dugoh</b> | <b>Segoh</b> | <b>Iroq</b> |
|-------------|---------------|-------------|--------------|--------------|-------------|
| Ushshoq     | Uzzor         | Bayot       | Chorgoh      | Ajam         | Muhayyar    |
| Sabo        | Nasrulloiy    | Oraz        | Oraz         | Navro'zi     |             |
|             |               | Husayniy    | Husayniy     | xoro         |             |

#### **PANJGOH CHERTIM YO'LI**

<sup>44</sup> Raximov B. Boltayev R. Xorazm maqomlarining yangi jilolari//Shashmaqom saboqlari (ma'ruza va maqolalarning ikkinchi to'plami) – Toshkent: 2005.–B.130.

<sup>45</sup> O'sha asar. 66-68 betlar

Tani maqom, Tarje, Peshrav, Gardun, Samoiy, Saqil, Saqil, Muxammas, Muxammas, Ufor.

### AYTIM YO'LI

Tani maqom, taronalar, Suvora, Naqsh.

Muqaddima, Talqin, tarona

Nasr, suvoriy, naqsh.

Nasr, suvoriy, naqsh, Ufor.<sup>46</sup>

**Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar;** Qadimgi tarix ruhoniylari o'lchamida sado unsurlarini jumbushga kelishi, qon semantikasining doimiy va birxillik rekvenligida + yo – (plyus yo minus) hamrohligida ikki usulning biri kuchli va ikkinchisi kuchsizligidan darak berguvchi obektiv va subektiv harakatlar ya'ni, tabiiy va kosmik usul mo'jizalari misolida nazarlab kelingan.

Insoniyatning tug'ilishidan boshlab uni beshikga bog'lashadi va unga "Alla" aytib voyaga keltirishadi. "Alla" aytishuvi suvanronlik qismini anglatga undagi tarovatlar va beshikni tebranishida sodir bo'ladigan ikki harakatning bir marromdagi o'lchami va undagi "bum" va "bak" tovushi kabi qarama-qarshilik sadolarini ham yuqoridagi usullarga taqqoslab olish mumkin. Shuningdek, "alla" zarblarining "Grave – MM:40 tezlikka qo'llanishi. Kosmologik yechimlar va "Qur'oni Karim"dagi suralarning har bir bandidan so'ngi bandgacha bo'lgan masofadagi dam olinishi (pauza), aynan "alla" tarovatidagi dam olinish bilan yaqin o'rin oladi, ya'ni pauzalar bir-biroviga monanddir. Ba'zan "alla" 8/4 o'lchovga ham mos keladi. Musiqada esa ba'zi bastakorlar 2/4;4/4 o'lchovga moslashtirib kuy va qo'shiqlar yaratilgan. Murg'ak go'dakka "Alla" aytib, beshikka bog'lanishi va tebratilishini Ummatimiz Muhammad Alayx Salom, s.s.va/s. ham aytib o'tgan.

12 maqom ham 12 oyga bog'lanishini quyosh tizimi asosida belgilangan burjlarning muqaddas sanalgan davrlar maxsuli deb tushunish mumkin. 12 maqom shaklining Shashmaqomgacha saqlanib kelishi esa maqomlarning so'ngi turi, islomgacha bo'lgan musiqa madaniyatdagi an'analarning davomidir.

Maqom doyra usullari semantikasi juda murakkab va o'zga xos tasniflanishida bir usuliylikdan 24- taktli usulgacha o'z tasnifotida qamrab olganligi bilan, dunyo san'atining mumtoz ijrochiligi sohasida eng murakkabligi bilan ajralib turadi va mo'jiza kabi haligacha ochilmagan sirli qirralari mavjudligini anglash mumkin.

Buxoro shashmaqomi jahon mumtoz ijrochiligi ichida eng murakkabligini, shifobaxsh va mo'jiza kompozitsiyalardan biri ekanligini anglatgani, Vatanimizning fahri va ajdodlarimizning serqirrali donishmandligidan darak berguvchi omil sifatida bizni quvontiradi.

---

<sup>46</sup> O'sha asarga qarang.

### III-BOB

#### SHASHMAQOM SHO'BALARI VA SHAXOBCHALARI

1 Buzrug maqomi;

##### **Birinchi guruh sho'balari**

Saraxbori buzrug;

a) Namudi uzzol = 147-212 taktlar—Uzzolni kelishi

b) Namudi muxayyari chorgoh = 213-287 taktlar--- Muxayyarni kelishi

##### **Talqini uzzol;**

a) Namudi ushshoq =81-147 taktlar---Ushshoqni kelishi

b) Namudi muxayyari chorgoh= 147-225 taktlar—Muxayyarni kelishi

##### **Nasrulloiy;**

a) Avji Turk=64-96 taktlari

##### **Nasri uzzol;**

a) Namudi Ushshoq =34-57 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Namudi Muxayyari chorgoh =58-85— a Muxayyari Chorgohni kelishi

##### **Ufori Uzzol;**

a) Namudi Ushshoq =40-77 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Namudi Muxayyari chorgoh= 78-130— a Muxayyari Chorgohni kelishi

##### **Ikkinchi guruh sho'balari**

##### **1 Mug'ulchaiy Buzrug;**

a) Namudi Uzzol = 31-76 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Namudi Muxayyari chorgoh =77-128— Muxayyari chorgohni kelishi

##### **Talqinchaiy Mug'ulchaiy Buzrug;**

a) Namudi Uzzol =69-127 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Namudi Muxayyari chorgoh =127-189 taktlar— Muxayyari chorgohni kelishi

##### **Qashqarchai mug'ulchaiy Buzrug;**

a) Namudi Uzzol 60-88 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Namudi Muxayyari chorgoh =88-124 taktlar— Muxayyari chorgohni kelishi

##### **Soqinomai Mug'ulchai Buzrug;**

a) Namudi Uzzol =31-58 taktlar—Ushshoqni kelishi<sup>47</sup>

b) Namudi Muxayyari chorgoh =59-90taktlar— Muxayyari chorgohni kelishi

##### **Ufori Mug'ulchai Buzrug;**

a) Namudi Uzzol= 38-67 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Namudi Muxayyari chorgoh =68-100 taktlar— Muxayyari chorgohni kelishi

##### **2. Namudi Uzzol =55-107 taktlar-Uzzolni kelishi**

Namudi Uzzol =55-107 taktlar-Uzzolni kelishi

##### **Safti Sarvinoz guruhi;**

a) Namudi Ushshoq =36-74 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Avji Turk=75-118taktlari

##### **Talqinchai safti sarvinoz;**

<sup>47</sup> Матякубов О. Болтаев Р. Аминов Х. Ўзбек нотаси. Тошкент: 2007.—Б. 77-79 бб.

a) Namudi Ushshoq =69-154 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Avji Turk1=55-224taktlari

**Qashqarchai safti sarvinoz;**

a) Namudi Ushshoq =31-76 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Avji Turk=77-109 taktlari

**Soqinomial Savti Sarvinoz;**

a) Namudi Ushshoq =26-70 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Avji Turk=71-96 taktlari

**Ufari Safti Sarvinoz;**

a) Namudi Ushshoq= 32-74 taktlar—Ushshoqni kelishi

b) Avji Turk=75-111taktlari

**3.Iroqi Buxoro**

a) Avji Zebo pari =114-218—Zebo pari avji

b) Namudi Muxayyari chorgoh= 68-100 taktlar— Muxayyari chorgohni kelishi

**Talqinchai iroq;**

a) Avji Zebo pari =49-136—Zebo pari avji

b) Avji Turk=136-210taktlari

**Chapandozi Iroq;**

a) Avji Zebo pari= 61-153—Zebo pari avji

b) Avji Turk=153-235taktlari

**Soqinomial Iroq**

a) Avji Zebo pari= 61-108—Zebo pari avj

**Ufari Iroq;**

a) Avji Zebo pari =48-95—Zebo pari avj

**Rok**

Namudi Uzzol =55-107 taktlar-Uzzolni kelishi

**Talqinchai Rok;**

Namudi Uzzol =77-131taktlar-Uzzolni kelishi

**Qashqarchai Rok;**

Namudi Uzzol= 37-52 taktlar-Uzzolni kelishi

**Soqinomial Rok;**

Namudi Uzzol =37-54 taktlar-Uzzolni kelishi

**Ufari Uzzol**

Namudi Uzzol =23-46 taktlar-Uzzolni kelishi

**3.1.BUZRUK maqomi.**

**MUSHKULOT va NASR**

**(Namudlar, birinchi guruh sho`'balar, ikkinchi guruh sho`'balar)**

Oltita maqomdan birinchisi «Buzruk» nomi bilan mashhur bo`lib kelgan. Bu maqom haqidagi ma'lumotlar juda qadim zamondan beri, musiqa ilmiy risolalarida sharhlab kelingan edi. O`tmish olimlarining musiqiy risolalarida Buzruk muayyan lad tuzilmasini va unga mos kuy va ashulalarni ifodalagan. Buzruk maqomining jonli namunalarini bizgacha Shashmaqom tarkibidagi kuy va ashula yo`llari orqali ma'lumdir.

«**BUZRUK**» iborasi forscha-tojikcha «Buzrug» soʻzining oʻzgargan shakli boʻlib, «katta», «ulugʻ», «Buzurg»maʼnolarini bildiradi. Har holda bu maqom juda koʻp kuy va ashula yoʻllarini oʻz ichiga olganligi uchun katta», «ulugʻ maqom» - deb nomlangan boʻlsa kerak. Buzrukning asosiy qismlari RE – miksolidiy va doriy ladlariga mos keladi. Maqomlar ijrosida yetakchi soz sanalgan tanbur asbobi Buzruk naqomining ijro etilishida kvartaga sozlanadi. Buzrukning, cholgʻu va ashula yoʻllarini tinglar ekanmiz, I, II, IV, V, VI lad pagʻonalari tayanch nuqtalari sifatida alohida ajralib turadi.

Shashmaqom va ularning shoʻʼbalari, maqom yoʻllarini kuy tuzilmalari haqida koʻrgazmali tasavvur hosil qilish uchun, akademik Yu.Rajabiy toʻplab notaga olgan olti jildlik «Shashmaqom» kitobiga murojat qilinsin. Kitobning VI jildida soʻng soʻz va namudlar jadvali maqom yoʻllarini va ashula qismlarini ajratib olib tushinishda yordam beradi.

Buzruk maqomi ham cholgʻu (mushkulot) va ashula (nasr) boʻlimlaridan tashkil topgan. Uning cholgʻu boʻlimi Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Garduni Buzruk, Muxammasi Buzruk, Muxammasi Nasrulloiy, Saqili Islimiy, Saqili Sulton,<sup>48</sup> - deb nomlangan cholgʻu asarlaridan iborat.

**Tasnif va Tarjeʼ yoʻllarida bir xil doira usuli qoʻllaniladi:** Tasnifi Buzruk ohanglari mazkur maqomning bosh mavzui sifatida uning boshqa qismlarida ham namoyon boʻlib turadi va uning ruhiy holati yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa Tasnifi Buzrukdagi unsurlar va bozgoʻyga oʻxshash ohanglar boshqa maqomlarning qismlarida ham uchraydi. Tasnifi Buzrukning hissiy taʼsir kuchi yuksak boʻlib, kishiga umid, ulugʻvorlik koʻtarinki ruh baxsh etadi, Tarjei Buzruk esa tantanavor yangraydi.

Tarjei Buzrukning peshrav elementlari Nasrulloiy, Ajam taronalari, Choʻli Iroq kabi koʻplab kuy va ashulalarda ham foydalanilgan.

Buzruk maqomining Gardun yoʻli murakkab 8/4-2/4-3/4-3/4 taktli doira usulida ijro etilib, yuksak professional musiqa asari sifatida puxta yaratilgan.

Buzruk maqomining Muxammas va Saqil qismlari uchun xarakterli narsa shuki, ularda xona va bozgoʻylar hajmi bir xildir. Muxammaslarning xona va bozgoʻylari 16 taktli, Saqillarniki esa 24 taktli murakkab doira usuli joʻrligida ijro etiladi. Muxammas va Saqillarda uchraydigan Nasrulloiy, Islimxon iboralari bu kuylarni yaratgan bastakorlarning taxallusidir. Bular orasida Islimxon XVI asrda yashab ijod etgan shoir va ulkan bastakor boʻlib, turli maqomlar mavzuida kuy va ashulalar yaratgan edi.

Buzruk maqomining hamma cholgʻu qismlari kuy tuzilishi jihatidan mukammad va betakror asarlar boʻlib, ohangdorligi bilan kishini maftun etadi. Buzruk maqomining cholgʻu va ashula yoʻllari yuksak badiiy qiymatga ega.

Buzrukning cholgʻu boʻlimidagi kuylar birin-ketin ijro etilgandan soʻng shoʻʼbalarga oʻtiladi.

Buzrukning ashula boʻlimi birinchi guruh shoʻʼbalari taronalari bilan yaxlit holda, turkum tarzida ijro etiladi. Bu shoʻʼbalarning asosiy yoʻllari Saraxbori

---

<sup>48</sup> Matyoqubov O. R. Ogʻzaki anʼanadagi professional muzika asoslariga kirish. T., Oʻqituvchi, 1983, b. 7

Buzruk, Talqini Uzzol, Nasrulloyi, Nasri Uzzol yakunlovchi qismi esa Ufari Uzzol - deb nomlanadi.

Ular orasida Nasrulloyi va Nasri Uzzol – Buzrukning «nasr» deyilgan shoʻbalaridir. Ularning avjlarida asosan, Ushshoq, Uzzol, Muxayyari Chorgoh namudlari, Nasrulloyida esa Turk - deb atalgan avjdan foydalanilgan.

Birinchi guruh shoʻbalari turkum Saraxbori Buzrukdan boshlanadi. U ikki chorak takt oʻlchoviga mos doira usuli bilan ijro etiladi. Saraxbori Buzrukka aytiladigan sheʼr «Muzorei axrabi makfufi mahzuf» - deyilgan vaznda boʻlib, «Mafoilun-foilotun-mafoilun-foilun» tarzida talaffuz etiladi.

Saraxbori Buzruk kuy tuzilishi jihatidan juda ham murakkab hamda bir necha kuy boʻlaklaridan tarkib topgan. Bu asar cholgʻu muqaddimasi bilan boshlanadi. Keyin bir bayt sheʼr bilan aytiladigan birinchi xati-daromad qismi aytiladi. Saraxbori Buzrukning ikkinchi xati—miyonxat, uchinchi xati-dunasr, toʻrtikchi xati-Uzzol namudi, beshinchi xati, oltinchi va ettinchi xatlar Muxayyara Chorgoh namudi va sakkizinchi xat – Furovard qismlaridan tarkib topgan I-II-III va oxirgi xatlar undov soʻzlar bilan aytilarkan, xang va ohanglar bilan ijro etiladi. (Saraxbori Buzrukni tahlil etib eshitib koʻrish tavsiya etiladi.)

Saraxbori Buzruk kuy harakati jarayonida tertsiya, kvarta, kvinta, oktava darajasida sakrama harakatlar hamda turli pardalarga chekinishlar tez-tez sodir boʻlib turadi. Shu sababli uning lad qiyofasini ajratib olish qiyinroqdir. Tonallikning oʻzgarishi holatlarini Saraxbori Buzrukdan keyin aytiladigan oltita uning taronalarida ham kuzatish mumkin. Bu taronalarning kuy tuzilishi lad qiyofasi, doira usuli, ularga aytiladigan sheʼr oʻlchovlari bir-biridan tubdan farq etadi. Bunday hol ashula turkumining rang-barangligini, jozibadorligini taʼminlaydi. Binobarin Saraxbordek yirik ashula yoʻlini tinglashdagi jiddiy va ogʻir holatni engillashtiradi, hamda eshituv hissiyotiga dam beradi. Saraxbori Buzruk taronalari kichik shakldagi engil ashula yoʻllaridir Saraxbori Buzrukning VI-taronasi keyingi shoʻbaga ulovchi vazifasini bajaradigan – suporish qismi deb hisoblanadi.

Buzrukning ikkinchi shoʻbasi Talqini Uzzoldir. Bu erda "Talqin" (asl maʼnosi-tushuntirish, nasihat) iborasi doyra usulining nomi boʻlib, "Uzzol" esa maʼlum kuy tuzilmasini ifodalaydi.

"Uzzol" qadimiy musiqa risrlalarida koʻrsatilishicha oʻn ikki maqomga kirgan maʼlum shoʻbaning nomi. Shashmaqomda esa Buzruk maqomi tarkibiga kiritilgan. Uzzol iborasi esa X asrdan boshlab maʼlum.

"Uzzol" arabcha soʻz boʻlib, "tushish", "pastga sakrash" maʼnolarni bildiradi. Bunday maʼnoni «Uzzol» nomli shoʻba va uning qismlarining kuy harakatlaridan ham bilib olsa boʻladi. Bunday kuy, masalan, "sol" notasidan boshlansa, kvarta darajasida pastga yaʼni "re" notasiga toʻsatdan sakraydi (fikrimizning dalili uchun, Nasri Uzzolning boshlanish qismini tinglab koʻrish kifoya).

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Buzrukda "Uzzol" nomi bilan bogʻliq shoʻba va qismlarda, yaʼni Talqini Uzzol, Nasri Uzzol va Ufari Uzzol kuy mavzulari va ohanglari jihatidan deyarli farq etmaydi. Bular orasidagi asosiy farq - doira usulining turlicha boʻlishidadir. Uzzol yoʻli turli doira usuliga tushirilganda,

ba'zi o'zgarishlarga uchraydi va bir-birining o'zgacha nusxasi bo'lib, yangicha tus oladi va yangicha ta'sir kuchini kasb etadi.

Masalan: Talqini Uzzol, Nasri Uzzol (nasrlar usulida) boshqacha tusga kiradi, Ufar usulida esa quvnoq va sho'xchan ashulaga aylanadi.

Uzzol sho''balari va Ufar qismi quyidagi kuy bo'laklaridan tarkib topgan: Cholg'u muqaddima, I - xat - daromad; II va III xatlar - miyonxat; to'rtinchi va beshinchi xatlar – Ushshoq - namudi; oltinchi xat - Muxayyari Chorgoh namudi; ettinchi xat - furovard, ya'ni tushurish qismlaridan iborat. Bu yerda Ushshoq namudi ya'ni Ushshoqning – Rost maqomining Ushshoq nomli sho''balari asosida, Muhayyari Chorgoh namudi – Iroq maqomlarining shu nomli sho''basi asosida yaratilgan.

Uzzol sho''balari xalq orasida mashhur ashula yo'llari bo'lib o'ziga xos ohangdor va jozibalidir. Ularning mashhurligini shundan ham bilish mumkinki "Uzzol" ohanglari asosida boshqa ashula va kuy yo'llari avjida keng foydalaniladigan Uzzol namudi yuzaga kelgan edi.

Uzzol namudi Shashmaqomda Buzruk, Rost maqomlari sho''balari avjida keng foydalanilgan.

Talqini Uzzolning bittagina taronasi bo'lib, u ham bo'lsa suporish, ya'ni keyingi sho''baga o'tishda ulovchi vazifasini bajaradi.

Buzruk maqomining Nasr - deyilgan sho''balaridan biri Nasrullo yidir. Nasrullo - shu nomli kuy va ashulani yaratgan bastakorning taxallusidir. Uzoq o'htmishda bu cholg'u va ashula yo'llari maxsus maqom hisoblangan, hamda "Rohaviy" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Nasrullo yidi asari Buzrukning boshqa sho''balaridan tubdan farq qiladi. Uning tuzilishi ham ancha murakkab hamda bir necha kuy bo'laklaridan iborat. Bu sho''ba ham cholg'u muqaddimasi bilan boshlanadi. Birinchi va ikkinchi xatlar - daromad; uchinchi va to'rtinchi xatlar - miyonxat; beshinchi xat - daromadning yuqori pardalaridagi takrorlanishi, ya'ni "dunasn"; oltinchi va sakkizinchi xatlar - Turk avji, to'qqizinchi xat tushurim qismlaridan tashkil topgan. Nasrullo yining kuy va ashula yo'llari o'ziga xos orginal va jozibalik bo'lib, tinglovchilarga ancha yaqindir.

Nasrullo yining ketidan uning uchta taronasi ijro etiladi. Uning birinchi taronasi juda murakkab – 13 takt o'lchovidagi doira usuli bilan ijro etiladi. Ikkinchi taronasi 3/4 4/4 uchinchi taronasi 3/4 takt o'lchovida ijro etiladi. Ularning kuy mavzulari juda ham rang-barang, kishida ajoyib his – tuyg'ular uyg'otadi. Shuni aytish kerakki, turli sho''balarning taronalarida qandaydir umumiylik borligini anglab olish mumkin, masalan: Saraxbori Buzruk bilan Nasrullo yining taronalari bir-birining ma'lum ritmik variantlari sifatida eshitiladi.

Nasrullo yidi xalq musyqa ijodiyotiga kuchli ta'sir ko'riatgan. Uning asosida turkum tarzida ijro etiladigan "Nasrullo yidi" nomi bilan mashhur bo'lgan besh qismli kuylar, "Farg'ona Nasrullo si" deyilgan ashula yo'llari yaratilgan edi.

Shunday qilib Buzruk maqomining cholg'u yo'llari ijro etilgandan keyin, turkum Saraxbori Buzrukka ulanib ketadi. Bu sho''ba taronalari bilan aytilandan so'ng suporish vositasi bilan Talqini Uzzol hamda uning taronasiga o'tiladi. Keyin

Nasrullovi taronalari bilan ijro etilib, Nasri Uzzol ijro etiladi. Buzruk maqomining yaxlit turkumi Ufari Uzzol bilan yakunlanadi.

Buzruk maqomi tarkibida ikkinchi guruh shoʻʻbalari toʻrtta boʻlib, "Moʻgʻulchai Buzruk", «Savti Sarvinoz», "Iroqi Buxoro" hamda «Rok»<sup>49</sup> deb nomlanadi.

Ikkinchi guruh shoʻʻbalaridan biri "Moʻgʻulchai Buzruk" kuy tuzilishi jihatdan "Saraxbori Buzruk"ning maʼlum ritmik va melodik variantidir. Endi uni «Moʻgʻulchai Buzruk»ning boshlanish jumllariga taqqoslab doira usuliga ham eʼtibor bering. «Moʻgʻulchai Buzruk»ning kuy boʻlaklari ham Saraxbori Buzrukda kabi. Shu shoʻʻbalar tarkibida daromad, oʻrta pardalarda aytiladigan Miyonxat, Uzzol namudi va Muxayyari Chorgoh namudlari, furovard qismlari mavjud. Moʻgʻulchai Buzrukning asosiy yoʻli besh chorak takt oʻlchovida boʻlib, "Ramali musammani maxzof", - deyilgan sheʼr vaznida ijro etiladi.

#### **Foilotun-foilotun-foilotun-foilon.**

Moʻgʻulchai Buzrukning asosiy yoʻli aytilgandan soʻng, uning shaxobchalari boʻlgan «Talqincha», «Qashqarcha», «Soqiynoma» va «Ufar» ijro etiladi, ular esa mazkur shaxobchalar nomi bilan bogʻliq doira usulidagi ritmik variantlari sifatida gavdalanadi. Shu sababli ularning bittasi tahlil etilsa, boshqa shaxobchalarining ham kuy tuzilishini tasavvur etish mumkin. Lekin ular turli doira usuli, har xil sheʼr matnlari joʻrligida rang-barang tus oladi, boshqacha ruhiy taʼsir kuchini kasb etadi. Masalan, Moʻgʻulchai Buzrukning Qashqarchasini olib koʻraylik. Uning birinchi xati "Daromad", ikkinchi – uchinchi xatlari "Miyonxat", toʻrtinchi – beshinchi xatlari "Dunahr" - yaʼni ashula boshlanish jumllarining yuqori pardalardagi takrori, oltinchi - ettinchi xatlar Uzzol namudi, sakkizinchi – toʻqqizinchi xatlar "Muxayyari Chorgoh" namudi va «Furovard» qismlaridan iborat.

Buzruk maqomi ikkinchi guruh shoʻʻbalaridan biri "Savti Sarvinoz" nomi bilan mashhur. "Sarvinoz", baʼzi maqomchilarning fikricha, bastakorning taxallusi, yaʼni savti Sarvinoz – shu sanʼatkor bastalagan savt yoʻlidir. Savtlarning asosiy yoʻli bir xil, besh chorakli takt oʻlchovidagi doira usuli bilan ijro etilib, Moʻgʻulchalar doira usulidan farq qilmaydi. Lekin sheʼr oʻlchovi "Hazaji musammani solim" - deyilgan vaznda. Mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun - tarzida talaffuz etiladi. Savt yoʻllari orasida Savti Sarvinozning kuy harakati faol boʻlib, murakkab kuy tuzilishi va noyoblighi bilan alohida ajralib turadi.

Savti Sarvinoz cholgʻu muqaddima bilan boshlanadi. Uning I-xat "Daromad", II-III xatlar "Miyonxat", IV-V xatlar Ushshoq namudi boʻlib, Miyonxat VI xat bilan ashula boshlangan parda - tonikaga qaytib tushadi. Soʻngra ashula yoʻli cholgʻu naqorat orqali 7-6 xatlardan iborat Turk avjiga ulanib ketadi. Turk avji ham Miyonxat jumllari vositasi bilan bosh pardaga qaytib tushadi va tushirim qismi bilan yakunlanadi.

Savti Sarvinoz tuzilishi murakkab boʻlsada, kuy ohanglariga boy, ajoyib ashula yoʻllaridandir. Bu ashula ohanglari asosida XIX asrning oxirgi choragida Shahrisabzlik mashhur bastakor, maqomdon hofiz Abdurahmonbek uch qismli

<sup>49</sup> .Buxoro Shashmaqomi, "Gʻulom", Nashriyoti.; / Toshkent- 1986.I-VI-jild.larga qarang.

jozibador ashulalar turkumini yaragtan edi. Ular «Abdurahmonbegi»<sup>50</sup> nomi bilan mashhur boʻlib hozirgi kungacha xalqimizning sevimli ashula yoʻllari boʻlib qolmoqda.

«Abdurahmonbegi» ashularini tinglasak ularning kuyi "Savti Sarvinoz" kuyi ekani yaqqol sezilib turadi. Lekin bastakor Savti Sarvinozdan foydalanib, puxta va jozibali ashulalar yaratgan edi. Bu ashula "Saraxbor" usulining tezlashtirilgan turidir.

"Abdurahmonbegi" ashula yoʻllari sarmazmun, tinglovchilarga oson etib boradigan orombaxsh asarlar darajasida ishlangan. Bastakorning mahorati shundaki, «Abdurahmonbegi-1» ashulasiga Navo namudidan ustalik bilan foydalangan boʻlib, bunday hol maqomchilikda ham uchraydi. Chunki, Buzrukda Navo namudi hech qachon foydalanilmagan edi.

Savti Sarvinozning asosiy yoʻli ijro etilgandan keyin uning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar shoxobchalari birin-ketin oʻqiladi.

Bu ashula yoʻllari ham Moʻgʻulchalardagi kabi, turli doira usullarida yangicha sayqal topadi. Ulardagi kuy qiyofasi, tarkibiy qismlari Savti Sarvinozning bosh yoʻlidagi kuy matnlarining xuddi oʻzidir.

«Buzruk» maqomining II guruhdagi shoʻbalaridan yana biri shinavandalarga maʼlum boʻlgan Iroqi Buxorodir.

Iroqi Buxoro Shashmaqomga kiradigan VI maqom boʻlmish Iroqning Saraxboriga ohangdosh. Bunda Saraxbori Iroq butunicha olinib, Buzruk maqomi ladiga moslangan. Ashula boshlanadigan parda Saraxbori Iroqdagiga koʻra toʻrt pagʻonaga baland koʻtarilgan hamda avjida baʼzi qaytariq jumlar qisqartirilgan yoki baʼzi oʻzgarishlar bilan olingan.

Iroqi Buxoro tarkibida Talqincha, Chapandoz, Soqiynoma va Ufar qismlari boʻlib, ularda tonallik oʻzgarib turadi, kuy buoʻlaklari ham baʼzan bir-biri bilan mos kelmaydi. Masalan, Iroqning asosiy yoʻlida Zebo pari avji bilan Muxayyari Chorgoh namudi foydalanilgan boʻlsa, uning Talqinchasa va Chapandozida Muxayyari Chorgoh oʻrniga Turk avji keladi. Soqiynoma va Ufar qismlarida esa Zebo pari avjining yolgʻiz oʻzi foydalanilgan. Bu ashula yoʻllarida boshqa pardalarga oʻtish kabi kuy harakatlari koʻplab sodir boʻladi.

Iroqi Buxoroning shahobchalaridan umumiy tushuncha olish uchun uning yengilroq yoʻllaridan Soqiynomai Iroqni olib koʻraylik.

Bu ashula yoʻlining I-xati «Daromad», II-III xatlari Oʻrta parda jumalari - Miyonxat, IV-V xat Zebo pari avji, oxirgi VI-xat tushirim qismlaridan iborat.

Bu jozibali ashula yoʻli kishida nozik lirik kayfiyatlar qoʻzgʻaydi, ezgu hayollarga choʻmdiradi. Oʻzining kuy tuzilishi bilan bosh ashula yoʻlidan anchagina farq etadi. Zebo pari avjida esa Iroq bilan hamohang boʻlib qoladi. Furovard qismida yana oʻzgacha shakl oladi.

Iroq yoʻllari asosida koʻpgina xalq ashulalari, cholgʻu va surnay yoʻllari yaratilgan boʻlib, bu narsa Iroqning musiqa sanʼatimizda naqadar keng oʻrin tutgani va mashhur boʻlib ketganidan dalolat beradi. Iroq yoʻllari asosida "Choʻli

---

<sup>50</sup> Boltayev R. Dutor maqomlari. –Toshkent: 2006. –B. 3-25.

Iroq", «Suvoriy» kabi mashhur cholgʻu asarlari, "Toshkent Iroqi" kabi ashulalar yuzaga kolgan edi. Choʻli Iroq kuyida hatto Muxayyari Chorgoh namudi butunicha saqlangan. Toshkent iroqi esa Iroqi Buxorodagi "Daromad" bilan boshlanib, avj qismi esa Muxayyari Chorgohning maʼlum variantlarining takroridir.

"Soqiynomai Iroq" asosida "Suvora" ashulasi va shu nomli ikki qismdan iborat kuylar yuzaga kelgan. Suvora kuylari Soqiynoma va Ufar usullarida chalinib avjidadagi Zebo pari qismi tushirib qoldirilgan.

Suvora soʻzi - chavandoz, otliq maʼnolarida boʻlib, chavandozning ot ustidagi harakati va atrofdagi goʻzal manzaralarni musiqiy vositalar orqali tasvirlaydi va kishini chuqur hayolga choʻmdiradi.

Endi Ufari Iroqqa kelsak, u Iroq shaxobchalarining Ufar doira usulidagi variantidir. Ufari Iroq Fargʻonada xotin-qizlar tamonidan juda koʻp aytiladigan «Fargʻonacha» ashula yoʻlini eslatadi.

Bu jozibali, rohatbaxsh ashula yoʻlida aynan bir vaqtda xotin-qizlarning ichki his-tuygʻulari, orzu-umidlari va istaklari, intilishlari ham oʻz ifodasini topgan.

Buzruk maqomining shoʻʼbalaridan yana biri "Rok" nomi bilan mashhur. Rok iborasi hindcha "Rag", «Raga» soʻzidan olingan boʻlib, Oʻrta Osiyo xalqlarining Hind xalqlari oʻrtasidagi qadimdan mavjud boʻlgan musiqiy aloqalarining ifodasi boʻlsa kerak. Bunda Rokning kuy tuzilishi hind musiqasiga aloqasi bor deb oʻylash xatodir. Nazarimizda bu yerda nomigagina hindchadir. Shuni ham aytish kerakki, uygʻur xaqida ham "Shashmaqom"dagi kabi Rok cholgʻu va ashula yoʻllari boʻlib, bizdagi Rok shoʻʼbasiga oʻxshaydi. Bular oʻrtasidagi farq ijro uslubining turli ekanligidir.

Buzrukdagi Rok shoʻʼbasi uchun xos narsa shuki, uning asosiy yoʻli Savt–moʻgʻulchalariga oʻxshamaydi, balki Talqin doira usulida ijro etiladi. Bianobarin, kuy tuzilishi ham ancha ixcham. Uning asosiy yoʻli, talqinchasi, qashqarchasi va soqiynomasi hamda ufari, daromad, miyonxat, namudi uzzol va furovard qismlaridan iborat boʻlib, hamma shoxobchalarda avjlar qisqartirib olingan. Lekin bu qismlardagi kuy ohanglari bir-biridan ancha farq qiladi. Rok shoʻʼbasining qismlari xalq orasida juda ham mashhur boʻlib, raqsbob ashula yoʻllaridandir. Bu ashula yoʻllari xalq yigʻinlarida, toʻy va bazmlarda koʻpchilik tamonidan raqs joʻrligida aytilib kelingan.

Shuni ham alohida aytish kerakki, Rok qismlari surnay yoʻllari sifatida ham mashhur. Baʼzan shodu xurramlik kayfiyatini ifodalagani uchun surnay, nogʻora va karnay ansambllarida ijro etilib, "Shodiyona" kuylari deb ataganlar. Lekin "Shodiyona" nogʻora usullari va ularga chalinadigan kuylar oʻndan ortiq sanaladi va orasida Rok qismlari ham ijro etilaveradi.

### **3.2. ROST maqomi**

#### **Birinchi guruh shoʻʼbalari**

##### **Saraxbori rost**

- a) Namudi segoh =111-182 taktlar—Segohni kelishi
- b) Namudi Ushshoq=182-203 taktlar—Ushshoqni kelishi
- c) Namudi Uzzol =203-224 taktlar—Uzzolni kelishi
- d) Namudi Muhayyari Chorgoh=224-292 taktlar

##### **Talqini Ushshoq**

- a) Namudi Ushshoq=75-103 taktlar—Ushshoqni kelishi
- b) Namudi Uzzol =103-131 taktlar—Uzzolni kelishi
- c) Namudi Muhayyari Chorgoh=131-207 taktlar

#### **Nasri Ushshoq**

- a) Namudi Ushshoq=32-44 taktlar—Ushshoqni kelishi
- b) Namudi Uzzol =45-57 taktlar—Uzzolni kelishi
- c) Namudi Muhayyari Chorgoh =58-90 taktlar

#### **Navro'zi Sabo**

- A Namudi segoh =111-182 taktlar—Segohni kelishi
- b) Namudi Navo=70-81 taktlar-Navoni kelishi
- c) Namudi oraz = 81-97 taktlar-Orazni kelishi

#### **Talqinchai navro'zi sabo**

Avji Zebo pari=69-126 taktlar-Zebopari avji

#### **Uffari Ushshoq**

- a) Namudi Ushshoq=49-63 taktlar—Ushshoqni kelishi (dunasr o'rnida)
- b) Namudi Uzzol =64-81 taktlar—Uzzolni kelishi
- c) Namudi Muhayyari Chorgoh=81-124 taktlar

#### **Ikkinchi gruppа sho'balari**

#### **S a v t i U s h s h o q**

- a) Namudi Ushshoq=56-69 taktlar—Ushshoqni kelishi
- b) Namudi Uzzol= 69-86 taktlar—Uzzolni kelishi

#### **Talqinchai Savti Ushshoq**

- a) Namudi Ushshoq=101-125 taktlar—Ushshoqni kelishi
- b) Namudi Uzzol =127-145 taktlar—Uzzolni kelishi

#### **Chapandozi Savti Ushshoq**

- a) Namudi segoh =150-198 taktlar—Segohni kelishi
- b) Avji Turk=198-236 taktlar –Tuk avji

#### **Qashqarchai Savti Ushshoq**

- a) Namudi Ushshoq=53-62 taktlar—Ushshoqni kelishi
- b) Namudi Uzzol =63-72 taktlar—Uzzolni kelishi

#### **Soqinomial savti Ushshoq**

- a) Namudi Ushshoq=49-56 taktlar—Ushshoqni kelishi
- b) Namudi Uzzol =57-68 taktlar—Uzzolni kelishi

#### **Ufari Savti Ushshoq**

- a) Namudi Ushshoq=55-67 taktlar—Ushshoqni kelishi
- b) Namudi Uzzol=68-82 taktlar—Uzzolni kelishi

#### **II. S a v t i S a b o**

Avji Zebo pari= 28-75 taktlar-Sebo Pari avji

#### **Talqinchai Savti Sabo**

Avji Zebo pari=81-146 taktlar-Sebo Pari avji

#### **Qashqarchai Savti Sabo**

Avji Zebo pari=41-81 taktlar-Sebo Pari avji

#### **Soqinomial Savti Sabo**

Avji Zebo pari=29-68 taktlar-Sebo Pari avji

### **Ufari Savti Sabo**

Avji Zebo pari=45-92 taktlar-Sebo Pari avji

### **III.S a v t i K a l o n**

Avji Zebo pari=32-59 taktlar-Sebo Pari avji

### **Talqinchai Savti Kalon**

Avji Zebo pari=49-125 taktlar-Sebo Pari avji

### **Qashqarchai Savti Kalon**

Avji Zebo pari=44-75 taktlar-Sebo Pari avji

### **Soqinomial Savti Kalon**

Avji Zebo pari=29-65 taktlar-Sebo Pari avji

### **Ufari Savti Kalon**

Avji Zebo pari=29-65 taktlar-Sebo Pari avji

### **Ushshoqi Samarqand-Samarqand ushshoqi**

a)namudi Ushshoq=117-330 taktlar—Ushshoqni kelishi

### **Ushshoqi Xo'qand-Qo'qon Ushshoqi**

a)Avji Zebo pari= 90-153—Zebo pari avj

b)namudi Ushshoq=182-121 taktlar—Ushshoqni kelishi

c)namudi Uzzol= 224-253 taktlar—Uzzolni kelishi

### **Gulyori- Shaxnoz**

#### **Gulyor**

Ushshoq sho'balariniturli ko'rinishlari= 11-50 taktlar

#### **Shaxnoz**

Namudi ushshoq qaytariqlari bilan=80-107 taktlar

#### **Chapandozi gulyor**

Namudi Ushshoq

#### **Ushshoq**

Ushshoq yo'lining turli variantlari namudi Ushshoq va Uzzol elementlari

#### **Qashqarchai Ushshoq**

Namudi Ushshoq (Ushshoq variantlari yana uchraydi)=32-47taktlar

### **ROST maqomi.**

### **MUSHKULOT va NASR**

(namudlar, birinchi guruh sho'balar, ikkinchi guruh sho'balar)

Bu maqom o'tmish musiqa risolalarida o'n ikki maqomlardan biri sanalgan. Sharq musiqa nazariyasiga oid kitoblarda Rostning eng qadimiy maqom ekani to'g'risida gapirilib bu haqda afsona keltiriladi. Afsonaga ko'ra, "Rost" Odam Atodan qolgan. Go'yo Odam Momo Havo bilan jannatdan yerga quviladi. Xudo ularning birini Mag'ribga, ikkinchisini Mashriqqa jo'natada. Odam Ato Momo Havo ishqida sarson-sargardon bo'lib, uni axtaradi. Go'yo Odam Atoning chekkan nolasi, «ohu vohi» Rost maqomi pardalaridagi kuydan iborat edi.<sup>51</sup> Shuning uchun musiqa kitoblari mualliflari Rost maqomini «Ummul-advor» ya'ni maqom lad doiralarining onasi deb hisoblaganlar. Mazkur afsonani keltirish bilan, musiqa olimlari Rostni eng qadimiy va ilk maqom yo'li ekanini isbotlamochi bo'lganlar.

---

<sup>51</sup> . Matyoqubov O. R. Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish. T., O'qituvchi, 1983, b. 7

"ROST" iborasi esa "mos keladigan", "to'g'ri tushadigan"-ma'nolarini bildiradi. Musiqa risolalarida aytilishicha, bu maqomning ladiga juda ko'p kuy va ashulalar mos kelgani uchun "Rost" deb nomlangan. Darhaqiqat, O'zbek va Tojik xalqlari musiqasida hozirda ham bu maqom ladiga mos musiqa asarlari son-sanoqsiz. "Rost" maqomining asosiy yo'llari boshlanadigan parda, ya'ni tonikasi "DO" tovushi bo'lib, O'n ikki maqom tarkibida "Miksolidiy" ladiga yaqin bo'lgan, Shashmaqomda esa, "Miksolidiy va Ioniy" deyilgan lad qo'shilmasiga mos keladi. Buning sababi bor albatta, chunki o'n ikki maqomdagi Rost va Ushshoq maqomlari Shashmaqomda Rost maqomi shaklida birlashtirilgan edi. Mazkur Miksolidiy va Ioniy pardalari bir-biriga birmuncha yaqin bo'lib, ulardagi farq tovushqatorning yettinchi pag'onasidadar.

Maqomlar ijrosida yetakchi sozlardan hisoblangan Tanbur torlari "Rost" maqomida katta oktavaning "Do-Sol" notalariga sozlanib, uning I-II-IV-VI pog'onalari kuyning tayanch pardalaridir.

"Rost" maqomi ham cholg'u va ashula bo'limlaridan iborat. Dastlab uning cholg'u g'ismlari yaxlit holda birin-ketin ijro etiladi. Bu cholg'u qismlari "Tasnifi Rost", "Garduni Rost", «Muxammasi Rost», «Muxammasi Ushshoq», «Muxammasi Panjgoh», «Saqili Vazmin», «Saqili Rag-Rag»<sup>52</sup> deb nomlanadi.

Tasnifi Rostda bu maqomning bosh mavzui bayon etilib, kuy ohanglari jihatidan xalq kuylariga o'xshaydi. Uning xonalari peshrav vositasi bilan harakat qiladi va kichikroq hajmdagi bozgo'ylar bilan yakunlanib boradi. Tasnifi Rost o'z tuzilishi bilan "Usmoniya" kuyiga juda yaqin. Uning peshrav ohanglari esa juda ko'pgina xalq cholg'u kuylarida uchraydi.

Tasnifi Rostning xonalari borgan sari yuqori pardalarga ko'tarila borib, keyingi 6-7- xonalar hajmi juda ham kengayib ketadi, Masalan, birinchi xona 16 takt bo'lgani holda, yettinchi xona 94 taktga etadi. Xonalar kengayib borishi bilan kuyning mazmuni ham chuqurlasha boradi.

Rost maqomining boshqa cholg'u yo'llaridan Garduni Rost ohang e'tibori bilan Tasnifi Rostga yaqin. Lekin, Muxammas va Saqillar ohadnglari tubdan farq etadi. Muxammasi Rost bilan Muxammasi Ushshoq yo'llari bir-biriga ohangdosh. Ular ikki turli ladga moslab olingan bitta kuyning variantlaridir.

Muxammasi Ushshoq esa, shinavandalarga juda ham yaqin kuy bo'lib, Kishida chuqur ham nozik his-tuyg'ular uyg'otadi. Ayniqsa Xorazm namunasi yengilroq, sho'xroq uslubda ijro etilib, shodu-xurramlik, xursandchilik kayfiyatini ham qo'zg'atadi.

Rost maqomida uchta Muxammas yo'llari orasida Muxammasi Panjgoh ajralib turadi. Uning kuy tuzilishi ham o'ziga xos, boshqa muxammaslardan tubdan farq etadi. Panjgoh iborasi O'n ikki maqom majmuasida ma'lum sho'baning ifodasi bo'lgan va besh pog'onali tovushq'atorni anglatgan. Shuning uchun uning lad asosi ham asl maqomdan farq etadi.

Rost maqomida ikkita «Saqil» asari mavjud. Ular Saqili Vazmin va Saqili Rag-Rag deyilib, vazmin iborasi arabcha "Saqil" so'zining o'zi, Rag-Rag esa hindcha

<sup>52</sup> Rahimov B. Dutor maqomlarining umumiy jihatlari // Shashmaqom saboqlari (ma'ruza va maqolalarning ikkinchi to'plami) – Toshkent: 2005. –B.123-133.

maqom ma'nosini bildiradi. Gardun, Muxammas, Saqil iboralari doira usullari ifodasi ekani aytib o'tidgan edi. Bu erda shuni aytish kerakki, noma'lum sabablarga ko'ra Rost maqomida Tarje' deyilgan cholg'u qism uchramaydi. Rostning cholg'u yo'llari, kuy mavzui o'ziga xos bo'lib, doira usullari boshqa maqomlardagi kabidir. Ularning hammasi jozibali. yoqimli ohanglarga boy. Rost maqomining cholg'u yo'llari ijro etilib, ashula bo'limi yo'llariga o'tiladi.

Rostning ashula yo'llari ham kuy mavzusi jihatdan xilma-xildir. Ular birinchi va ikkinchi guruh sho''balardan tarkib topgan. Birinchi guruh Saraxbori Rost, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Navro'zi Sabo sho''balari va Ufari Ushshoq qismidan iborat. Bu sho''balardan ko'rinadiki, Rost maqomi asoso'y yo'llari uch xil kuy mavzuidagi ashulalardan, ya'ni Rost, Ushshoq va Nazro'zi Sabo ashula yo'llaridan iborat. Rost maqomining birinchi guruh sho''balari turkumning bosh mavzui bo'lgan Saraxbori Rost bilan boshlanadi. Undan so'ng uning to'rtta taronasi o'qiladi. Rostning turkumi keyingi sho''ba bilan ulovchi vazifasini bajaruvchi suporish visitasi bilan Talqini Ushshoq sho''basiga ulanadi.

Talqini Ushshoqdan keyin uning taronasi aytiladi. Bu tarona aynan bir vaqtda suporish vazifasini o'taydi hamda Nasri Ushshoq sho''basiga ulanib ketadi. Nasri Ushshoqning birinchi, ikkinchi taronalari ijro etilib, suporish bilan Navro'zi Sabo sho''basiga o'tiladi. Uning ketidan Navro'zi Saboning talqinchasi aytilib, Rostning birinchi guruh sho''balari turkumi Ufari Ushshoq va oxirgi suporish bilan yakunlanadi.

Rost maqomi ashula bo'limining bosh mavzui bo'lgan Saraxbori Rost o'zining kuy tuzilishi jihatdan betakror ashula yo'llaridan bo'lib, juda murakkab qiyofaga ega. Saraxbori Rost cholg'u muqaddima va daromad qismi bilan boshlanadi. So'ngra she'r matnsiz ijro etiladigan ohanglar orqali o'rta pardalarda ijro etaladigan miyonxat qismiga o'tiladi. Miyonxat qismi ham she'riy matnsiz aytiladigan ohanglar bilan tonikaga qaytib tushadi. Saraxbori Rostning takt o'lchovi sodda, ikki chorak bo'lib

"Muzorei musammani axrobi makrufi mahzuf" deyilgan vazndagi she'rlar bilan ijro etiladi, ya'ni Munisning:

**Qaddi ko'zim qaro meni g'am tiyra hol etib,**

**Xurshiddek yorug` ani arzi jamol etib-** kabi she'rlar mos keladi.

Saraxbori Rostning avj qismida Segoh, Ushshoq, Uzzol va Muxayyari Chorgoh namudlari birin-ketin ijro etiladi. Bu namudlar bir-biriga ohanglar vositasi bilan ulanadi. Ashula yo'li esa, tushirim qismi "furovard" bilan yakunlanadi. Saraxbori Rostning murakkab kuy tuzilishining to'liq anglashda mazkur namudlarni ajrata bilish asosiy omillardandir.

Saraxbori Rostning murakkab kuy qiyofasi tinglovchiga oson yetib boradi, kishida yuksak lirik kayfiyatlar uyg'otadi, ajoyib manzaralarni tasvirlab, voqelikni musiqiy badiiy vositalari bilan tushuntiradi. Namud, avjlari esa kuy mazmunining rang-barang bo'lishini ta'minlaydi va uning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Saraxbori Rostni tinglash jarayonida kishi hissiyotida jiddiy holat yuzaga keladi. Bunday holat esa, tarona qismlariga o'tilishi bilan yengillashadi va kishida yangi his tuyg'ular hosil bo'ladi. Taronalar ham maqom turkumlaridagi kuy

mavzuining rang-barang bo'lishini ta'minlaydi, Saraxbori Rostning birinchi taronasi o'n olti taktli murakkab doira usuli jo'rligada ijro etilishiga qaramay, yengil va xushchaqchaq kayfiyat uyg'otadi. Kuy harakatida ohanglar esa ravon yangraydi. Bu sho''baning boshqa uchta taronasi yanada sho'xchang va jozibali.

Rost maqomining ikkinchi sho''basi "Talqini Ushshoq" deb nomlanadi. Shuni aytish kerakki, Rost maqomida Ushshoq nomi bilan mashhur bir necha sho''ba va qismlar mavjud. Uning birinchi guruh sho''balarida yana Nasri Ushshoq va Ufari Ushshoq deyiladigan ashula yo'llari mavjud. Ularning hammasi bir-biri bilan hamohang, kuy tuzilishi va tarkibiy qismlari ham bir xil. Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq va Ufari Ushshoq ma'lum ashula yo'lining Talqin, Nasr va Ufar doira usullarida ijro etiladigan variantlaridir. Lekin, ularga o'qiladigan she'r o'lchovlari turlicha bo'ladi.

«Ushshoq» iborasi arabcha "Oshiq" so'zining ko'pligi bo'lib Oshiqqlar degan ma'noni anglatadi. Hech shubha yo'qki, Ushshoq cholg'uva ashula yo'llari, ularga aytiladigan she'rlar ham ishqiy lirik xarakterda bo'lgan. Ushshoq sho''balari va uning Ufar qismi kuy tuzilishini tasavvur etish uchun ulardan bittasini qarab chiqilsa kifoya.

Masalan, Nasri Ushshoqni olib qaraymiz. Bu ashula yo'li 6/4 takt o'lchovidagi doira usuli jo'rligida ijro etilib,

"Hazaji musammani solim"-deyilgan vazndagi she'r o'lchovida ijro etiladi. Nasri **Ushshoq Nodiraning:** Agar gulshang'a kirsar sarv gulro'yim xirom aylab Yugurgay sarvu gul yuz marhabo birla salom aylab – deb boshlanadigan g'azali o'lchovida aytiladi.

Nasri Ushshoqning daromad qismi ikki bayt she'r bilan aytiladi, ya'ni bir xat (bir bayt) she'rga mos ashula jumlasidir. Nasri Ushshoqning avj qismida uchta: Ushshoq, Uzzol va Muxayyari Chorgoh namudlari mavjud. Bulardan Ushshoq va Uzzol namudlari qisqa berilgan bo'lib, bu namudlar Muxayyari Chorgohga o'tishda o'zaro ulovchi vazifasini o'taydi. Ashula yo'li tushurim qismi bilan tugallanadi.

Nasri Ushshoqdan keyin uning ikkita taronasi ijro etiladi. Bu taronalar kichik hajmdagi jozibali va yoqimli yengil ashula yo'llari bo'lib, oddiy xalq qo'shiqdariga yaqidir. Nasri Ushshoqning birinchi taronasi Xorazmda mashhur bo'lgan "Hanuz" ashulasining o'zidir. Xorazm maqomlari tarkibida esa «Naqshi Rost» deb nomlanadi.

Rost maqomining yana bitta sho''basi "Navro'zi Sabo" ashulasidir, O'tmish musiqa risolalarida Navro'z bayramiga atalgan va navro'z so'zi qo'shilib nomlanadigan bir necha maqom sho''balari mavjud edi. Ular Navro'zi Arab, Navro'zi Xoro, Navro'zi Bayotiy, Navro'zi Ajam, Navro'zi Sabo<sup>53</sup> kabi atalardi va Navro'z bayramiga nisbat berilardi. Navro'zi Sabo esa, shunday sho''balardan biri sifatida bahor manzaralarini tasvirlaydigan Rohaviy maqomining sho''basi sanalgan. Shashmaqomda esa, Rost maqomi tarkibiga kiritilgan. Shu sababli, Navro'zi Saboning kuy mavzui, kuy qismlari Rost maqomining boshqa sho''balari

---

<sup>53</sup> Rajabov Ishoq. Maqomlar. Toshkent., (qo'lyozma) San'atshunoslik institute kutubxonasi, Inv. N843, b. 61

matnlaridan butunlay farq etadi. Hatto bunda Rost maqomiga xos bo'lmagan Navo va Oraz namudlaridan foydalanilganligi fikrimiz dalili bo'la oladi. Navro'zi Saboning ta'sir etish kuchi ham o'ziga xos.

Navro'zi Sabo juda murakkab tuzilgan bo'lib, uning bir bayt she'r bilan aytiladigan xatlari, mazkur VIII xat Oraz namudidan iborat. Ashula yo'li tushirim qismi Furovard bilan tugallanadi.

Navro'zi Sabo ayniqsa mashhur maqomdon ustoz Domla Halim Ibodov ijrosida maroqli chiqardi. Domla Halim Segoh namudi avjini juda ham kengaytirilgan shaklda aytardi. Bu ashula yo'lidan Yunus Rajabiy "Farhod va Shirin" musiqali dramasida Shopur ariyasi sifatida foydalanilgan bo'lib, Shopurning Farhodga sadoqati, ulardagi chuqur samimiy do'stlik tuyg'ularini to'laqonli ifodalay olgan edi.

Navro'zi Sabodan keyin uning talqinchasi ijro etiladi. Shuni ham aytish kerakki, birinchi guruh sho''balari tarkibida Talqincha deyilga shaxobchalar bo'lmaydi, balki talqinchalar ikkinchi guruh sho''balariga xosdir. Navro'zi Sabo sho''basi esa, bundan mustasnodir. Navro'zi Sabo talqinchasining kuy tuzilishi asosiy sho''baning yo'lidan farq etadi. Uning kichik bo'laklari ham butunlay boshqa, katta avj sifatida «Zebo pari» avji keladi. ashula yo'lining quyidagi qismlarni tashkil etadi:

I-xat - daromad; II-III xatlar – o'rta pardalarda ijro etiladigan Miyonxat; IV xat - daromadning yuqori pardalardagi takrori bo'lmish Dunasr; V-VI xatlar - Segoh namudi; VII xat Navo namudi

Navro'zi Sabo talqinchasi ham asosiy sho''ba yo'li kabi kuy ohanglarga boy, ajoyib ashula yo'llaridandir. Navro'zi Sabo asosida juda ko'p kuy va ashulalar yaratilgan. Jumladan, uning Talqinchasi ohanglari asosida To'xtasin Jalilov "Tohir va Zuhra" operasi uchun "Ishq seli" - deb boshlanadigan ariya, Komiljon Jabborov esa "Layli va Majnun" musiqali dramasida qaxramonlarning «Mubtalo bo'ldim senga» deb boshlanadigan duetni yaratgan edilar.

Umuman Rostning birinchi guruh sho''balari juda ham mashhur ashula yo'llaridir. Ular asosida O'rta Osiyoning turli vohalarida Savtlar, ularning shaxobchalari, Ushshoqning to'rtta varianti, Gulyori Shahnoz va uning shaxobchalari, surnayda chalinadigan qator musiqa asarlari yuzaga kelgan edi. Bu sho''ba va ashula yo'llarining ko'pi ikkinchi guruh sho''balari jumlasiga kiritilgan.

Shunday qilib, Rost maqomining birinchi guruh sho''balari Saraxbori Rostdan boshlanib, uning to'rtta taronasi aytiladi. Turkum esa Talqini Ushshoqqa ulanib ketadi. Uning taronasi ijrosidan so'ng Nasri Ushshoq ijro etiladi. So'ngra uning ikkita taronasi o'qilib, Navro'zi Sabo va uning talqinchasiga o'tiladi. Birinchi guruh sho''balari Ufari Ushshoq va oxirgi Suporishi bilan yakunlanadi.

Rost maqomi ikkinchi guruh sho''balariga Savti Ushshoq, Savti Kalon, Savti Sabo kiradi va Rostning birinchi guruh sho''balari asosida yaratilgan, ularning variantlaridir. "Rost" maqomi ikkinchi guruh sho''balari Savt yo'llaridangina iborat bo'lib, ularda Mo'g'ulcha uchramaydi. Savtlar "Talqin" va "Nasr" sho''balariga nazira qilinib ishlangan ashula yo'llari ekani to'g'risida aytib o'tilgan edi. Lekin Savti Ushshoq bu o'rinda mustasnodir. Hatto uning lad qiyofsi, kuy tuzilishi ham birinchi guruhdagi Ushshoq sho''balaridan farq etadi. Masalan, Nasri

Ushshoq bilan Talqini Ushshoq ioniy ladiga mos kelgan holda, Savti Ushshoq tovushqatori frigiyladiga to'g'ri keladi. Tonika "Rost" maqomida birinchi oktavaning "Do" notasi bo'lib, Savti Ushshoqda "Mi" yoki "Si" pardasiga to'g'ri keladi. Maqomlar ijrosida tanburning mazkur pardalari Savti Ushshoq ijrosi uchun qulay bo'lib, tonika "Si" notasi bo'lgach "Fa" notasi oldiga diyez qo'yish bilan tovushqator jo'nlashtiriladi.

Savti Ushshoqning hamma shoxobchalari ham jozibali va dilrabo ashula yo'llaridandir. Ular turlicha doira usullariga tushirilganda yangicha sayqal topadi, kuy mavzui o'zgacha gavdalanadi. Ayniqsa, Qashqarchai Savti Ushshoq yorqin ifoda vositalariga boy, ta'sirchan, maftunkor ashula yo'llaridandir.

Savti Ushshoqning Soqiynomasi boshlanishi Buxoro Iroqining Soqiynomasini eslatadi. Lekin uning o'rta parda va avj qismidagi ashula jumalari Savti Ushshoqqa xos yangraydi. Savti Ushshoq ufarisi «Farg'onacha» xotin-qizlar qo'shig'ining o'zi. Ulardagi tafovut shuki, Ushshoq ufaridagi avjlar farg'onachada tushirib qoldirilgan.

Savti Ushshoqning kuy ohanglari, lad asosiga mos juda ko'p xalq kuy va ashulalari mavjud. Xalqimiz orasida mashhur "Guluzorim", "Farg'onacha tanovar", "Tong otguncha", Xorazm dostonlarida aytiladigan "Naylayin" ashulasi, "Izlayman" va boshqa farg'onacha qo'shiq va yallalar fikrimizning dalilidir.

Kompozitor va bastakorlarimiz ijodiga ham Savti Ushshoq yo'llari o'zining barakali ta'sirini ko'rsatgan. Muxtor Ashrafiyning "Dilorom" operasidagi Dilorom ariyasi, Doni Zokirovning Navoiy g'azaliga bastalagan "Ko'rmadim" romansi, Dadaali Soatqulovning Muqimiy g'azaliga yozgan "Navbahor" romansi, To'xtasin Jalilov bastalagan bir necha ashula yo'llari, G'anijon Toshmatovning "Istadim"<sup>54</sup> kabi kishida ajoyib kayfiyatlar qo'zg'otuvchi musiqa asarlari Savti Ushshoqqa hamohangdir.

"Rost" maqomining ikkinchi guruhiga kirgan sho'balardan biri "Savti Sabo"dir. Savti Saboning lad asosi "Rost" maqomining asosiy tovushqatoriga mos keladi. Savti Sabo Rostning birinchi guruh sho'balaridan Navro'zi Sabo asosida yuzaga kelgan. Ularning orasida ba'zi tafovutlar bo'lishi tabiiy bir holdir. Chunki «Savti Sabo» "Navro'zi Saboga" taqlid qilinib ishlangan va qisqartirib olingan. Savti Saboda Navro'zi Sabodagi kuyning pag'onama-pag'ona silliq harakati sakrama harakatga almashingan. Ularning dastlabki 3 xati ohanglari deyarli bir xil bo'lib, Savti Saboda Navro'zi Sabodagi "Segoh", "Navo" hamda "Oraz" namudlari o'rniga "Zebo pari" avjidan mohirona foydalanilgan. Savti Sabo va uning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deyilgan shoxobchalarida bir xil kuy qismlari mavjud, ya'ni birinchi xat ikki marta takrorlanadigan daromad qismi, ikkinchi xat O'rta pardalarda aytiladigan Miyonxat, uchinchi va to'rtinchi xatlar Zebo pari avji va oxirgi xat tushirim qismlaridan tashkil topgan, Savti Sabo yo'llari ular asosida yuzaga kelgan ashula yo'llari orqali ham mashhur bo'lgan.

"Rost" maqomi ikkinchi guruh sho'balaridan yana biri "Savti Kalon" deyiladi. Bu yerda Kalon so'zi bastakor taxallusidir. Savti Kalon ham besh qismli

---

<sup>54</sup> Gafurbekov T. B. Tvorcheskie resursi nacionalnoy monodii I ix proplemnenie v uzbekskoy muzike. T., Fan, 1987, s. 8-11

ashula yo`li bo`lib uning shoxobchalari Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufardir. Savti Kalonning namunalari O`zbekiston va Tojikistonning turli vohalarida keng tarqalgan bo`lib, ular asosida juda ko`p kuy va ashulalar yaratilgan, chunki Savti Kalonning tuzilishi, kuy ohanglari xalq musiqa asarlari zaminidadir. Ular asosida yaratilgan Qalandar I-II, uning variantlari "Kim desun", «Raqqosasidan», "Farhod va Shirin"<sup>55</sup> musiqali drammsidagi Shirin ariyasi kabi ashula yo`llari xalqimizning sevimli musiqa asarlari bo`lib kelgan.

Savti Kalon va uning shoxobchalarining kuy tuzilishi, kuy harakati va tarkibiy qismlari bir xil. Savti Kalonning ikki xati - ikkita turli uslubda aytiladigan Daromad qismi, Uchinchi xat – o`rta pardalarda ijro etiladigan Miyonxat, to`rtinchi, beshinchi xatlar – Zebo pari avji, oltinchi xat esa, tushirim qismlaridan iborat.<sup>56</sup>

Savti Kalon sho``basini tinglar ekanmiz, kishida qandaydir umid va orzuga erishish hissiyotlari aks etadi, insonga xushchaqchaq, kayfiyatlar baxsh etadi. Uning bosh yo`li Talqincha va Qashqarchasi tinglanganda, bu ashula kuyi kishini go`yo maqsadga qarab talpingandek tuyuladi. Soqiynoma va Ufari eshitilganda, beixtiyor shodu xurramlik boshlanadi, ro`qsga taklif etilganday seziladi.

Umuman Rost maqomi yo`llariga mos kuy va ashulalar xalqimiz musiqa merosida munosib o`rin egallaydi. Bunday asar musiqa boyliklarimiz oltin javonidan salmoqli joy oladi.

### **3.3.NAVO maqomi** **Birinchi guruh sho`balari;** **Saraxbori Navo;**

a) Namudi Oraz=117-152 taktlar-orazni kelishi

b)namudi Navo=155-189 taktlar-Navoni kelishi

#### **Talqini Bayot;**

Namudi Bayot) dunastraga o`xshash variantlar =82-226 taktlar Tarzida)-taktlar kelishi

#### **Nasri Bayot;**

Namudi Bayot( variantlar tarzida)=33-91taktlarbayotni kelishi

#### **Orazi Navo;**

a)namudi bayot=38-56 taktlar-bayotni kelishi

b)namudi Oraz(variantlar tarzida)=57-95 taktlar-Orazni kelishi

#### **Husayni Navo**

Dunast=50-76 taktlar-bir aktava yuqori kelishi

#### **Ufari Bayot**

Namudi bayot=44-77 taktlar-Bayotni kelishi

#### **Ikkinchi grupp sho`balari**

#### **S a f t i N a v o**

<sup>55</sup> Худойберганов С. Хоразм мақомларининг парда (лад) тузилишига доир айрим мулоҳазалар // Шашмақом сабоклари, 2 том.— Тошкент: 2005. —Б. 149.

<sup>56</sup> Boltayev R. Dutor maqomlari. —Toshkent: 2006. —B. 3-25.

Namudi Navo =79 -104 taktlar-Navoni kelishi

**Chapandozi Safti Navo**

Namudi Navo=163-208 taktlar-navoni kelishi

**Talqinchai Safti Navo**

Namudi navo=161-210 taktlar-navoni kelishi

**Qashqarchai Savti Navo**

Namudi navo= 80-107 taktlar-navoni kelishi

**Soqinomial Savti Navo**

Namudi Navo= 87-106 taktlar-Navoni kelishi

**Ufori Safti Navo**

Namudi Navo=86-114 taktlar-navoni kelishi

**II. M u g' u l c h a I N a v o**

a) Namudi Bayot=24-34 taktlar-Bayotni kelishi

b) Namudi Navo=34-50 taktlar-navoni kelishi

**Talqinchai Mug'ulchai Navo**

a) Namudi Bayot=57-83 taktlar-Bayotni kelidhi

b) Namudi Navo=83-119 taktlar-Navoni kelishi

**Qashqarchai mo'g'ilchai Navo**

a) Namudi Bayot=[35-45 taktlar-Bayotni kelidhi

b) Namudi Navo=46-58 taktlar-Navoni kelishi

**Soqinomial Mo'g'ilchai Navo**

a) Namudi Bayot29-40 taktlar-Bayotni kelidhi

b) Namudi Navo41-52 taktlar-Navoni kelishi

**Ufori Mo'g'ulchai Navo**

a) Namudi Bayot=48-61 taktlar-Bayotni kelidhi

b) Namudi Navo=62-84 taktlar-Navoni kelishi

**M ustahzodi n a v o**

a) Namudi bayot=72—14 taktlar

b) Namudi Navo =147—189 taktlar

**Talqinchaiy Mustahzodi navo**

a) Namudi bayot =42-66

b) Namudi Navo =66-84 taktlar

**Qashqarchai mustahzodi navo**

a) Namudi bayot=29-41 taktlar

b) Namudi navo =42-66 taktlar

**Soqinomial mustahzodi navo**

Namudi bayot =21-32 taktlar

Namudi navo =33-55 taktlar

**Ufari mudtahzodi navo**

a) Namudi bayot= 30-48 taktlar

b) Namudi navo =48-69 taktlar

**Ilova bayotlar**

**Bayot-I**

Namudi bayot1=50-226 taktlar

Namudi navo =227-229

## **Bayot-II**

Namudi bayot =49-102 taktlar

Namudi navo =13-135 taktlar

### **3.4. DUGOH maqomi**

#### **Birinchi grupp shobalari**

##### **Saraxbori dugoh**

a) Zebo pari =111-179 taktlar

b) Namudi muhayyari chorgoh =179-258

##### **Talqini Chrgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =89-174

##### **Nasri chorgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =49-78 t

##### **Orazi Dugoh**

Dunasr varianti

##### **Husayni dugoh**

Dunasr varianti

##### **Ufari Chorgoh**

Namudi muhayyari chorgoh =25-79 t

#### **Ikkinchi grupp shobalari**

##### **Savt chorgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =48-70 taktlar

##### **Talqincha Savti chorgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =88-133 taktlar

##### **Qashqarchaiy savti chorgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =45-67 taktlar

##### **Soqinoma Savti chorgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =45-68 taktlar

##### **ufori savti chorgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =48-70 taktlar

#### **II.Mug'ulchaiy Dugoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh=78-106 taktlar

##### **Talqinchai mug'ulchai dugoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh=127-180 taktlar

##### **Qashqarchai mug'ulchai dugoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh=66-94 taktlar

##### **Soqinoma Mug'ulchaiy dugoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh=66-100 taktlar

##### **Ufuri mug'ulchai dugoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh=65-91 taktlar

#### **III.Qalandari dugoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh=103-128 taktlar

#### **IV.Samandari dugoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh =91-120 taktlar

#### **V. Saraxbori Oromijon**

a) Namudi muhayyari chorgoh=81-134 taktlar

#### **Oromijon**

a) Namudi muhayyari chorgoh=117-161 taktlar

#### **UforiSaraxbori**

a) Namudi muhayyari chorgoh=78-106 taktlar

#### **VI.Chorgoh**

a) Namudi muhayyari chorgoh=78-106 taktlar  
variantlar

### **3.5. SEGOH maqomi**

#### **Birinchi grupp shu'balari**

##### **Saraxbori Segoh**

a) Namudi Segoh=91-142 taktlar

b) Namudi navo= 172-215 taktlar

c) Namudi Oraz =143-172 taktlar

##### **Talqini Segoh**

a) Namudi navo= 113-147 taktlar

b) Namudi Oraz =148-186 taktlar

##### **Nasri Segoh**

a) Namudi navo =47-60 taktlar

b) Namudi Oraz= 61-77 taktlar

##### **Navro'zi xoro**

a) Avji Zebo pari =34-49 taktlar

Zebo Pari ketidan V-VI chi xatlardadunasr shaklidagi melodik tuzilmalar keladi  
Ular Husayniy Navo shu'basini eslatadi bu yerda berilmagan mazhur ashula  
qismini namudi husayni navo deyiladi. I.Rajabiy

b) Namudi nasrulloi= 35-52 taktlar

##### **Navro'zi Ajam**

a) Avji Turk =53-80 taktlar

##### **Ufari Segoh**

#### **Ikkinchi grupp Shu'balari**

##### **Mug'ulchai Segoh**

a) Namudi Segoh =31-65 taktlar

b)Avji Turk= 66-95 taktlar

##### **Talqinchai Mug'ulchai Segoh**

a) Namudi Segoh =55-102 taktlar

a) Avji Turk =127-182 taktlar

##### **Qashqarchai mug'**

a) Namudi Segoh =31-65 taktlar

a) Avji Turk= 127-182taktlar

##### **Soqinomai mug'ulchai Segoh**

a) Namudi Segoh =41-62 taktlar

a) Avji Turk =81-108taktlar

##### **Ufari mug'ulchai Segoh**

Namudi Segoh= 60-75 taktlar

##### **Ilova**

### **Fig'on**

Avji Turk = -98-165 taktlar

### **Nimcho'poniy**

Namudi Segoh = 72-113 taktlar

Avji Turk = 133-183 taktlar

### **Ilg'or**

Avji Turk = 59-104 taktlar

## **3.6. IROQ maqomi**

Birinchi grupp Sho'balari

Saraxbori Iroq

a) Avji Zebo pari = 112-174 taktlar

b) Namudi muhayyari chorgoh = 175-248 taktlar

Muxayyari Iroq

a) Namudi muhayyari chorgoh = 40-68 taktlar

Ufori Iroq

a) Namudi muhayyari chorgoh = 28-40 taktlar

Chambari Iroq

a) Avji Zebo pari = 35-47 taktlar

ilova

Iroqi Toshkent

a) Namudi muhayyari chorgoh = 153-265-266-354 taktlar

Cho'li Iroq

a) Namudi muhayyari chorgoh = 120-182 taktlar

**Uchinchi bob bo'yicha xulosalar;** Oltita maqomdan birinchisi «Buzruk» nomi bilan mashhur bo'lib kelgan. Bu maqom haqidagi ma'lumotlar juda qadim zamondan beri, musiqa ilmiy risolalarida sharhlab kelingan edi. O'tmish olimlarining musiqiy risolalarida Buzruk muayyan lad tuzilmasini va unga mos kuy va ashulalarni ifodalagan. Buzruk maqomining jonli namunalarini bizgacha Shashmaqom tarkibidagi kuy va ashula yo'llari orqali ma'lumdir. Buxoro shashmaqomining 6 maqomdan iboratligi, bunda; **Buzurg, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq** maqomlari semantik talqini, tasniflanishining sho'balari tahlil misollarida o'z yechimini topdi. Ushbuda butun sho'balarning taktlardagi ijro kompozitsiyasi, maqomlarning nolanishidagi ma'no va tasniflanishi, doyra usullari majmuasining o'zga xosligi va qo'llanish sohasi, pardalardagi sozlanishlarda Tanbur va Dutor cholg'ularining notatsiyasi va ijrodagi bir-birovidan farqlanib borishi ayyon bo'ldi.

Buxoro shashmaqomining qo'llanishida, har bir maqomning qo'llanish mezonlari ham imkon qadar tahlil va qiyoslar bayonida ochib berildi.

Kelajakda yosh avlod tarbiyasida maqom yo'llari va undagi ijro tasniflarining xususiyatlarini o'rganish va o'rgatib borilishi davr taqozosi vazifalarimizga kiradi.

## IV-BOB

### 4.BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOMIDA BASTAKORLIK NAMOYANDALARI

#### 4.1-§. Buxoro Shashmaqomi ijrochilik namoyandalari.

##### *Buxoro- Samarqand milliy uslublarining namoyandalari misolida.*

##### **OTA JALOL NOSIROV (1845-1928)**

Ota Jalol 1845 yili Buxoroning Eshon pir mahallasida tug'iladi. O'zbek va tojik professional musiqa madaniyatining atoqli namoyondasi Ota Jalol (Jaloliddin) Nosirov XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshida yashagan taniqli musiqa arboblardan biridir. Maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov Shashmaqomning barcha sho''balari va tarona yo'llarini puxta bilardi. U shu sababli xalq orasida katta orbo' qozongan, ashula shinavandalarini o'zining keng diapazonli ovozi bilan maftun etgan ajoyib xonanda edi.

Buxoroda birinchi musiqa maktabi, Samarqandda musiqa bilim yurtining yuzaga kelishida Ota Jalolning xizmati katta. Usta Shodi Azimov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Boboqul Fayzulloev <sup>57</sup>kabi maqomdon xonandalar ham Ota Jaloldan ta'lim olishgan edi. O'zbek va tojik professional musiqa san'atining durdonalaridan Shashmaqomning yozib olinishi va saqlab qolinishida Ota Jalolning qo'shgan hissasi katta.

Ota Jalol nomini tilga olganimizda ustozlar ustози, Shashmaqomning donishmand bilimdoni murakkab usullar ustasi, ajoyib tanburchi va xushovoz xonanda ko'z oldimizga keladi. Shu sababli O'zbekiston va Tojikistonning turli vohalarida Ota Jalolning nomi hurmati bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, maqomdonlar tili bilan aytganda, u "ustoyi kulliy" edi. bui bora arabcha "Ustozul-




<sup>57</sup> Karomatov F., Elsner Yu. Makam I makom, kn: Muzika narodov Azii I Afriki. Vip . M., 1984, s. 91

kulliy” ya’ni hamma narsa(kuy)larni mukammal va to’kis-tugal biluvchi maqomdon ustozlarga nisbatan ishlatilardi.

### **HOJI ABDULAZIZ ABDURASULOV (1852-1936)**

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o’ziga xos ijrochilik uslubi, yorqin ijodiy yo’li orqali o’zbek va tojik kuylarini mohirona ijro etib, O’zbekistonda shuhrat qozongan hofizlardan biriga aylangandi. Abdulaziz Abdurasulov 1852 yilda Samarqandda tug’ilgan. Bola 9 yoshida maktabga boradi va 15 yoshiga qadar o’qiydi. 1867 yilda, otasining vafotidan so’ng Xaymardagi solihchining uyida kotiblik qiladi. Abdulaziz yoshlik *chog’idayoq* klassik shoirlar: Fuzuliy, Jomiy, Navoiy, Bedil va boshqalarning ijodi bilan tanishadi. O’rtoqlari bilan musiqachi, ashulachi va shoirlar ishtirok etadigan kechalarga tez-tez borar, Ramazon oyida Samarqandga kelgan atoqli Buxoro musiqachilarining ijrolarini tinglar edi. Abdulazizning shu vaqtlardan boshlab musiqaga bo’lgan havasi yanada oshadi. Mashhur tanburchi Xo’ja Rahimquldan tanbur chalishni o’rgana boshlaydi. Uning tanbur chalishni o’rganishga ishtiyoqi tasodifiy emas edi. Otajalol, Otag’iyos, Tillaboy va maqomlarni ijro etuvchilar ashulani tanburga jo’r bo’lib aytardilar. Samarqandga kelib turadigan ashulachi va sozandalar ularning shogirdlari yoki doimiy tinglovchilari edi. Uch-to’rt yil davomida Xo’ja Rahimberdidan dars olgan Abdulaziz o’sha davrning mashhur ashulachisi Boruh bilan birga ashula aytadigan bo’ldi. Boruh o’zbek va tojik ashula san’atini, “Shashmaqom”ni yaxshi bilardi va yoshi o’tib qolgan bo’lsa-da, ashulani yaxshi aytardi.<sup>58</sup> Abdulaziz Boruh bilan birga O’zbekistonning shahar va qishloqlarida bo’ladi, asta-sekin uning cholg’u chalish va ashula aytish san’atini ham o’rganib oladi. U “Shashmaqom”ning safti va uforlarini, “Mushkulot”ning cholg’u bo’limidagi keng tarqalgan qismlarinigina aytar edi. Keyinchalik u “Shashmaqom”ni mukammal o’rganishga, kuyning tuzilishini, qismlar o’rtasidagi munosabatlarini, tartibini tushunib olishga va avjlardan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsad bilan Abdulaziz 1880 yilda maqomlarning mashhur musiqachilari yashagan Buxoroga jo’naydi va u yerda Otajaloldan “Shashmaqom”ni o’rganib oladi.



### **LEVI (LEVICHA) BOBOXONI BUXORIY**

#### **XVIII-asr oxiri va XIX asr birinchi choragi**

**Buyuk va yirik Shashmaqom ustози, tanburi dilkash va uch karrat noxun tilloi sharqzamin sohibi, Levi (Levicha) Boboxoni Buxoriy XIX-asr boshlarida**

<sup>58</sup> V.Uspenskiy Nachalo sovremennoy izucheniya “shashmaqomq” v Buxare. 1926 yil. 48-54 betlar

**Buxoro Amiri Sayyid Olimxonning saroyida sozandalarning ansambl rahbari va shaxsan Amirning sevimli Hofizi Quroni, otashnafas xonanda va sozandasi, tanburi dilkash ijrochisidan biri bo'lgan. Uning nevarasi Ari Boboxon tomonidan Bobosining sandiqida saqlanib kelingan buxoro ajdodiy san'ati "Shashmaqom", qo'lga kiritilib, Ari Boboxon tomonidan unutilgan ayrim maqom ijrochiligining asliy nushasi yanada tiklandi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti tomonidan ari Boboxonovga maktub yuborib, uni "Hamdo'stlik ordeni"<sup>59</sup> bilan taqdirlandi.**

#### **4.2-§. Xorazm maqomi ijrochilik namoyandalari.**

1891 yili Xivada Komil Xorazmiy tashabbusi bilan birinchi rus-tuzem maktabi ochildi. Ushbu o'quv muassasasi ikki sinfdan iborat bo'lib, o'quvchilarga diniy va dunyoviy bilimlar o'rgatish hamda axloqiy tarbiya berish bilan bir qatorda, musiqa ilmi asoslarini o'rganishga ham katta ehtibor berilgan.

Muhammad Yusuf Devonzoda ustoz tashabbusi bilan 1923 yilda Xivada musiqa maktabi tashkil qiladi. 1928 yili Samarqadda ochilgan musiqa va xoreografiya institutida Xorazm uslubidan tahlil beradi.

#### **Pahlavonniyoz mirzaboshi Komil Xorazmiy (1825-1899).**

Pahlavonniyoz mirzaboshi timsoli XIX asr Xorazm musiqa tarixida Niyozjon xo'jadan keyingi ikkinchi buyuk shaxs bo'lib gavdalanadi. Pahlavon mirzaboshi "Komil" taxallusida she'rlar yozgan. Adabiyot ahli orasida u ko'proq Komil Xorazmiy nomi bilan tanilgan.

Davr taqozosiga ko'ra Komil Xorazmiy yangi avlodga ko'proq shoir sifatida tanilib keldi. Uning musiqa borasidagi xizmatlari ham ko'p tilga olinsa-da, allomaning bu sohadagi jahonshumul ishlari hali yetarli darajada ilmiy tadqiq etilgan emas. Vaholanki, zamondoshlari Pahlavonniyoz mirzaboshini, eng avvalo, musiqiyshunos tarzida e'zozlaganlar. Komil Xorazmiyning kichik zamondoshi Hasanmurod Laffasiy o'zining "Tazkirai shuaro"sida unga bag'ishlangan masnaviysini shunday misralar bilan boshlaydi:



**Komiliykim musiqiyshunos,  
Jahonda yo'q monandu qiyos.  
Ki abyotidin erur xush adib,  
Ki she'rlaridur ajab bir sharif<sup>60</sup>.**

Bunda "musiqiyshunos" va "qiyos" nafaqat qofiya, balki chuqur ma'no va hayotiy haqiqat bilan to'ldirilgan so'zlardir. Darhaqiqat, Komil Xorazmiyning soz san'atidagi o'rni o'z ko'lami va mohiyatiga ko'ra Xo'ja Abdulqodir Marog'iy, Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali, Niyozjon xo'ja kabi musiqa sohasidagi ulug' mavlonolarni eslatadi.

<sup>59</sup> Sovremennik -№ 3//.Tashkent-2005 yil 8bet.

<sup>60</sup> Лаффасий. Тазкирай шуаро. Урганч, 1992. –Б. 19.

Pahlavonniyoz yoshligidan mukammal musiqiy ta'lim olgan va bu fanning ilmiy hamda amaliy sohalarida yuksak cho'qqilarga erishgan. U dastlabki musiqiy mashg'ulotlarni o'z tog'asi Abdusattor mahram va uning shogirdi Xudoybergan etikchidan o'rgana boshlagan.

Pahlavonniyoz hofizlik ta'limini ham olgan va xushovoz xonanda sifatida elda e'tibor qozongan. Yuqorida aytganimizdek, zakiy san'atkor haqida so'z borganda, uning bu fazilati pisand qilinmasdan, zamonasozlar tomonidan deyarlik tilga olinmay kelinardi. Vaholanki, hofizlik mumtoz maqom san'atining eng ma'muliy va ustuvor tarafi. Xonandalik bilan barobar Pahlavonniyoz tanbur, g'ijjak, chang sozlarida ham mahorat sohibi sifatida dong taratgan.

Musiqiy ixtisosning eng oliy bosqichi – ijro etayotgan kuy va ashulalarning ma'no-mohiyatini idroklash, ularning qa'ridagi tartib va nizomlardan ogoh bo'lishdir. Amaldagi musiqiy navlarga ongli ravishda yondashish esa Musiqashunoslik deb e'tirof etiladi.


Maqomlarning yana bir tub xususiyati mumtoz she'riyat bilan uzviy bog'liqdir. Har bir e'tiborli hofiz va sozanda she'riyatdan xabardor bo'lishligi taqozo qilinadi. Ayrim hofizlar she'rshunos darajasiga yetib, o'zlari g'azal va muxammaslar ijod qilgan paytlari ham kam emas. Lekin Komil Xorazmiy kabi musiqiy va she'riyat ilmlarini barobariga mukammal egallagan ijodkorlar sanoqli. Zamondoshlari uning shoirlik salohiyatiga ham juda yuqori baho beradilar. Jumladan, Komil Xorazmiyning ixlosmandi zamondosh shoirlardan biri Rojiyning shunday bayti mavjud.

So'z kamolidin Rojiy ogoh ersa tong yo'qkim,  
Bor anisi damsozi Ogahiy bila Komil<sup>61</sup>.


Komil Xorazmiy ijodida so'z va soz san'atlarining uyg'unligi uni haqiqatdan ham beqiyos musiqiyshunos deyishga asos beradi. Ana shunday yetuk musiqashunosgina soz va so'z mushtarakligida taraqqiyot topadigan maqomlarni yangi ufqlarga chorlashga qodir edi.

Komil Xorazmiyning elda katta obro' qozonib, davlat rahbarining nazariga tushishi, uning nufuzini yanada oshirdi va maqom allomasi darajasiga ko'tardi. Shu tariqa Pahlavonniyozning serqirra iste'dodi kamol topib, u yetuk musiqiyshunos va zabardast shoir sifatida shuhrat qozondi. Ijodining eng yuqori cho'qqisi Tanbur chizig'i ixtirosi bilan tugallandi. Zamonasining maqom ilmiga havas qo'ygan aslzoda va ziyolilari undan ta'lim olishga intildilar. Nufuzli ustoz Komil Xorazmiy maktabida yetishgan musiqashunos, xonanda va cholg'uchilar Xorazm maqomlarining izchil taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ularning ko'pchiligi atoqli namoyandalar bo'lib yetishdilar. Pahlavon Mirzaboshi asos solgan maqom shajarasining umumiy tarhini quyidagicha ifodalash mumkin:

### PAXLAVONNIYOZ MIRZABOSHI (1825-1899)



<sup>61</sup> Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. –Тошкент: 1967. –Б. 82.



### **Muhammad Rahimxon II Feruz (1844-1910).**

XIX-asr Xorazm tarixida musiqaga ixlos qo'ygan xonlar ko'p bo'lgan. Xususan, – “1844-1853 yillar taxtda o'tirgan Muhammad Aminxon musiqiyga shu darajada havasli bo'lib, yuqorida otlari yozilgan musiqashunoslardan murakkab majlislar yasatur edi. Buning zamonida Abdusattor mahramdan Usto Xudoybergan etikchi, Usto Xudoybergan etikchidan Pahlavonniyoz mirzaboshi Abdullo Mufti o'g'li mutaxallis bil-Komillar Shashmaqom nag'malarini butunilan ta'lim oladurlar”<sup>62</sup>.



Muhammad Aminxonning o'g'li Abdullaxon va nevarasi Kutlimurodlar ham musiqiy mashg'ulotlarga katta e'tibor berganlar. Abdullaxonning o'zi g'ijjak va tanbur chertishni bilgan. “...Sayyid Muhammad 1855 yili Qutlimurodxon o'rniga xonlikka gechib tomom to'qqiz yil muddat xonlik qiladir. Muning zamonida Xorazm o'lkasi biroz tiklanmoqqa boshlaydur. Muning natijasida xalq va xonda musiqiyga yaqinlashmoqqa boshlaganliklari ko'rinadur. Bu xonni o'zi ham dutor, g'ijjak sozlarini chertmakka oshno erdi. Tez-tez yuqoridagi musiqiyshunoslardan bazm majlislari qurdirar erdi”<sup>63</sup>.

Sayyid Muhammadning ham Xiva yaqinida ko'ngil ochar bog'lari bo'lib, u yerlarda nufuzli soz bazmlari tashkil etilgan. “Tarixi xijriy 1273/1856-57 yillarda hazratning... O'zining ikki yerdagi mulki mavrusi va mazraayi maxsusidakim, biri Xiva shahrining janubiy tomonida Angarik mavze'ida va biri sharqiy tarafida Gandumkon qariyasida voqe'dur” - deyiladi Ogahiyning “Gulshani davlat”ida<sup>64</sup>. Ana shu boqlar Saidmuhammadxonning shohona aysh va nishot bazmini tuzib, mulkona tarab va istirohat oladigan maskanlari bo'lgan<sup>65</sup>.

<sup>62</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода Хоразм мусикий тарихчиси. Тошкент: 1998 –Б. 10.

<sup>63</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода Хоразм мусикий тарихчиси. Тошкент: 1998 –Б. 11.

<sup>64</sup> Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. –Тошкент: 2002. –Б. 116.

<sup>65</sup> Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. Тошкент: 2002. –Б. 116.

Sayyid Muhammadning o'g'li Muhammad Rahimxon II ning adabiy taxallusi Feruz bo'lib, nafaqat Xorazm, balki barcha o'zbek xonlari orasida, o'zining izchil musiqiy faoliyati bilan alohida o'rin tutadi. Uning sozparvarlik ishlari "Xorazm musiqiy tarixchasi"da quyidagicha baholanadi:

– "1864 (1281 hijriy) yili Sayyid Muhammadxon o'rniga galgan Muhammad Rahimxon soniy musiqiy ilmina cho'ng darajada havasli bo'lib, musiqiy ishlari muning zamonasida butun-butunicha boshqa bir hol kasb etadur. Burundan xalq orasida ozroq istanilgan musiqiy ishlar ortiqmoch bir suratda tarqaladur va milliy nag'malarni vujudga chiqmoqina imkoniyat yaratadur. Xususi mutaxassis musiqiyshunoslar durab (yaralib) shashmaqom nag'malarining mushkilot, tasnif qismlari ayricha ahamiyat kasb etib, mushkilot bila tasnif qismlarina ta'lluqli shashmaqom nag'malari burungi holidan hiylich o'zgarib, necha qo'shimchalar qo'shilib, yamaladur"<sup>66</sup>.

Adabiyot sohasida Feruzning piru ustozlari Ogahiy bo'ldi. Soz ilmida unga zamonasining birinchi musiqashunosi va maqomdoni Komil Xorazmiy rahnomolik qildi. Komil Xorazmiyning musiqiy salohiyati Muhammad Rahimga katta ta'sir ko'rsatdi. U xon martabasida bo'lishiga qaramasdan musiqiyning ilmiy va amaliy asoslarini puxta o'zlashtirishga jur'at etdi. Natijada uning asoslarini chuqur tushunadigan musiqiyshunos, mumtoz maqom uslubiga mos kuylar ishlashga qodir bastakor, maqom yo'llarini me'yoriga yetkazib ijro eta oladigan san'atkor bo'lib yetishdi. Feruzning bevosita musiqiy muallimi Komil Xorazmiyning o'g'li Muhammad Rasul Mirzo bo'lganligi manbalarda qayd etiladi.

Bu esa el orasida bilim va malakalarga ega sozandalarga bo'lgan talablarni yanada oshirib yubordi. Xon, to'ra va boshqa e'tiborli zotlarning sozanda va go'yandasi bo'lish o'ziga xos martaba hisoblanib, ularning moddiy va ma'naviy rag'batlanishiga sabab bo'ldi. Ulug' zotlar homiyligida moddiy ta'minlanishdan tashqari, ixtisosli sozandalarga doimiy ravishda malaka oshirish hamda tinimsiz ijodiy izlanishda bo'lish imkoniyatlarini yaratdi.

Shohona soz bazmlari o'tkazishga mo'ljallangan maxsus "Kibla Tozabog'" koshonasi qurildi. Bu anjumanlarning o'ziga xos tartib va nizomlari joriy etildi. Xon Feruzning musiqiy anjumanlaridan ibrat olib, butun Xorazm bo'ylab sozparvarlik avj olib ketdi.

Feruz iqtidorli sozanda, xonanda va musiqiyshunoslarni o'z atrofiga to'plashga intildi. Xonning xususi sozandasi bo'lishlik sharaflari va ayni chog'da juda mas'uliyatli. Ixtisosli sozanda doim tobida bo'lishligi taqozo etiladi. Ular bir-biridan ilhom olishga, bir-biridan o'zishga harakat qilishi san'at taraqqiyoti uchun tabiiy hol. Sozanda va musiqashunoslarni bir yerga to'planishidan, mumtoz musiqa rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijod jarayoni yuzaga keladi.

**Matyoqub Xarrot (1865-1939).** Bu zot Xorazm maqomlari va unga vobasta nota ilmi sohasida yetuk ustoz va murabbiy sifatida namoyon bo'ladi. Uning hayoti va ijodi Feruz zamonida shakllangan. Xorazm mumtoz maqom maktabini bizning davrlargacha yetib kelishida yuz bergan qiyinchiliklar, to'sqinliklar va iymoni

<sup>66</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода Хоразм мусиқий тарихчиси. Тошкент:1998 –Б. 11.

butun san'atkorlarni fidokorona intilishlarini o'rganish nuqtai nazaridan juda muhim.<sup>67</sup>

O'sha davrning ko'zga ko'ringan xattotlaridan biri bo'lmish Muhammad Yoqub xarrot Qurbonniyoz xarrotning o'g'li bo'lib, Komil Xorazmiyning eng yaxshi shogirdlaridan biridir. Matyoqub Xarrot Komil Xorazmiy oldida xat va savodini chiqargandan keyin musiqiy ta'lim olish ishiga kirishadi. U Xorazm maqomlarini mukammal o'rgangandan keyin o'g'li Chokarning aytishiga qaraganda, maqomlarni Xorazm tanbur chizig'i asosida ko'chirib chiqadi.



San'atkor umrining so'nggi 20 yili sho'rolar zamoniga to'g'ri keldi. O'tgan asrning 20 yillarida u Xivada tashkil etilgan musiqa maktabida murabbiylik qilib, Xorazm notasi asosida maqom ilmini yoshlarga o'rgatishda jonbozlik ko'rsatdi. Keyinchalik u Xiva va Urganch teatrlarida sozanda bo'lib ishladi.

1934 yilda San'atshunoslik ilmiy-tekshirish instituti tomonidan Xorazmga ekspeditsiya hozirlandi. Shunda Yelena Romanovskaya va Ilyos Akbarovlar tomonidan atoqli san'atkor ijrosida Xorazm maqomlari fonografga yozib olindi. Matyoqub Xarrot Toshkentda bo'lgan paytida Buxoro va Farg'ona-Toshkent vodiylaridan to'plangan maqom ustozlari bilan tanishishga muyassar bo'ladi. Safar vaqtida u taniqli shoir Abdulhamid Cho'lponga o'z ijodiy faoliyati va Xorazm musiqasi tarixiga oid ma'lumotlarni gapirib bergan. Ana shu fikr va mulohazalarga asoslanib, Cho'lpon "Ota-bola san'atkorlar" maqolasini e'lon qilgan. Unda 70 yoshni qoralagan Matyoqub Xarrot tom ma'nodagi ustoz san'atkor va maqom ilmini jonli kitobi sifatida gavdalanishi Cho'lpon tomonidan alohida ta'kidlanadi<sup>68</sup>.

San'atkordan bizga meros qolgan ikki jildlik Xorazm maqomlarining nota kitobi muzkur sohaga tegishli eng nodir manbalardan biridir. Ular nihoyatda puxta ishlangan nusxalar. Kitobatning 1301 hijriy (1883) yilda tugallangan birinchi jildi urf etilgan mumtoz udumlarga ko'ra to'la-to'kis cholg'u qismlariga bag'ishlangan. Keyingi 1302 (1884) yilda tamomlangan ikkinchi nusxasida ashula yo'llari so'z matnlari bilan berilgan.

Ashula yo'llari bitilgan boshqa qo'lyozmalardan farqli ravishda Matyoqub Xarrot nusxasida besh maqom Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Buzruk boshdan-oxir so'z matnlari bilan yozilgan. Nota kitoblari hozirlanayotgan paytda Matyoqub Xarrot navqiron 19-20 yoshlarida bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, kitoblar mazmunidagi kuy va so'z matnlarining puxta xatga tushirilganligi uning musiqashunoslik ilmini yaxshi o'zlashtirganligidan dalolat beradi.

**Komil Devoni** (1887-1938). Muhammad Komil Mullo Ismoil o'g'li adabiy taxallusi Devoni. Uning



<sup>67</sup> A. Tursunov. bastakorlik ijodiyoti. / Toshkent; 2—3 yil 78-79 betlar

<sup>68</sup> Мухамедова Б. Миллий музыка муаммолари XX аср маърифатчилари назарида // Шаҳмақом сабоқлари (биринчи тўплам). Тошкент: 2005.—Б. 72-79.

bobosi Muhammad Panoh o'g'li Xivaning atoqli to'p quyuvchisi, qurol aslaha ustasi, naqqosh, xattot, musiqiy va adabiyot ilmlariga havasli ma'rifatli kishi bo'lgan. Muhammad Panohning ikki o'g'li Xudoybergan Muhrkan va Mullo Ismoilar mohir hattot, naqqosh va ayni chog'da maqomshunoslik va nota ishlariga peshqadam ustozlar sifatida dong taratganlar.

Muhammad Komil yoshligidan ana shu ota-bobolaridan meros bo'lib kelayotgan amaliy san'atlar, adabiyot va musiqa muhitida tarbiya topgan. Undagi adabiyot va musiqiyga bo'lgan yorqin iste'dodni his qilgan otasi Mullo Ismoil o'g'liga muntazam savod ta'limi hamda musiqiy-adabiy ko'nikmalarni o'rgata boshlagan. 1900-yil 13 yoshida otasidan yetim qolgandan keyin u amakisi Xudoybergan Muhrkan qo'li ostida tarbiyalangan va tilga olingan amaliy, hamda badiiy san'atlarni ildam o'zlashtira boshlagan.

Komil Devoniy yoshligidan iqtidorli shoir, zakiy musiqashunos, tanbur, dutor va g'ijjak asboblarining mohir ijrochisi, husnkor naqqosh, muhrkan, qurolsoz, zargar, musiqiy asboblar yasaydigan usta bo'lib elga tanildi.

Ayni shu chog'da matbuotda Xorazm notasi xususida xushxabarlar tarqala boshladiyu, peshqadam ma'rifatchilar tanbur yozuviga katta umid bog'lab, uni butun musiqiy ta'lim tizimiga joriy etish masalasini o'rta tashladilar. Niyoziy, G'ulom Zafariy (1889-1938), Cho'lpon, Fitrat kabi ma'rifatparvarlar Xorazm notasini tarixiy va nazariy tamoyillarini o'rganish hamda uni ilmiy doirada tarqatish yo'l-yo'riqlarini izladilar<sup>69</sup>. Mazkur ma'rifiy ehtiyojlarni chuqur his qilgan ustoz va murabbiy Komil Devoniy safdoshlari Xudoybergan Muhrkan va Muhammad Rasul Mirzo boshlab bergan nota ta'limini yangi sharoitlarda kengroq iste'molga jalb etish ustida bosh qotirdi. Uddaburon va zakiy san'atkor oldingi ustozlar yecha olmagan muammoga qo'l urib, Xorazm Dutor maqomlarini xatga tushurishga bel bog'ladi.

Mutaxassislarning guvohlik berishicha, dutor nag'malarini notaga olishda o'ng qo'l harakatlari – zarblarini ifodalash chigal to'siq bo'lganligini tilga oladilar. Xususan, Xivaning bosh dutorchisi Mullo Muhammad Sharif - Qambar bobo Dutor maqomlarini Tanbur maqomlariga o'xshatib kitobat qilishga ancha uringan bo'lsa-da, aynan shu zarblarni belgilash yo'lini topolmasdan masalani ochiq qoldirgan edi.

Komil Devoniy esa barobariga mohir tanburchi va dutorchi, shuningdek, Tanbur va Dutor maqomlarini puxta o'zlashtirgan musiqashunos bo'lganligi uchun dutor nag'malarini ham yakka zarb yo'lida tasavvur etish mumkin, degan qarorga keldi. Natijada urf etilgan Dutor maqomlarining kuy izmini mazkur ahvolda faraz qilib, kuy tuzilishini tanbur pardalariga muvofiqlab yozib chiqdi.

Olti yarim maqom bilan barobar ma'muliy Dutor maqomlarining xatga yozib tartib etilishi Xorazm sozandalarini tanbur notasi ixtirosidan keyingi muhim ijodiy yutug'i bo'ldi.

Komil Devoniy Dutor maqomlarining kuy izmi, so'z matnlari, usul asoslari, musiqiy tuzilmalarini belgilab, ikki marta yozib oldi. Birinchi safar o'ziga xos qoralama va noma shaklida Komil Devoniy dastxati bilan bitilgan Dutor

---

<sup>69</sup> Икромов И. Миллий муסיқамиз хусусинда // Ер юзи журнали, 1928.

maqomlarining o'rama-noma shaklidagi yozuvi 2004 yilda Matyusuf Xarratov arxiv qog'ozlari orasidan chiqdi.<sup>70</sup>

Ikkinchi marta Komil Devoniy Xorazm Tanbur va Dutor maqomlarini bir butun kitobat ahvolidan mukammal nusxa qilib ishladi. Bu Prezident Islom Karimov O'zbekiston Davlat konservatoriyasiga taqdim etgan hamda mazkur tadqiqotimizning asosini tashkil qiluvchi nodir qo'lyozmadir.

Komil Devoniy 1937 yilning kuz oylarida bo'lmag'ur ayblar bilan qamoqqa olindi va 1938 yilning 10 fevralida uchlik (troyka) qarori bilan qatl qilindi.

Benazir shoir va san'atkorning jo'shqin faoliyati ana shu tarzda fojeali to'xtatildi. Komil Devoniy adabiyot va musiqa sohasida juda boy meros qoldirdi.

Uning ko'plab she'rlari xalq og'ziga tushib hofiz va go'yandalar dasturida yashab kelmoqda. Talay qismi esa parokanda lavhalar sifatida mahalliy matbuotda nashr qilingan.

Maqomlar ijrochilari haqida gap borganda qat'iy bir yetuklik mezonini topish juda qiyin, albatta. XX asrda yetishib chiqqan, Xorazm maqomlarini mahorat bilan ijro qilib, ustoz sifatida el-yurt hurmatini qozongan Hojixon Boltayev (1902-1987), Nurmuhammad (Nurmamat) Boltayev (1911-1974), Komiljon Otaniyozov (1919-1975), Matniyoz Yusupov (1924-1992), Ollanazar Hasanov (1914-1997), Ro'zmat Jumaniyozov (1933-2002), Ikrom (Ozod) Ibroximov (1937-2007) kabi ustozlar qatorida hozir ham o'zlarining maqom ijrolari borasida yoshlarga ustozlik qilayotgan Matnazar Xudoynazarov (1940 yilda tug'ilgan), Ozod Bobonazarov (1947 yilda tug'ilgan), Matrasul Matyoqubov (1958 yilda tug'ilgan), Farhod Davlatov (1958 yilda tug'ilgan), Rahmatjon Qurbonov (1958 yilda tug'ilgan)<sup>71</sup> singari ustozlar faol ijod bilan shug'ullanib kelmoqdalar.

Bugungi kunda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritayotgan yangi avlod sozandalar qatorida jiddiy ijodiy intilishlari bilan e'tibor topayotgan maqomchilar mavjud. A.Otajonov, O'.Alloberganov, O.Sobirov, X.O'rinova, G.G'oyipova kabilar. Bundan tashqari, eski maqom markazi bo'lmish Xorazmning chekka tumanlarida hali nomlari uncha tanilmagan, lekin jiddiy intilish kurtaklarini namoyish etayotgan xonanda va sozandalar ham oz emas. Yosh avlodning mumtoz merosga nisbatan qizg'in intilishi barhayot maqom an'alarining kelajak ufqlaridan darak beradi.

#### **4.3-§. Umumta'lim maktablarda iqtidorli o'quvchilarga Shashmaqom va maqom uslublarning nazariy va amaliy tasniflarini o'rganish to'garagini tashkil etish uslubiyoti.**

Yettinchi sinfda musiqa o'qitish jarayoni yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumilashadi. Ayniqsa, musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, yangi

<sup>70</sup> Matyoqubov O. R. Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish. T., O'qituvchi, 1983, b. 7-9 bb.

<sup>71</sup> Buniyatov M. Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushtegini-tov.- M.: Goslitizdat, 1983.- 144 s.

qo'shiqlarni mustaqil o'rgatish, hayotimizdagi musiqa faoliyatiga aktiv katnashishga o'rgatib borish ishi nixoyasiga yetadi.

7-sinf o'quvchilari fiziologik-psixologik xarakterga ko'ra diqqat e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ovoz shakllanishi notekis bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish hikoya tuzish, musiqaqa doir albom, referatlar, sinf burchaqlari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin. Shuningdek, mashxur bastakorlarga doir albomlar tayyorlashni ham topshirishi mumkin. Vokal-xor ishlari: qo'shiq o'rgatish jarayonida ularni ovozlarini asrab tarbiyalash ishi murakkablashadi. Chunki, bu yoshda mutatsiya davri kuchayadi. Ayniqsa, o'g'il bolalarda ovoz boylamlari yo'g'onlashib, ovoz registri bir oktavaga pasayadi. Natijada o'quv va ovoz o'rtasidagi koordinatsiya buzilib, ba'zan bolalar intonatsiyasini aniq kuylay olmaydilar. Bunday paytda o'qituvchi kuylash uchun qo'lay yo'llarini tushuntirishi kerak.

Ovozni toliqtirmasdan erkin, ravon kuylashga o'rgatishi kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun sayin o'zgarish ro'y beradi. Buni hisoblab olib ovoz partiyasini ko'paytirish lozim. Yoki ovozlarni transpartirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim. Ovoz diapazoni birinchi ovozlarda ( $D0^1-Mi^2$ ) - 2-ovozlarda esa - (Si kich- $Re^2$ )gacha bo'ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to'g'ri taksimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo'shiqlar qahramona, lirik, estrada, o'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lsa, o'quvchilarda o'rganishga qiziqish uyg'otishi lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni solist yordamida ham o'rgatish mumkin. Ashula aytganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur.

Yettinchi sinflarda musiqa savodini oldingi bilimlarga tayanib, notaga qarab kuylash, intervallar, o'lchovlar, dinamik belgilar, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab o'tib, musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinglangan musiqiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. Chunki, darsning asosiy qismi tinglash jarayonida o'tadi.

Xalq qo'shiqlari, maqomlar, mumtoz xalq musiqasining ma'naviy uslubi kabi bilimlarga ega bo'lishlari va mustaqil fikr yuritish olishlari kerak. Musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, musiqani tuzilishi, musiqa adabiyot savodi bilan, yangi qo'shiqlar bilan tanishtirish, ularni hayotimizdagi ahamiyati haqida bilimlarni o'rgatish nixoyasiga yetadi. Chunki, 7-sinf o'quvchilarini dunyo qarashi rivojlangan bo'ladi, ammo ovoz apparatlarini shakllanishi notekis bo'ladi.

Ularga mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaqa doir referatlar, sinf burchaqlar, tadbirlar o'tkazish va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Kulliyotning oily maqom bilan bog'lanishida davom maqomlar yaratilib, bunda, yana Xoja Abdulqodirdan rivoyat qilinib, u o'zining "botin idroki" va "fahmi zohiri" bilan mazkur 8 maqomga yana to'rttasini Isfahon, Buzruk, Kuchak

va Husayniylarni qo'shganligi bayon etiladi. Maqomlarning yuzaga kelishi masalasi munosabati bilan Darvesh Ali Mavlono Kavkabiylar nomidan ilmi-advor ta'limotining muhim va chigal nuqtalardan birini tushuntiradi. U ham bo'lsa, butun maqomot tizimining tadrijiy rivojlanishida asl parda va sho''balarning nomlari, tartibi va ularning ma'no-mazmuni bilan to'ldirilishi turlicha bo'lganligini e'tirof etilishidir. Bu urf-odatni inobatga olish maqomlar tarixi hayot ehtiyojlariga qarab, o'zgarib boradigan jarayon ekanligini idroklashda, juda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda: **«Darvesh Ali Aflotun zamonlarida taraqqiy topgan fazoviy (kosmologik) qarashlarga ko'ra, 12 maqom falak burjlari Rost-Hamal, Isfahon-Savr, Iroq-Javzo, Kuchak-Saraton, Buzruk-Asad, Hijoz-Sumbula, Busalik-Mezon, Ushshoq-Aqrab, Navo-Qavs, Husayniy-Jadiy, Zangula-Dalv, Rahoviy-Hutdan taralganligi qayd etilganini talabalarga yodga saqlash uchun bular misolida yoritib berish.**

Undan keyin yana hayotiy voqealarga qaytib, ustozlar o'z bilim va mahoratlarini ishga solib, har bir maqomning yuqori va pastki bo'lagini ajratib, ikki sho''ba, ikki maqomni qo'shilishidan bir ovoz va ikki ovozni birlashtirib, bir rang qilganliklari tushuntiriladi. Ya'ni ushbu davr olimlarining ilmiy qarashlaridan kelib chiqib 12- maqom Buxoro ajdodiy san'ati bo'lmish "Shashmaqom"ga aylana borgan.

O'zbekiston Respublikasi o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishining porloq yo'liga qadam tashlaganiga ham 23 yil bo'ldi. Mustaqillikning ana shu yillari ichida iqtidorli yoshlarni izlash, ularni tabiiyalash va iste'dodini oshirish davlatimiz oldidagi eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib keladi.

Shunday ekan, maktabda ishlaydigan har bir o'qutuvchining eng asosiy vazifasi-ijodiy izlunuvchan, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega yoshlarni aniqlash, ular bilan alohida shug'ullanishi va iste'dodlarni oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, 1-sinfqa qadam qo'ygan jaiji bolajonlarning 60 foizida turli qobiliyat nishonalari namayon bo'lar ekan. Ho'sh iqtidorli o'quvchi kim? Uni boshqa tengdoshlaridan qanday ajratish mumkin?

Quyida e'tiboringizga maktab o'quvchisi shaxsining iste'dodini shakllanganlik darajasini ko'rsatuvchi xislatlari keltiriladi.

**O'quvchining yangiliklarni amaldiyotga qo'llashdagi idoraviylik xislatlari:**

- o'quvchi shaxsining maktabdagi faoliyati ko'p qirralari;
- ilm olish, o'qish jarayonida sabr toqatli bo'lish; to'garak va ilmiy jamiyattning faol ishtirokchisi bo'lish, fan yangiliklari haqida ma'lumot berish;
- mutaqil fikrini baralla bildira olish;
- egallagan bilimlarni o'z ishida, turmushida ongli ravishda qo'llay bilish;
- darslikdan tashqari adabiyotlar bilan mustaqil shug'ullanish, bu adabiyotlardagi ilmiy tushuncha va g'oyalarning mahiyatini tushuna bilishlik;
- o'qigan matndagi g'oyalarni erkin va tez bayon qila olishlik;
- o'rtoqlarni ilmiy-ijodiyotga targ'ib eta olishlik;
- o'z fikriga tanqidi yondasha olishlik;

**O'quvchining ma'naviy barkamollik va mehnatsevarlik xislatlari:**

-mutaqil ravishda ishlash va o'ylash qobiliyatga, o'z ishini rejalay olish va tashkil qila bilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

-o'quvchi shaxsidagi poklik, to'g'rilik;

-o'z ijodiy faoliyatini rejalashtira olishlik;

-javobgarlik xissi o'ta rivojlangan bo'lishi;

-adolatparvar bo'lishi;

-sinf va maktab uchun zarur bo'lgan topshiriqlarni bajonidil bajarilishi;

### **O'quvchining individual shaxsiy xislatlari:**

-o'qishdan tashqari tashkil qilinadigan tadbirlarda faol qatnashish;

-diqqatni talab qiluvchi o'yinlardagi qiziqishi;

-xorijiy tillarni o'rganishga intiluvchanlik;

-komp'yuter texnikasi bilan erkish va muntazam shug'ullanishlik, zamonaviy axborot texnologiyachi haqida tushunchaga ega bo'lishi;

-kitobni jondan sevis;

-o'quvchi shaxsida so'z boyligi miqdori kata bo'lishi;

-o'quvchi shaxsidagi o'ziga ishonch va ijodiyatning o'sish sur'ati;

### **Ijodkor o'quvchini aniqlash bosqichlari**

1-bosqich tahliliy bosqich-ta'limning boshlang'ich pog'onasi (1-4 sinflar)

2- bosqich-diognastika tashxis qo'yish, o'quvchilarda qobiliyat va iste'dodni aniqlash (5-9 sinflar)

3- bosqich-yuqori sinflarda (10-11 sinflar) o'quvchilardagi aniqlanilgan ijodkorlik qobiliyatlarini yanada chuqurroq va to'laroq o'rganish.<sup>72</sup>

Avvalo o'quvchining dunyoqarashi keng bo'lishi uchun gumanitar yo'nalishdagi fanlarni chuqur o'rganishi, shuningdek, estetik yo'nalishdagi, jumladan, tarix, adabiyot, musiqa, rasm, qo'shimcha ta'lim singari fanlar integrasiyasidan foydalanish yo'li bilan ko'p axborotga ega bo'lishi, uni to'g'ri va to'liq, har tomonlama tahlil qila bilish zarur. Buning natijasida o'quvchida o'z dunyoqarash nuqtai nazarini to'g'ri va puxta asoslay bilishi ham suhbatni tinglay olish, turli xil fikrlarga nisbatan sabr-chidamli bo'lish, o'z fikrini to'liq asoslagan holda tushuntira bilish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Kamida ikkita tilni bilishi. Bu bilan o'quvchining umumiy tafakuri oshadi, boshqa halqlar va davlatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini an'analari haqida tushunchalar oshadi, umumiy dunyoqarashi kengayadi.

**Iqtidorli o'quvchilar bilan shug'ullanuvchi har bir o'qituvchi quyidagilarga e'tibor bermog'i lozim:**

-o'quv dasturini o'quvchilarning iste'dod darajasiga qarab chuqurlashtirish, ya'ni ta'lim mazmunini yangilash va kengaytirish;

-o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan doimo o'sib boruvchi ihtiyoj-talablarini to'liq ta'minlay olish;

-maxsus o'quv reja bilan ishlash;

-o'quvchilar bilan alohida ishlash;

-yakka tartibda shug'ullanishni tashkil eta bilish;

<sup>72</sup> Xalq ta'limi vazirligi. 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-910-sonli va konsepsiyasi.2014 yil.

-o'quvchilarning qobiliyatlari haqida og'ir vazmin holda xulosa chiqara bilish;

-o'z ta'lim-tarbiya faoliyati bilan sinfning o'zlashtirish faoliyatini taqqoslab, holisona xulosa chiqara bilish;

-ijodiy ishlar guruhiga materialni tanlashni tashkil eta bilish;

-turli xil kelishmovchiliklarni bartaraf eta bili shva tinchita olish;

**Tavsiyalar:** -o'quvchining mustaqil fikrlashi uchun imkon bering, unga turli xil ko'rsatmalar beravermang;

-o'quvchining tashabbusini bug'mang, ular mustaqil bajara oladigan ishlarga siz aralashmang;

-o'quvchilarni fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan ya'ni bir fandani olgan bilimlarni boshqa fanni o'rganishda foydalanishga o'rgating;

-o'quvchilardan muammo va muhim masalalarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini hosil qiling;

-maktab yoki uy sharoitida vujudga kelgan murakkab vaziyatlarni o'quvchilarda ilgari hosil qilingan ko'nikmalardan foydalangan holda hal etishga harakat qiling;

-o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishga o'rgating;

-o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotga doimo ijodiy yondashing.

Maktab ta'limining turli bosqichlarida iqtidorli o'quvchi shaxsini aniqlash mezoni sifatida quyida e'tiboringizga havola qilinayotgan va maktab sharoitida bir necha yildan beri sinovdan o'tib, ijobiy natija berayotgan o'quvchi reytingini aniqlash va ijodkor o'quvchini aniqlashning diagnostik dasturidan foydalanish mumkin.

**Ijodkor yoshlarga-ijodkor ustoz;** Ijodiy izlanuvchan, iste'dodi jo'sh urgan o'quvchi ilm-fanda, ijtimoiy hayotda doimo yangilik sari intiladi, uni egallash bilan birgalikda yanada yuqori pog'onada fikr yuritishini, ilm-fan, texnika, san'atning eng so'nggi yangiliklarini bilishni, zamonaviy texnologik vositalar yordamida ularni tahlil qilishni hohlaydi. Haqiqiy iste'dod egasi qaysi jabhada bo'lmasin, fandami, adabiyot va san'atdami, sportdami, biribir doimo hayot bilan qadam

Xullas; Hozirgi kun talabi asosida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash biz musiqa o'qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. Respublikamizda ayniqsa qishloq joylarida iqtidorli iste'dodli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan hamkorlikda ishlash jarayoniga alohida e'tibor berilmoqda. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash jarayonida ularda bor iste'dodni yanada rivojlantirish kerak buladi. Buning uchun har bir o'qituvchidan bilim va malaka talab etiladi. Shunday ekan biz o'qituvchilar o'z bilim saviyamizni nazariy va amaliy jihatdan oshirib borishimiz kerak buladi va barkamol inson tarbiyasi uchun mas'ulligimizni his qilgan xolda tinimsiz mehnat talab qilinadi. Shunday ekan doimo o'z bilmimizni oshirib, boyitib borishimiz kerakdir.

O'tmishdan maqom va an'anaviy mumtoz qo'shiqlarning dunyoga kelishida va ijro etilishida barcha davrlarda yashagan xalq bastakorlari va hofizlarining ijodlari davr bilan hamohang bo'lgan. Bunga mashhur bastakor va ijrochilar Borbad Marvaziy, Abu Xafz Sug'diy, Abu Bakr Rubobiy, Abul Abbos Baxtiyor,

Abdulqodir Marog'iy, Darvishali Changiy, Paxlavon Muhammad singari bobokalonlarimizning ijodlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Aytish lozimki, qo'shiqchilik san'atimiz rivojiga o'zbek bastakorlari va sozandalari o'zlarining ulkan hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Muhammadjon Mirzayev, Muhtorjon Murtazoyev, Fahriddin Sodiqov, O'lmas Rasulov, Abduxoshim Ismoilov kabi ustozlarning yaratgan an'anaviy musiqaga xos janrlarini ham tarbiya sohasida o'rganish va o'rgatish hamda ular bilan uchrashuvlar o'tkazilsa, ya'ni jonli ijroni guvohi bo'lar edilar.

Demak, "maqom" deganda musiqada "nomukammal holatdan mukammal holatga" qarab rivojlanishning muayyan ijodiy uslubi ham anglashilar ekan. Yuqoridagilarga umumlashtirgan holda maqom xususidagi ta'riflarga quyidagilarni qo'shimcha etamiz:

I. Maqom – bu sadolarda in'ikos etgan hikmatlardir. Insonning ruhiy ma'naviy kamoloti sari yuksalishi va shu tariqa chin haqiqatga erishuvi bu hikmatlar o'zagini tashkil etadi.

II. Maqom – bu tariqat bosqichlarining o'ziga xos musiqiy ifodasi bo'lgan mukammal pardalar uyushmasi va asosda berilgan kuy mavzuini ma'lum yo'sinda (quyidan yuqoriga qarab izchil) rivojlantirish uslubidir.

Maqom borasidagi ushbu ta'riflar nafaqat O'n ikki maqom, balki Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga ham bevosita dahldordir. Bu o'rinda ularning tarkibiy qismlarida "maqom" so'zi bilan birga yana "samo", "gardun", "qalandar", "samandar", "giryra", "nola", "charx", "faryod", "soqiynoma", kabi k'oplab tasavvuf istilohlarining qo'llanishi, shuningdek, asosiy aytim yo'llarida yuksak ishq (Hofiz, Jomiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Bedil va b.) mazmunidagi g'azallarning kuylanib kelinishi, shuningdek, "sof" musiqiy jihatdan esa mukammal parda yo'llari asosida (tariqat jarayonlarining badiiy aksi o'laroq) kuy mavzularini bir tartibda izchil rivojlantirib, ularning avj sifatlarini namoyon etish tamoyili kabi omillarni dalillar qatorida keltirish mumkin. Lekin eng muhim dalil bu buyuk ishq dardi ila yo'g'irilgan maqomlar musiqasidir. Chinki bi musiqa mazmunida pok ruhiyatning asl Go'zallik, chin Haqiqat sari ma'naviy xuruji o'z ifodasini topdi. Binobarin maqomlarning asrlar osha o'z badiiy qiymatini yo'qotmasligi va ayni paytda, milionlab odamlar qalbidan o'rin olganligining asl sabablaridan biri ham ularning teran ma'nolarga yo'g'irilgan go'zal navolari-yu, beqiyus shaklu-shamoillari bilan izohlanadi. Zero, ma'naviyatdan uzilgan har qanday go'zallik oxir-oqibat yoqimsizdir.

Demak, maqomlar nafaqat Sharq musiqa madaniyati, balki insoniyat qo'lga kiritgan ulkan hodisa bo'ldi. Zotan maqomlar insonlarda sof, muqaddas tuyg'ularni uyg'otuvchi, ruhiyatni nafs to'siqlari uzra asl maqomlari sari yuksalishga da'vat etuvchi ma'naviy navolarimizdir.

O'tmishda parda(lad) tushunchasi bilan bog'liq muayyan bir tovush qatorga mos keladigan kuy va ashulalar ma'lum maqom tarkibiga kiritilgan.

«Maqom» - arabcha «Makam» so'zidan olingan bo'lib, turar joy, istiqomatgox, to'xtam maonolarida kelib, musiqa istilohida barmoq bosib tovush xosil etiladigan parda, kuy va ashulalar boshlanadigan parda (hozirgi tonika

maonosida), ular harakat qiladigan pardalardan iborat tovush qatorlar, ya'ni, hozirgi istilohda ladlar ifodasi sifatida taoriflanib kelingan.

Sharq xalqlarida maqomlar turlicha: ya'ni, o'zbek va tojik xalqlarida maqom, uyg'urlarda muqom, ozarbayjon va armanlarda mug'am, Eronda dastgox, arablarda maqom yoki navba (ya'ni, ketma-ket ijro etiladigan kuy va ashulalar sikli), turklarda kuk, Hindlarda rag (raga) nomlari bilan mashxurdir.

Maqomlarning dastlabki namunalari, ularning kuy tuzilishi va qanday ijro etilganligi haqida maolumatga ega emasmiz.

XIII asrda Safiuddin al-Urmaviy ixtiro qilgan jadval-notalarda esa, Eron, Ozarbayjon maqomlarining baozi kuy namunalari saqlanib qolgan.

XIII-XVIII asrlarga kelib O'rta Osiyo, Xuroson, Ozarbayjon xalqlari musiqasida o'n ikki (12) maqom mavjud bo'lgan, ular quyidagilardir.

Ushshoq – oshiqdar degan ma'noni bildiradi. (Xudo yo'lga muhabbat qo'yish).

1. Navo – shu yo'lda, ya'ni, xudo yo'lida ox chekishdir.
2. Busaliq – shu yo'lga kirishdir, Abusoliq degan kishini nomidan qolgan.
3. Rost – shu yo'lga kirganim rost, 1-bosqich.
4. Husayniy – shu shaxs nomi bilan bog'liq, 2-bosqich.
5. Xijoz – Arabistondagi joy nomi, 3-bosqich.
6. Raxoviy – Suvora ma'nosida, ya'ni, yo'lda davom etish, IV bosqich.
7. Zangula – Tuyalar bo'yniga osilgan ko'ng'iroqlar, nola maonosida, V bosqich.
8. Iroq – geografik nom, VI bosqich.
9. Isfaxon – Arabistondagi eng chekka qishloq, VII bosqich.
11. Zirafqand – to'xtash, yetib kelish, pastga sakrash degan maononi bildiradi.<sup>73</sup>
12. Buzruk – buyuk degan maonoda, xudoning nomi yoki katta degan maononi bildiradi. 12 ta maqomlar XIII asrdan XVI asrgacha keng rivojlangan. 12 maqom shuobalari (bo'limlari) quyidagilardir:

Dugoh, Segoh, Chorgox, Panjagox, Ashiron, Navro'zi arab, Moxur, Navro'zi xoro, Navro'zi bayot, Uzzol, Iroq, Muxayyar va boshqalar.

Sho'balarning tuzilishi:

Daromad – Miyonxat (Kvarta yuqori aytilishi) – dunasr (oktava yuqori aytilishi) avj.

Maqomlarning tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

Daromad – xat – miyonxat – dunasr – namud – siporish – taronalar – shaxobchalar.

Daromad – musiqaviy qism, xat – so'z bilan boshlanadi, miyonxat – o'rta xat demakdir va daromaddan sof kvinta yuqorida bo'ladi. Dunasr daromadni oktava yuqorisi bo'ladi. Namud – forsha so'z bo'lib, (namudam so'zidan olingan) ko'rinish maonosini bildiradi. Siporish – tushish, bog'lash, o'tish maonosini bildiradi va qismlarni bir-biri bilan bog'laydi.

Taronalar I guruh sho'obalarda keladi, shaxobchalar esa II gurux sho'obalarining Savt va mug'ulchalarida bo'ladi, ya'ni talqincha, qashqarcha, sokiynoma va Ufor deb nomlanadi, lekin Savt bilan mug'ulchalarning shoxobchalari bir xil bo'lsa ham usullarida farq bo'ladi.

<sup>73</sup> Raximov B. Boltayev R. Xorazm maqomlarining yangi jilolari//Shashmaqom saboqlari (ma'ruza va maqolalarning ikkinchi to'plami) – Toshkent: 2005.–B.130.

Talqincha – bu usulni nomi, yaoni 3/8 keyin 3/4 metrlari keladi. Girya shu usulda bo‘ladi.

Chapandoz esa shuni chapi, yaoni oldin 3/4 keyin 3/8 metrlari keladi.

Oldingi 12 ta maqomlarimiz qisqartirilib 6 taga aylantirilgan, yaoni, ladlari bir-biriga o‘xshagan maqomlarni birlashtirilgan.

Shuning uchun namudlarni nomida 12 ta maqomning nomlaridan bor masalan, Namudi Bayot, yaoni, oldin Bayot degan maqomimiz bo‘lgan.

12 maqom tizimi asosiy lad guruhini tashkil qilib, ularning tuzilishi odatdagrafika (chiziq) usulida tasvirlangan. Doiraga tovush qatoridagi tovushni ko‘rsatuvchi arabcha harflar yozilardi, to‘g‘ri chiziqlarni qo‘shuvchi joylar esa o‘sha pardadagi tovushlarni bir-biriga bog‘lardi. Shunday qilib, maqomlar tizimiga kiradigan bu pardalarning hammasi Pifagor tizimiga asoslangandir.

Maqomlarning turlari xilma-xildir: Ayrim yozuvlarning matnlari o‘rtasida katta farq bo‘lishi ham shundan kelib chiqadi, chunki maqomlarning qismlari xajm jihatdan bir xilda emasdir. Bundan tashqari, maqomlarning musiqasi ham turli to‘plamlarda bir xilda emas. SHu bois Buxoro shashmaqomi bilan Xorazm shashmaqomining o‘rtasida ham anchagina farq bor.

Har bir shashmaqom ikki katta qismga, cholg‘u va vokal qismga bo‘linadi. Buxoro sozandalari ulardan birinchisini Mushkulot deb, ikkinchisini Nasr deb ataydilar. Xorazm sozandalari esa ulardan birinchisini Chertim yo‘li deb, ikkinchisini Aytim yo‘li deb ataydilar. M.Xarratov esa cholg‘u qismini Mansur, vokal qismini esa Manzun deb ataydi.

Xorazm maqomlarining Iroq maqomida vokal qismi yo‘q, bu esa Buxoro va Xorazm maqomlari o‘rtasidagi keskin farq hisoblanadi.

Buxoro maqomlari ichidan Tasnif, Saqil, Saraxbor, Muxammas kabi kuylar, shuningdek Xorazm maqomlari ichidagi Peshrav, Muxammas va Saqil kuylari doimiy hisoblanadi.

Barcha maqomlar ichida majburiy bo‘lgan bu qismlar maqomlarning asosini tashkil qilib, qolganlari esa keyinroq yaratilgan bo‘lib, hozircha sozandamashshoqlarning xoxishiga qarab qo‘shib kelinadi. Masalan: Paxlavon Niyoz Mirzaboshi Komil Rost maqomiga «Murabbai Komil» deb ataladigan qismini qo‘shgan, uning o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzaboshi «Murabbai Rost Mirza» degan qismini qo‘shgan. Boshqa sozanda mashshoqlar esa Buzruk maqomiga «Saqili Islimxoniy», «Saqili Niyozxuja» qismlarini, Segox maqomiga «Sa usuli Feruz», «Chor usuli Feruz» va shu singari qismlarni qo‘shganlar.

Mushkulot – bu qiyin degan ma’noda yoki ilgari odamlar o‘z mushkullarini bayon etisholmay, musiqalar orqali bayon etishganlar.

Mushkulot – xona va bozguylardan iborat. Xona o‘zgarib boradi, lekin bozguy shunday qolishi mumkin. Masalan A+AB+AV, ya’ni A- bozguy, takrorlanib, takrorlanib kelaveradi. BV – xona o‘zgarib boradi.

Peshrav – intiluvchi degan maonoda. Gardun aylana degan ma’noda, ya’ni usul aylanib keladi 3/4, 3/8, 3/4, 3/8 va xokazo.

Muxammas – beshlik degan ma’noda.

Sakil (arabcha so‘z) - og‘ir degan ma’noda, ya’ni, usullarning qiyin, og‘irligini hisobga olgan, chunki 24 taktga yetadigan usullar bor.

Xafif (arabcha soʻz) – yengil degan maʼnoda.

Nasr – bu hikoyachilik, nasihat degan maʼnoda, yaʼni, soʻzga oʻtdi degan maʼnoda olingan. Shu nomda usullar ham boʻladi.

Tasnif (forscha) – kuyning aylanishi.

Tarjeʼi – qaytarilish, yaʼni qaytarma aborotlardan iborat boʻlgan kuy. Buxoroda shashmaqom quyidagi tartibda va quyidagicha nomlanadi: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Irok.

Xorazm maqomlari esa, quyidagi tartibda va quyidagicha nomlanadi: Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Panjgoh.

Panjgohda aytim yoʻllari kam boʻlib, koʻproq chertim boʻlaklaridan tashkil topgan.

Xorazm maqomlari oltiyarimta maqom deyiladi, chunki yuqorida qayd etib oʻtgan edik, yaʼni, Irok maqomining aytim yoʻli qismi yoʻq.

**Buzruk**- Eng katta, eng buyuk degan maʼnoni bildiradi. Bu maqomni ijrochilari qizil xalatlar kiyishib ijro etishganlar va bu maqom tinglovchilarni xarbiy gʻalabaga intilishga chorlagan. SHuning uchun Sohibqiron Amir Temur ham biron mamlakatga jangga chorlanganda askarlarini oʻtqizdirib, oldin shu maqomni tinglatgan va undan keyin yoʻlga ravona boʻlganlar. Bu maqomni tush paytida tinglasa maqsadga muvofiq boʻladi.

**Rost** - bir-biriga ros yoki mos degani. (Shu yoʻlga, yaʼni xudo yoʻliga kirganim rost). Bu maqomni ertalab tinglasa juda xush yoqadi.

**Navo** - mungli kuy, yaʼni, navo chekish (muhabbat yoʻlida, xudo yoʻlida oh, nola, navo chekish. Navoiy taxallusi ham shu soʻzdan olingan). Bu maqomni kechasi soat birdan keyin (shomda) toʻq xalatlar kiyishib ijro etishgan.

**Dugoh** - ikkita tayanch tovush (yoki ikki joy, yaʼni bu dunyo u dunyo) maʼnosini bildiradi. Bu maqomni Xufton (dam olish) vaqtida tinglansa maqsadga muvofiq boʻladi.

**Segoh** - uchta tayanch tovush (yoki uch joy, yaʼni, bolalik yoshlik, qarilik) maʼnosini bildiradi. Bu maqomni tushdan keyin ijro etilsa va tinglansa maqsadga muvofiq boʻladi.

**Iroq**- mamlakat nomini bildiradi. Bu maqomni hamma ijrochilar oq xalatlar kiyishib, ertalab quyosh chiqayotganda ayvonda oq parda ichida ijro etishgan.<sup>74</sup> Demak, nonushta vaqtida tinglansa ham boʻladi.<sup>75</sup> Maqomni ijro etish qoidalari Namanganlik Mulla Xuday-Berdi risolalarida yozilgan. Qoidaga amal qilmagan sozandalarning cholgʻu asboblari va xatlatlari olib qoʻyilgan. Shuningdek, maqom haqida XVI asr shoiri va sozandasi Najmiddin Kaukabi asarlarida yozilgan oʻshanda maqom toʻliq shakllangan ekan.

Shashmaqomlar shox qasrida ijro etilgan boʻlsa, maqomlarning Fargʻona – Toshkent maqom yoʻllari «Chormaqom» deb ham yuritilgan va ular quyidagicha

<sup>74</sup> Matyoqubov O. Shashmaqom ilmi // Shashmaqom saboqlari (maʼruza va maqolalarning uchinchi toʻplami) – Toshkent: 2007. –B. 15-27.

<sup>75</sup> Рахимов Вотир Матякубович разм дотор макомлари ва уларнинг ўзбекистон мусика маданиятидаги ўрни,/diss na soiskaniye kandidata isskustvovedovaniy. Toshkent, 2015 god. 89-95 str.

nomlanganlar: Dugoh, Xusayn, Chorgoh, Bayot, Gulyori Shaxnoz. «Chormaqom» deb yuritilgan bu shashmaqomga nisbatan qisqa bo'ladi, unda shashmaqomning birinchi mushkuloti, ya'ni, cholg'u qismi yo'qdir.

Shashmaqomning ikkinchi bo'limi Nasrda, ya'ni vokal qismi ko'p yirik ashula va taronalardan iborat bo'lgan holda, Chormaqom faqat to'rt yoki besh bo'lakdan iborat xolos. Bulardan Gulyori Shaxnoz» besh qismdan iborat bo'lib, quyidagi nomlar bilan yuritiladi. Gulyor, Shaxnoz, Chapandozi Gulyor, Ushshoq, Ufori gulyor.

«Dugoh xusayn», «Chorgox» va «Bayot» larning ikkinchi qismi «Savti» deb yuritilib, qolganlarning nomlari yo'qdir. Ular maqomning asosiy qismiga (bir, ikki, uch, to'rt raqamlari) qo'shilib yuritiladi. Masalan Chorgoh-1, Chorgoh-2 yoki Savti Chorgoh.

Bu maqomlar ham shashmaqomga ilova tariqasida kiritilgan. Bayot tuzilishi jihatidan oxang eshitilishi bilan Navo maqomidagi Bayot shuobasiga yaqin bo'lgani uchun Navo maqomiga Chorgoh, Dugoh maqomiga Ushshoqlar, Rost maqomiga va Shaxnoz, Gulyor ham Rost maqomiga kiritilgan. Shashmaqomda quyidagi avjlar ishlatiladi, Namudi uzzol, Namudi maxayyari Chorgoh, Namudi Navo, Namudi Bayot, Namudi Ushshoq, Namudi Oraz, Namudi Segoh, Namudi Nasrulloh, Avji Zebo pari, Avji turk.

Demak shashmaqomning ashula bo'limiga 10 ta avj ishlatilar ekan. «Namud» - tojikcha so'z bo'lib, ko'rinish degan maononi bildiradi.

Avjning maqomda kelishi:

1. Namudi uzzol, Muxayyari Chorgox (ketma-ket keladi).
2. Ushshoq, uzzol hamda Muxayyari Chorgoh.
3. Segoh, Ushshoq, avji turk.
4. Segoh, Navo, Oraz.
5. Avji Zebo nari va Muxayyari Chorgoh.
6. Bayot va Navo.
7. Chorgoh va Dugoh.

Shashmaqom o'z ichiga 250 ga yaqin kuy va qo'shiqlarni olgan. Cholg'u yo'llari quyidagi yo'llardan iborat bo'ladi hamda ular bir- biridan doira usuli bilan ajralib turadi. Tasnif, Tarjeoi, Gardun, Muxammas, Sakil.

Bu cholg'u yo'llari xona va bozguylardan iborat bo'ladi.

Xona – asosiy qism yoki kuy jumalari, o'zgaruvchi miqdordir.

Bozguy – yana qaytariladigan qismi, o'zgarmas miqdordir.

Cholg'u yo'llarida kuylar nomlariga maqom nomlari qo'shib aytiladi.

Masalan: Tasnifi Buzruk, Tarjeoi Buzruk va hokazo.

Shashmaqomning ashula bo'limi quyidagi guruh sho'obalariga bo'linadi:

I-guruh shuobalari:

1. Saraxbor - bosh mavzu yoki boshlanish degan maonoda va 2/4 o'lchovida bo'ladi.
2. Talqin - nasihat qilish maonosida 3/4, 3/8 yoki 3/8, 3/4 o'lchovida va 15 bo'g'inli bo'ladi.
3. Nasr - ko'mak, zafar maonosida, 6/4 (2/4+4/4) o'lchovida, 16 bo'g'inli bo'ladi.  
Ufar - 3/4, 6/8 o'lchovida va 15 bo'g'inli bo'ladi.

II-guruh sho'obalari:

1. Savt- arabcha so'z bo'lib, ohang yoki kuy degan maonoda, 5/4 doira usulida bo'ladi.
2. Talqincha - 3/4, 3/8 yoki 3/8, 3/4 o'lchovida bo'ladi.
3. Qashqarcha- uyg'urcha safoilp 4/4 o'lchovida bo'ladi.
4. Soqiynoma - o'zbek adabiy so'zlaridan olingan 4/4 o'lchovida bo'ladi.
5. Ufar - raqs xarakterida va 3/4, 6/8 usullarida bo'ladi.

Maqomlar hammasi har doim oxirida yana boshlanishiga qaytib keladi.

Hayotda insondan chiqadigan tovushni kavli, musiqa asbobidan chiqadigan tovushni feoli deyiladi.

Cholg'u asboblari 3 guruhga bo'linadi:

1. Urma cholg'u asboblari: doyra, nog'ora, qayroq, Safail, Qoshiq.
2. Damli (duxovoy) puflab chalinadigan: Cho'pon nay, Sibizg'a, Nay, Qo'shnay, Bo'lomon, Karnay, Surnay, Chanqovuz.

Torli cholg'u asboblari: Qobus, g'ijjak, Sato, Tanbur, dutor, afgon rubobi, qashqar rubobi, chang. Shashmaqom halqimizning oxanglarga boy musiqa durdonalaridan hisoblanib, o'tmishda yashab, ijod qilgan bastakor hofizlar ijodining mahsulidir va bizga ustozlardan shogirdlarga eshitib o'rganish yo'li bilan yetib kelgan. Shashmaqom kuylari birinchi marta 1923 yili professor V.A.Uspenskiy tomonidan Buxoroning mashhur sozanda, hofizlari Ota Jalol va Ota G'iyoslar ijrosida notaga yozib olingan. Ota Jalol Nosirovdan ashula va Ota-G'iyos Abdug'anievdan cholg'u yo'llarini notaga olib, 1924 yilda nashrdan chiqargan.<sup>76</sup>

Rost maqomidan tashqari qolgan maqomlarda tanburning I-III torlari II torga nisbatan Kvarta bo'ladi. Rostda esa, Kvinta bo'ladi.

Har bir maqomning ijro etilishi 3-4 soatlab davom etsada, tinglovchi uni miriqib, tinglaydi. Undagi kuy va qo'shiqlar bir-birining davomi sifatida yangraydi, lekin ularning har biri yangi ohang, usul va mazmun kasb etadi.

Siz "Shashmaqom" musiqali telefilmni tomosha qilsangiz, maqomlarimiz naqadar nafosatli, yoqimli va tarixiy-ijtimoiy mazmunga boy bo'lgan yirik musiqa asari ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilasiz.

"Shashmaqom"ning usta bilimdonlari Ota Jaloliddin Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniev, Levi Boboxonov, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, YUnus Rajabiylar o'zlarining ijrochilik mahoratlari bilan halqimiz hurmatiga sazovor bo'lganlar.

O'zbekiston radiosi va televideniesi qoshida 1959 yili (marhum) akademik Yu.Rajabiy rahbarligida maqomchilar ansambli tashkil etilgan. Bugungi kunda bu ansamblp Yu.Rajabiy nomli maqomchilar ansambli deb yuritilmoqda va bu ansamblp xalqimizga sidqidildan xizmat qilmoqda.

Endilikda sevimli maqomlarimiz xorijiy davlatlar: Bolgariya, Chexoslovakiya, AQSH, Angliya, Eron va boshqa chet ellik musiqashunos

<sup>76</sup> Aminov X. Musiqiy bayozlar. //Shashmaqom saboqlari, 2 t. Toshkent-2005. B. 32-50.

olimlarning diqqatini o'ziga jalb etmoqda hamda ular maqomlar ustida tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Yakgoh, Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, SHashgoh - bu iboralarni Ibn Sinoning shogirdi Zayla o'zining «Musika qomusi» kitobida qo'llagan.

Chorgoh Ozarbayjon maqomlarining qatorida ham bor, lekin ularda harbiy g'alabaga yo'llovchi musiqa sifatida ijro etiladi.

Bizda esa nihoyatda mungli, g'amgin kuy bo'lib, xalqning iztirobini kuylagandek bo'ladi.

Bugungi kunda milliy maktab istiqlollari haqida gap borar ekan, bu buyuk maonaviy qadriyatimiz bo'lmish musiqa merosimizni xalq taolimi tizimida o'rganish va uni tiklash eng zarur vazifalarimizdir. Chunki IX asr buyuk faylasufi Al-Kindiyning taobiri bilan aytganda «Ajdodlar merosini o'rganish – avlodlar aqliga jon baxsh etuvchi bir obi hayotdir».

Samarqandda bo'lib o'tgan jahon musiqashunoslari anjumanida bizning milliy musiqalarimizni tinglab hayratlangan bir ajnabiy olim bunday degan edi, «Agar bizning ham ana shunday xazinamiz bo'lganda edi, uni bolalarga bog'cha yoshidan boshlab o'rgatar edik».

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda o'zbek maktablarida musiqa taolim-tarbiyasining ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqildi va bu konsepsiyaning taolim mazmunida o'zbek musiqasiga keng o'rin berildi.

Shunga asosan musiqa madaniyati darslarida va darsdan tashqari musiqa to'garaklarida o'quvchilarga mumtoz qo'shiqlardan hamda maqomlarning shuobalaridan o'rgatish zarur. Lekin maqomlarning eski ishqiy-lirik kayfiyatdagi sheorlarini zamonaviy shoirlarimizning o'quvchilar yoshlariga mos keladigan sheorlari bilan almashtirib kuylansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar**

Tadqiqot davomida Niyozjon xo'ja haqida tarixiy manbalarda yangi ma'lumotlar topildi. Mashhur tarixchilar Munis va Ogahiy asarlarida Niyozjon xo'janing ismi Sayyid Niyozjon tarzida uchraydi va uning Buxoroda elchilik vazifasida ishlaganligi ma'lum qilinadi. Demak, Niyozjon xo'ja davlat siyosatida ham ko'zga ko'ringan davlat arbobi bo'lib chiqadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qo'ng'iro't sulolasi vakillari madaniyat, musiqaga homiylik borasida qo'shni mamlakatlar va xorijiy Turkiya, Eron, Hindiston va Rossiyadagi musulmon o'lkalari madaniyatlari bilan ma'lum darajada musobaqalashgan, ular bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Har qanday tadqiqot o'ta mukammal bo'lish da'vosidan yiroq bo'ladi, albatta. Jumladan, biz tadqiq etayotgan mavzuning ham juda ko'p tomonlari tadqiq etilishi, tahlil qilinishi kerak.

## UMUMIY XULOSA

Movoraunnaxr, ayniqsa, O'zbekiston xalqlari musiqiy merosini o'rganish borasida, **birinchidan**; Musiqashunos-manbashunos olimlardan; Abdurauf Fitrat, Galina Pugachenkova, Tatyana Vizgo, Fayzulla Karomatli, Said Saidiy, Ishoq Rajabov, Otanazar Matyoqubov, Abdumannon Nazarov, Rustam Abdullaev, Oqilxon Ibrohimov, R.Yunusovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o'rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir", "Maqomlar", O.Matyoqubovning "Maqomot" asarlari va S.Saidiyning "Shashmaqom va maqom doyra usullari semantikasi"da milliy qadriyatlarimizdan bo'lmish maqomlarning nazariy va amaliy asoslari.

**Ikkinchidan**; Qariyb 2000 yillik ko'xna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada, buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Borbad Marvaziy, Muhammad Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Paxlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

**Uchinchidan**; Kulliyotning oily maqom bilan bog'lanishida davom maqomlar yaratilib, bunda, yana Xoja Abdulqodirdan rivoyat qilinib, u o'zining "botin idroki" va "fahmi zohiri" bilan mazkur 8 maqomga yana to'rttasini Isfahon, Buzruk, Kuchak va Husayniylarni qo'shganligi bayon etiladi.

Undan keyin yana hayotiy voqealarga qaytib, ustozlar o'z bilim va mahoratlarini ishga solib, har bir maqomning yuqori va pastki bo'lagini ajratib, ikki sho''ba, ikki maqomni qo'shilishidan bir ovoz va ikki ovozni birlashtirib, bir rang qilganliklari tushuntiriladi. Ya'ni ushbu davr olimlarining ilmiy qarashlaridan kelib chiqib 12- maqom Buxoro ajdodiy san'ati bo'lmish "Shashmaqom"ga aylana borgan. Darvish Ali Changiyning 12 –maqom falak burjlari 12-fazoviy qarashlaridagi falsafaviy, koinotiy qarashlari masalaning teran izlanishga va yanada chuqurroq e'tibor berilishiga hayrotomuz tadqiqot talabini yuzaga keltiradi.

**4, -** Manbalardan ma'lum bo'ldiki, XIX asrning 20 yillarida Niyozjonxo'ja Buxoroga borib, SHashmaqom va uning tarkibini o'rganib keladi. Niyozjonxo'janing ismi Xorazm maqom tarixida alohida tilga olinadi. Binobarin, u Xorazm musiqashunoslari va sozandayu xonandalari orasida tanilgan edi. Munis

va Ogahiyning tarixiy asarlarida Niyozjon Xo'janing ismi Sayid Niyozjon tarzida uchraydi. Niyozjonxo'janing Xorazm maqomlariga qilgan muhim xizmati shundan iboratki, u Buxoro SHashmaqomi asosida Xorazmning milliy maqomlarini paydo qilib, kuy-qo'shiqlarini qayta ishlab, Xorazmning o'ziga xos milliy-mahalliy maqom tizimini ishlab chiqdi. Bunda, Xorazmning Olti yarim maqomi nazarda tutiladi, albatta. Xorazmning el maqomlari, xalq kuylari esa Dutor maqomlari sifatida alohida tizim bo'lib, azaldan kelayotgan mumtoz kuy va ashulalar bo'lib qolaverdi. Zero qayd etish joizki, Buxoro shashmaqomi 6 maqomdan iborat bo'lsa, Xorazm maqomi esa Buxoroning maqomidur. Ammo, ularda teskarisiga qarab maqomni so'zlarini ham o'zgartirganlar va unga faqatgina yarim maqomga erishganligi ma'lum bo'lmoqda. Demak, 7 maqom yo 6,5 maqom emas, balkim 6 maqomligicha qoladi.

5, - Sharqda bastakor va kompozitorlarni "Mussandif", deb tilga olingan. Hatto, Sohibqiron Amir Temur Samarqanddagi saroyida («Mussandif»-larni jalb eting !), degan edi. Kompozitor va bastakor atamasini **"Mussandif"** so'ziga almashtirilsa ayni muddao bo'lur edi.

6,- Qadimgi tarix ruhoniylari o'lchamida sado unsurlarini jumbushga kelishi, qon semantikasining doimiy va birxillik rekvenligida + yo – (plyus yo minus) hamrohligida ikki usulning biri kuchli va ikkinchisi kuchsizligidan darak berguvchi obektiv va subektiv harakatlar ya'ni, tabiiy va kosmik usul mo'jizalari misolida nazarlab kelingan.

Insoniyatning tug'ilishidan boshlab uni beshikga bog'lashadi va unga "Alla" aytib voyaga keltirishadi. "Alla" aytishuvi suvanronlik qismini anglatga undagi tarovatlar va beshikni tebranishida sodir bo'ladigan ikki harakatning bir marromdagi o'lchami va undagi "bum" va "bak" tovushi kabi qarama-qarshilik sadolarini ham yuqoridagi usullarga taqqoslab olish mumkin. Shuningdek, "alla" zarblarining "Grave – MM:40 tezlikka qo'llanishi. Kosmologik yechimlar va "Qur'oni Karim"dagi suralarning har bir bandidan so'ngi bandgacha bo'lgan masofadagi dam olinishi (pauza), aynan "alla" tarovatidagi dam olinish bilan yaqin o'rin oladi, ya'ni pauzalar bir-biroviga monanddir. Ba'zan "alla" 8/4 o'lchovga ham mos keladi. Musiqada esa ba'zi bastakorlar 2/4;4/4 o'lchovga moslashtirib kuy va qo'shiqlar yaratilgan. Murg'ak go'dakka "Alla" aytib, beshikka bog'lanishi va tebratilishini Ummatimiz Muhammad Alayx Salom, s.s.va/s. ham aytib o'tgan.

7,- 12 maqom ham 12 oyga bog'lanishini quyosh tizimi asosida belgilangan burjlarning muqaddas sanalgan davrlar maxsuli deb tushunish mumkin. 12 maqom shaklining Shashmaqomgacha saqlanib kelishi esa maqomlarning so'ngi turi, islomgacha bo'lgan musiqa madaniyatdagi an'analarning davomidir.

8,-Maqom doyra usullari semantikasi juda murakkab va o'zga xos tasniflanishida bir usuliylikdan 24- taktli usulgacha o'z tasnifotida qamrab olganligi bilan, dunyo san'atining mumtoz ijrochiligi sohasida eng murakkabligi bilan ajralib turadi va mo'jiza kabi haligacha ochilmagan sirli qirralari mavjudligini anglash mumkin.

9,-Buxoro shashmaqomi jahon mumtoz ijrochiligi ichida eng murakkabligini, shifobaxsh va mo'jiza kompozitsiyalardan biri ekanligini anglatgani,

Vatanimizning fahri va ajdodlarimizning serqirrali donishmandligidan darak berguvchi omil sifatida bizni quvontiradi.

**10,-** Oltita maqomdan birinchisi «Buzruk» nomi bilan mashhur bo'lib kelgan. Bu maqom haqidagi ma'lumotlar juda qadim zamondan beri, musiqa ilmiy risolalarida sharhlab kelingan edi. O'tmish olimlarining musiqiy risolalarida Buzruk muayyan lad tuzilmasini va unga mos kuy va ashulalarni ifodalagan. Buzruk maqomining jonli namunalarini bizgacha Shashmaqom tarkibidagi kuy va ashula yo'llari orqali ma'lumdir. Buxoro shashmaqomining 6 maqomdan iboratligi, bunda; **Buzurg, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq** maqomlari semantik talqini, tasniflanishining sho'balari tahlil misollarida o'z yechimini topdi. ushbu butun sho'balarining taktlardagi ijro kompozitsiyasi, maqomlarning nolanishidagi ma'no va tasniflanishi, doyra usullari majmuasining o'zga xosligi va qo'llanish sohasi, pardalardagi sozlanishlarda Tanbur va Dutor cholg'ularining notatsiyasi va ijrodagi bir-birovidan farqlanib borishi ayyon bo'ldi.

Buxoro shashmaqomining qo'llanishida, har bir maqomning qo'llanish mezonlari ham imkon qadar tahlil va qiyoslar bayonida ochib berildi.

Kelajakda yosh avlod tarbiyasida maqom yo'llari va undagi ijro tasniflarining xususiyatlarini o'rganish va o'rgatib borilishi davr taqozosi vazifalarimizga kiradi.

**11,-** Tadqiqot davomida Niyozjon Xo'ja haqida tarixiy manbalarda yangi ma'lumotlar topildi. Mashhur tarixchilar Munis va Ogahiy asarlarida Niyozjon xo'janing ismi Sayyid Niyozjon tarzida uchraydi va uning Buxoroda elchilik vazifasida ishlaganligi ma'lum qilinadi. Demak, Niyozjon xo'ja davlat siyosatida ham ko'zga ko'ringan davlat arbobi bo'lib chiqadi.

Muhammad Rahimxon Feruz davriga kelib, XIX asrning 70 yillarida Xorazm maqomlari yana qayta ko'rib chiqildi, ba'zi kamchiliklar to'g'rilandi. Yangi bastalangan mumtoz kuylar qo'shildi. Natijada, "Xorazm musiqiy tarixchasi" mualliflari aytganidek, Olti yarim maqom yettiga to'ldirildi. Bular Shashmaqom tarkibiga yana Panjgoh maqomi qo'shilgani bilan izohlanadi. Bu albatta nisbiy tushuncha: Xorazmning milliy an'analari, o'ziga xos madaniyati, ijoddagi ruhiyati e'tiborga olinishi kerak, deb o'ylaymiz.

**12,-** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ko'ng'irot sulolasi vakillari madaniyat, musiqaga homiylik borasida qo'shni mamlakatlar va xorijiy Turkiya, Eron, Hindiston va Rossiyadagi musulmon o'lkalari madaniyatlari bilan ma'lum darajada musobaqalashgan, ular bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Har qanday tadqiqot o'ta mukammal bo'lish da'vosidan yiroq bo'ladi, albatta. Jumladan, biz tadqiq etayotgan mavzuning ham juda ko'p tomonlari tadqiq etilishi, tahlil qilinishi kerak.

Maqom ashulalarining eski she'rlarini o'quvchilar bop yangi zamonaviy she'rlar bilan almashtirishda ashulaning ma'nosi kayfiyati va she'rning vazniga (ritmik tuzilishiga) e'tibor beriladi. Vazni to'g'ri kelmasa qo'shiq kuyga mos kelmaydi. Ba'zi she'rlarning kayfiyati kuyning kayfiyatiga mos kelmaydi. Shuning uchun bu ishni adabiyotni, she'riyatni tushunadigan odam bilan bamaslahat amalga oshirish to'g'ri bo'ladi. O'quvchilarga mumtoz ashulalar va maqomlardagi sho'balardan o'rgatib borish, bugungi ommaviy estrada qo'shiqchiligining milliy musiqamiz ohanglarini g'ayri milliy musiqa ohanglari bilan chatishtirib

tinglovchilar idrokini chalgʻitayotgan, yani ustoz loʻrmagan (zararli hasharotlar ansambli) ham kam emas va ularning repertuarlarini sinkovlik bilan tekshirish, toʻgʻri yoʻlga solish, milliylikni anglatuvchi maʼnaviy gʻoyalarga boy tasniflarda ijro etish va kuylash zamonaviy isteʼdod kabi mavqʻiga ega boʻladilar deyish oʻrinlidir.

Kelgusida ushbu ilmiy ishimni davom ettirish borasida izchil yondoshilgan holda tadqiqotlarimni davom ettirib, doktorlik dissertatsiyasini himoya qilmoqchiman va ushbu sohada yanada koʻproq ahamiyat berish, biz yoshlar uchun dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglagan holda holisona yakun yasayman.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

### **Rasmiy nashrlar**

1.1.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir // “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” toʻplamida. 3-jild. –Toshkent: Oʻzbekiston, 1996. –B. 70-74.

1.2.Karimov I.A. Ilmu maʼrifat ziyosi hech qachon soʻnmaydi // Prezident I.Karimovning Xorazm Maʼmun Akademiyasining 1000 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi / Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati, 2006 yil, 3 noyabr.

### **2. Qoʻlyozma manbalar**

2.1.Akbarov I. Xorazm “Tanbur chizigʻi”. 1986. // Oʻzbekiston Davlat konservatoriyasi kutubxonasi, inv. № 2086.

2.2.Mulla Bekjon Rahmon oʻgʻli, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Moskva-1925 yil, 49-bet

2.3.Xarratov M.arxivi. Sanʼatshunoslik instituti kutubxonasi, № 571/5.

### **3. Qoʻlyozma manbalarning zamonaviy nashrlari**

3.1.Akbarov I.A. (Oʻzbek usullari toʻplami), Toshkent. 1952.Oʻzbekiston Davlat nashriyoti.

3.2. Belyayev V.O. O muzykalnom folklоре i drevney pismennosti M.: Sovetskiy kompozitor, 1972. - 234s.

3.3.Bobojon Tarroh Xodim. Xorazm navozandalari. –Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashr., 1994. – 96 b.

3.4.Boqiy satrlar. Muhammad Rahimxon Feruz / Tuzuvchi va soʻzboshi muallifi G.Ismoilova. –Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashr., 1991. –64 b.

3.5.Laffasiy. Tazkirai shuaro. Urganch, 1992. – 190 b.

- 3.6.Mironov N.N. Pesni Fergani, Buxari i Xivi – Tashkent: Gosizdat. 1931-60s.
- 3.7.Mironov N.N. Obzor muzikalnix kultur uzbekov i drugix narodov Vostoka – Samarkand- 1931- 31s.
- 3.8.Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. –Toshkent: 1998. – 47b.
- 3.9.Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr.,1994. –B.93-94.
- 3.10. Nazarov A. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent: 1995 y. – 131b.
- 3.11.Fitrat. O'zbek klassik muzikasi va uning tarixi. –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1993. – 70 b.
- 3.12.Hofiz Xorazmiy. Devon. II kitob / Nashrga tayyorlovchilar H.Sulaymonov, F. Sulaymonova. –Toshkent: 1981. –B. 12.

#### **4. Dissertatsiya avtoreferatlari**

- 4.1.Matyoqubov O. Xorezmskiye makomi. Avtoreferat diss.na soisk.uch. stepeni kand. iskusst. –Toshkent-Leningrad: 1977. – 23 s.
- 4.2.S.Saidiy. Markaziy Osiyo Madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida), SITI, arxiv. Toshkent.. 2005 yil.

#### **5. Monografiya va maqolalar**

- 5.1.Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar). O'zbekiston. 1997. –B. 97.
- 5.2. Azizova F. Fazliddin Shahobov. Dushanbe: 2006.
- 5.3. Aminov H. Musiqiy bayozlar. //Shashmaqom saboqlari, 2 t. Toshkent-2005. B. 32-50.
- 5.4.Bartold V.V. Xivinskoye xanstvo // V kn. Ensiklopedicheskiy slovar F.A.Brokgauza i I.A.Yefrona. T.37 (73). Sankt-Peterburg: 1903. –B. 189-194.
- 5.5.Boltayev R. “Xorazm Tanbur va dutor maqomlarining munosabatlariga doir” // Shashmaqom saboqlari (ma'ruza va maqolalarning ikkinchi to'plami) – Toshkent: 2005. – B.134.
- 5.6.Boltayev R. “Xorazm maqomlarining parda va usul asoslari” // Shashmaqom saboqlari YuNESKO to'plami Toshkent: 2007. – B.47.
- 5.7.Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr.,1998. –256 b.
- 5.8.Vamberi A. Ocherki istorii Sredney Azii. –Moskva: 1868.
- 5.9.Belyaev V. Khorezmian notation // The sackbut. 1924. №1.
- 5.10.Ikromov I. Milliy musiqamiz xususida // Yer yuzi jurnali, 1928.
- 5.11. Istoriya Karakalpakskey ASSR (s drevneyshix vremen do nashix dney). – Toshkent: Fan, 1986. –B. 74.
- 5.12.Khiva. Guidebook. –Moskow: 2001. –P. 13-14.
- 5.13. Matyoqubov O. Shashmaqom ilmi // Shashmaqom saboqlari (ma'ruza va maqolalarning uchinchi to'plami) –Toshkent: 2007. –B. 15-27.
- 5.14. Matyoqubov O. Maqomot. –Toshkent: Musiq, 2004. – 400 b.
- 5.15. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik tarixidan. –Toshkent: 1961. –B. 119.
- 5.16. Omonulloh Mutalov. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. –Toshkent: 2005. – B. 121.

- 5.17. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. Toshkent: 1978.- B. 8
- 5.18. Rajabov Q. Xorazmda istiqlol harakati va Junaidxon // Jamiyat va boshqaruv. 2000, №1. –B. 36–43.
- 5.19. Rahimov B. Dutor maqomlarining umumiy jihatlari // Shashmaqom saboqlari (ma’ruza va maqolalarning ikkinchi to’plami) – Toshkent: 2005. –B.123-133.
- 5.20. Raximov B. Boltayev R. Xorazm maqomlarining yangi jilolari//Shashmaqom saboqlari (ma’ruza va maqolalarning ikkinchi to’plami) – Toshkent: 2005.–B.130.
- 5.21. Uspenskiy V.A. Klassicheskaya muzika uzbekov/Tashkent: 1927.-S.303-315.
- 5.22. Hasanov S. Xorazm ma’rifati-olam ko’zgusi. –Toshkent: O’qituvchi, 1996. – 304 b.
- 5.23. Xudoyberganov K. Xiva xonlari shajarasi. –Xiva: 1996. –104 b.
- 5.24. Yunusov M. Komil Xorazmiy (hayoti va ijodi). –Toshkent: O’zadabiynashr., 1960. –102 b.
- 5.25. Yusupov Yu. Xorazm shoirlari. –Toshkent: 1967. –B. 82.

### **6.Nota kitoblari**

- 6.1. Akbarov I., Kon Yu. Xorazm maqomlari // O’zbek xalq muzikasi. VI tom. – Toshkent: 1958.
- 6.2. Boltayev R. Dutor maqomlari. –Toshkent: 2006. –B. 3-25.
- 6.3. Matyoqubov O., Boltayev R., Aminov H. O’zbek notasi. –Toshkent: 2007. – 400 b.

## **I L O V A L A R**

### **I. Atamalar lug’ati**

#### **A**

- |        |                                                                                 |
|--------|---------------------------------------------------------------------------------|
| Aytim  | - Xorazm maqomlarining ashula yo’llari.                                         |
| Alhon  | - kuy                                                                           |
| Aruz   | - uzun va qisqa bo’g’inlar munosabatiga asoslanuvchi (kvantitativ) she’riy vazn |
| Ashula | - sozandalar shevasida paydo bo’lgan ibora aytim, Qo’shiq                       |

#### **B**

- |         |                                                                              |
|---------|------------------------------------------------------------------------------|
| Bayoz   | - she’riy majmua, anatologiya, mumtoz yo’llarda aytiladigan matnlar to’plami |
| Barmoq  | - miqdor nisbatlariga asoslangan (kvalitativ) she’r tizimi                   |
| Bozgo’y | - kuy shaklining takrorlanuvchi bo’lagi, naqorat                             |

#### **V**

- |      |                              |
|------|------------------------------|
| Vazn | - she’riy va musiqiy o’lchov |
|------|------------------------------|

## G

- Gardun - (f.t. falak siymosi. Taqdir taqozosi) maqom cholg'u yo'llarida usul va kuy nomi
- Gul ufor - Xorazmda maqom tarkibidagi tezkor ufor
- Go'yanda - (f.t. aytuvchi) ilohiy mavzudagi ashulalar ijrochisi

## D

- Davr - sozandalar tilida ijro jarayonining uzluksiz bir bo'lagi
- Daromad - maqom yo'llarida shakl birligi; boshlang'ich bo'lak
- Dastak - ashulachilarning she'riy daftari, matnlarni esga olish qo'llanmasi
- Diapazon - tovush qo'lami
- Diatonika - tovushqator turi
- Doyra - q. advor, (boshi oxiriga ulangan aylana, islom ramziyatida cheksizlik, mukammallik ifodasi)
- Dugoh - maqom va turkum nomi
- Dutor maqomlari - Xorazm maqomlarining toifasi, alohida ko'rinishi

## Yo

- Yopiq tizim - muayyan musiqiy an'analarning muqimlashgan barqaror shakli

## J

- Jins - dastlabki lad birikmalari

## Z

- Zamzama - yarim ovozda xirgoyi qilish, she'rsiz "o" lab aytish, so'zsiz qo'shiq
- Zarb - urg'u, cholg'ularda tovush manbaini harakatga keltiruvchi kuch; dator va tanburda o'ng qo'l harakati
- Zarbu-l-qadim - yakka "bum" va "bak" dan iborat birlamchi doira usuli
- Zihiy Nazzora - Xorazm dator maqomlarining mazkur nomdagi turkumi
- Zul arba' - kvarta
- Zul xams - kvinta

## I

- Ilmi advor - o'rta asr musiqashunosligida kuy, vazn, she'riyat va amaliy ijroni birlashtiruvchi mushtarak ilm
- Ilmi iyqo - ritm xaqida ta'limot
- Iroq - maqom va turkum nomi
- Ist - (f.t.to'xtash) pauza

## Y

Yo'l - kuyning eski nomlaridan biri

## K

Kompozitsiya - badiiy asar (yaxlit tartibga keltirilgan)  
Kor - musiqiy shakl; Kavkabi va Darvesh Ali  
asarlarida navbati murattabning boshlang'ich qismi  
Kuy - tovushlar vositasida ifodaqilingan fikr  
Kulliyotiy - muayyan muallif asarlarining to'liq majmuasi;  
musiqiyda mavjud kuy va usullarning umumlashmasi

## L

Lad - musiqa asarining parda tizimi  
Lang usul - Talqin usulining shevada kelishi, cho'loq usul

## M

Maqomot - maqom so'zining ko'pligi; O'rta Osiyo  
maqomlarining yagona tizimini bildiruvchi ibora  
Maqom - (a. o'rin, to'xtov, joy) musiqiy istilohda: klassik  
musiqa janri; muayyan parda asosidagi kuy va  
ashulalar majmuasi  
Maqom yo'llari - maqom uslubidagi kuy va ashulalarning mustaqil  
ko'rinishlari  
Manzum - nazm etilgan, tartibga solingan, yaratilgan  
Manzuma - kuy va she'rni muvofiqlash san'ati  
Mansur - (a. nasr qilingan) sochma tartibdagi asarlar  
birikmasi  
Ma'no - badiiy asarning ichki mazmun-mohiyati  
Miyonparda - o'rta parda  
Miskin - (a. xasta, xokisor) Xorazm dutor maqomlarining  
mazkur nomdagi turkumi; qadimiy mumtoz kuy yo'li  
Muxammas - (a. beshlik) maqom turkumlarida muayyan usul va  
cholg'u qismining nomi  
Musaddas - (a. oltilik) maqom turkumlarida muayyan usul  
va cholg'u qismining nomi  
Mushkilot - (a. shaklning ko'pligi) Shashmaqom cholg'u  
bo'limlarining umumiy nomi; sof musiqiy  
shakl, kuy  
Muqaddima - (a. kirish, boshlanish) Xorazm maqomlarining  
tarkibiy qismi  
Mug'anniy - (a. aytuvchi) qo'shiqchi  
Mug'ulcha - Shashmaqomga nazira turkum sho''ba

## N

Navba - (a. ketma-ket keluvchi) turkumli musiqiy

|                   |                                                                                                     |
|-------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Navo              | asarlar                                                                                             |
| Nasr (نذر)        | - maqom va turkum nomi<br>- (a. sochma) asar ichidagi asar, maqom aytim yo'llarining umumiy nomi    |
| <b>O</b>          |                                                                                                     |
| Olti yarim maqom  | - Xorazm maqomlari xos saroy uslubining umumiy nomi                                                 |
| Ochiq tizim       | - musiqiy an'analarning erkin o'zgaruvchan shakli                                                   |
| Og'ir ufor        | - ufor turlaridan                                                                                   |
| <b>P</b>          |                                                                                                     |
| Panjgoh           | - kuy va sho''ba nomi                                                                               |
| Parida            | - cholg'u dastasidagi bog'lamlar; kuy asosini tashkil qiluvchi tovush tizimi; lad                   |
| Peshrav           | - (f.t. oldinda keluvchi) musiqiy shakl; cholg'u kuylarining rivojlanish tamoyillari                |
| <b>R</b>          |                                                                                                     |
| Rahoviy           | - Xorazm dutor maqomlarining mazkur nomdagi turkumi                                                 |
| Risola            | - sozandalar uchun ilmiy va amaliy qo'llanma                                                        |
| Rost              | - maqom va turkum nomi                                                                              |
| <b>S</b>          |                                                                                                     |
| Sabo              | - kuy va sho''ba nomi                                                                               |
| Savt              | - (a. tovush) qo'shiq, ashula; Shashmaqomda nazirasifat turkum                                      |
| Sadri Iroq        | - Xorazm dutor maqomlarining mazkur nomdagi turkumi                                                 |
| Saqil             | - (a.og'ir, vazmin) aruz vaznlaridan; maqomlarda doira usuli va unga muvofiq cholg'u qismining nomi |
| Saraxbor          | - (f.t. boshlanishdan darak beruvchi) Shashmaqom ashula bo'limlarining boshlang'ich qismi           |
| Saroy sozandalari | - o'tmishda yuksak martabaga erishgan sozandalar                                                    |
| Segoh             | - maqom va turkum nomlari                                                                           |
| Sozanda           | - musiqachi                                                                                         |
| Suvora            | - (f.t. minmoq, otliq) maqomlarda muayyan usul va qism nomi; ilohiy aytilar                         |
| Sukun             | - (a. tinish) notada jimlik alomati, pauza                                                          |

|                       |                                                                                                                                                                                                                                          |
|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Tani maqom<br>Tasnif  | <p style="text-align: center;"><b>T</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Shashmaqomda saraxbor deb yuritiladi</li> <li>- (a. tartiblashtirilgan) Shashmaqom cholg'u bo'limining boshlang'ich qismi</li> </ul>                |
| Ustoz<br>Usul         | <p style="text-align: center;"><b>U</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bilim va mahoratda yetuklik timsoli</li> <li>- (a. asos) mantiqan tugal vazn birligi, maqom ijrosida doyrada chalinadigan ritmik formula</li> </ul> |
| Ufor                  | <ul style="list-style-type: none"> <li>- (a. ifor, xushbo'y) maqom turkumlarining ko'tarinki kayfiyatdagi bo'lagi</li> </ul>                                                                                                             |
| Ushshoq               | <ul style="list-style-type: none"> <li>- (a. oshiqlar) kuy va sho''ba nomi</li> </ul>                                                                                                                                                    |
| Fosila                | <p style="text-align: center;"><b>F</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aruz vaznining dastlabki elementlaridan biri</li> </ul>                                                                                             |
| Xonanda               | <p style="text-align: center;"><b>X</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aytuvchi</li> </ul>                                                                                                                                 |
| Chapandoz             | <p style="text-align: center;"><b>Ch</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- (f.t. andoza teskari) talqin usulida birinchi zarbga so'z o'qilishi, talqin usulining teskari ko'rinishi</li> </ul>                                |
| Chertim yo'li         | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Xorazm maqomlarida cholg'u kuylarining umumiy nomi</li> </ul>                                                                                                                                   |
| Chorgoh               | <ul style="list-style-type: none"> <li>- kuy va sho''ba nomi</li> </ul>                                                                                                                                                                  |
| Chorzarb              | <ul style="list-style-type: none"> <li>- zikr usullari va ashula yo'li</li> </ul>                                                                                                                                                        |
| Choki giribon         | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Xorazm dutor maqomlarining mazkur nomdagi turkumi</li> </ul>                                                                                                                                    |
| Shashmaqom<br>Sho''ba | <p style="text-align: center;"><b>Sh</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- maqomlarning muayyan shakli</li> <li>- (a. bo'lim) maqom ichidagimaqomlar</li> </ul>                                                               |
| El sozandalari        | <p style="text-align: center;"><b>E</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'muliy uslub vakillari</li> </ul>                                                                                                                 |
| Yakka zarb            | <p style="text-align: center;"><b>Ya</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bir yo'nalishdagi zarblarning muntazam takrorlanishi</li> </ul>                                                                                    |
| O'n ikki maqom        | <p style="text-align: center;"><b>O'</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- jamlar tizimining muayyan kategoriyasi</li> </ul>                                                                                                  |

|            |                                                                                                                   |
|------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qashqarcha | <b>Q</b><br>- Savt va Mug'ulcha turkumlarining tarkibiy qismi va usullari                                         |
| Qo'sh zarb | - bir yo'nalishdagi ikki zarbning ketma-ket kelishi                                                               |
| G'azal     | <b>G'</b><br>- (a. ishq ifodasi) sharqda keng tarqalgan she'r shakli; navbati murattab turkumining tarkibiy qismi |
| Hang       | <b>H</b><br>- ohang, ashula yo'llarida so'zsiz aytiladigan lavhalar                                               |
| Hafif      | - (a. yengil) saqilga muqobil usul va unga muvofiq kuy nomi                                                       |
| Hofiz      | - (a. Quronni yod biluvchi go'zal ovoz sohibi) maqom ustoz                                                        |

**Ergashev Abbas Bahridinnovichning Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan “Buxoro Shashmaqomida usullar semantikasi va ijrochiligi: bastakorlarning hayoti va ijodi”, mavzusidagi 5A111101 “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistranti dissertatsiyasining**

## **ANNOTATSIYASI**

**Tayanch (eng muhim so'zlar):** Shashmaqom, Maqom, Mug'om, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq. Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas, Saqiyl, Noxun, Talqin, Chapandoz, Caraxbor, Mushkulot, Nasr, Tarona, Burovard, Furovard, Avj, Miyotxat, Suporish, Usul, Ufar, Roq, Du-usul, shaxobcha.

**Tadqiqot ob'ekti:** - tadqiqot metodi asnosida Markaziy Osiyo san'atshunos olimlari, musiqashunos, sharqshunos va xorij davlatlarning xududimiz musiqa san'atiga bo'lgan tadqiqotlari, musiqashunoslar, etnograflarning mehnat faoliyati hamda tarix olimlari o'rin olgan.

**Tadqiqot metodi va Ishning maqsadi:** Buxoro ajdodiy san'ati mumtoz Shashmaqomini Doyra usullarini tahlil qilinishi ilk marotaba tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganildi. Musiqa madaniyatining turlari birla sharq mutafakkirlarining Buxoro shashmaqomiga bo'lgan ahamiyatlari, bastakorlik san'atining bosqichlarida ijrochilik qirralarini yoritish tariqasida an'anaviy - kasbiy [akademik] ijro muammolarini semantik asoslarda ilmiy jihatdan umumlashtirish, tadqiqotning **asosiy maqsadi** etib belgilandi.

**Olingan natijalar va ishning yangiligi:** Tadqiqotning **ilmiy yangiligi** uchun yaxlit ilmiy - umumnazariy va amaliy qoidalaridan biri - bu muayyan uslubiy masalalarning xossalarini o'rganish orqali umumiy xususiyatlarni aniqlash, qiyosiy tahlil, ya'ni semantikasini umumlashtirish vositasida ayrim amaliy uslublarni ham tavsiflab, ularning imkoniyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Ishning asosiy yangiligi musiqashunoslikning an'anaviy ijrolariga oid xossalarini o'rganish, oliy va o'rta maxsus musiqa ta'lim muassasalarida "Buxoro Shashmaqomi" tarixi, ijro semantikasi, usulklardagi tahlillarni o'rganish, uslublarni yosh avlod tarbiya vositasida tadbiq etilishi ilk marotaba tadqiqotdir.

**Amaliy ahamiyati:** Ishning amaliy tadbiqi "An'anaviy cholg'u" va "An'anaviy xonanda" yo'nalishlariga oid darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashga mo'ljallangan.

**Tadbiq etish darajasi va ijtimoiy samaradorligi:** Dissertatsiya matnidan musiqashunoslikga oid kelajak tadqiqotlar uchun tayanch manbalaridan biri bo'lishi; "An'anaviy cholg'u" va "An'anaviy xonanda" «O'zbek musiqasi tarixi», «Maqom asoslari», «Musiqa manbashunosligi», «San'at tarixi», fanlariga oid **amaliy** uslubshunoslik, maktab va san'at kollejlari mutaxassislik kurslari bo'yicha mashg'ulotlarda **nazariy** manba sifatida foydalanilishi kutiladi.

**Qo'llanilish (foydalanish) sohasi:** "An'anaviy cholg'u" va "An'anaviy xonanda" fanlari.

## ANNOTATSIYA

**Диссертации Эргашева Аббос Бахридиновича на тему “Семантика ритмов и исполнение Бухарского Шашмакома: жизни и творчество композиторов” на соискание академического магистра в направлении 5A111101 «Музыкальное обучение»**

**Ключевые слова:** Шашмакам, Макам, макам (традиционная), мугам, (голосизация), Бузрук, (Великий, непобедим) Рост, (справедливость) Наво, (печальное) Дугох, (названное в частичности) Сегох, Ирак, (название города) Тасниф, (начальное инструментальное исполнение) Тарже, Гардун, (вердит) Мухаммас, (названия ритма и исполнения) Сакийл, (ритми дойри и исполнительского части) Нохун, (металлическое медиатор) Талкин, (первое исполнительское слава в тексте) Чапандоз, (наоборотные ритмы дойры талкина) Мухаяр, Сарахбор, (начальное пение шашмакома) Мушкулот, (исполнительское часть шашмакома) Наср, (часть пении шашмакома) Тарана, (веселое исполнение и пении) Буровард, (тональное повышение игры) Фурувард, (понижение тонов в спускание игры) Авж, (кульминация) Миёнхат, (средний часть в исполнении и пении) Супориш, (передование) Усул (ритм), Уфар, (танцевальное ритм) Рок, (мост в шашмакоме, соединитель) двух-ритмовый, шахабча.

**Объекты исследования:** Метод исследования: опорой послужили фундаментальные научные труды музыковедов, востоковедов, искусствоведов Центральной Азии и ближнего востока, зарубежных стран..

**Цель работы:** в качестве объекта исследования избрана семантика ритмов Дойры Бухарского шашмакама: жизни и творчество композиторов. Впервые изучаются методы устных исполнительских методов и исторические введение ученых народов востока.

**Полученные результаты и научная новизна:**

Изучать семантики ритмов Дойры шашмакома. Изучать жизнь и творчество композиторов со современности исторического эпохи. Ознокомить в воспитании молодёжь опознавательность музыкально-традиционного исполнение Бухарского шашмакома.

**Практическая значимость:** предназначена для использования в подготовке пособий по традиционное исполнение и пении.

**Степень внедрения и социальная эффективность:** материалы диссертации могут быть использованы в музыкальных коллежах по составлению учебных пособий по циклам: “Основа макома”, “История искусство”, “Традиционное исполнение” и “Узбекская народная музыка”, “Музыкальное источниковедение”, “Традиционное пение”.

**Область применения:** применяется в занятиях по «Традиционное исполнение» и «исполнительской пении».

## ANNOTATION

**Dissertation of Nurullayev Farrux Gabullayevich on a theme “Percussion instruments in culture of examples of traditional music on western research work competition of a scientific degree of the academic Master’s Art criticism on a specialty 5A111101- musical art ”.**

**Key words:** Eastern and Western, mixed rhythm, tone-master, acoustics, folk etymology, rhythm-formula, ergo logy, modulation, idiophone, diaphragm-phone, chord-phone, aerophone, zoomorphologic, posomorphological, makam(traditional) and mugam(tone).

**Object of research:** In the capacity of object research is selected the most ancient and traditional music of the nation like (Middle East) Egypt, Iran, Afghanistan, Pakistan and India; (Western countries) Tunis, Morocco, Sudan etc; to observe the history of modern rendition and theoretical analyses of music and qualification of west people’s instruments.

At first instance to be learnt the methods of music renting also historical introduction scientists’ on the direction of west people.

**The purpose of work:** to define the difference learning of similarity and dissimilarity of music in west nation, researching methodical problems professional-traditional implementation although the problem of modern practical traditional music rendition.

**Method of research:** On underpinning have musicologists, orientalists, art historian acted in creative fundamental-scientific work in Central Area and Middle East, Foreign countries. Although the researches of ethnographs and historians.

**Derived results and news of music science:** The main music science news is definition of similarities and dissimilarities in music ethnography, professional execution of musical instruments and traditional musical culture renditions of west countries.

Studying the features of instruments, characterize and analyze its' opportunities in fiction practice "Traditional music affineness and unaffinences of West people". Resort to familiarization with upbringing the youth and sensorial music culture of the west countries for higher and middle educational establishment.

**The practical importance:** To be intent for the usage of preparation for benefits in instrumental authority and manual features of oriental studies.

**Degrees of introduction and scope:** materials of the dissertation can be used in conservatoires of Central Asia, Near and Middle East musical colleges on cycle "of musical sourcecriticism", "musical sciences", "foundation of makom", "instrumental performing", "history of Uzbek music".

**Sphere of using:** it is used in traditional instrumental histori, of practice "Traditional music affineness and unaffinences of West people".